

**ВАФО ФАЙЗУЛЛОХ**

**АЗАЛИЙ ҒУССА**

*ёхуд*

**ФАРИШТАЛАР УЧРАШТИРДИ  
ОРЗУЛАРНИ**

*Шеърлар*

---

**VAFO FAYZULLOH**

**AZALIY G'USSA**

*yoхud*

**FARISHTALAR UCHRASHTIRDI  
ORZULARNI**

*She'rlar*

“SHARQ” NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT – 2013

УДК 821.512.133-31

КБК 84(5Ў)6

Ф – 20

**Такризчилар:**

**Омон МУХТОР**, *адиб ва шоир,*

*Ўзбекистонда хизмат кўрсатган санъат арбоби,*

**Мирзо КЕНЖАБЕК**, *шоир ва олим*

**Ф – 20 Файзуллох, Вафо**

Азалий ғусса ёхуд Фаришталар учраш-  
тирди орзуларни: Шеърлар. – Т.: “Sharq”,  
2013. – 240 б.

**Қадрли мухлис!**

“Азалий ғусса ёхуд Фаришталар учраштирди ор-  
зуларни” истеъдодли шоир Вафо Файзуллохнинг чин  
дил изҳори, мард кўнгил излаб, йиллар оша йўллаган,  
бир интиқ доvon устида остонангизга етган шеърйй  
мактубларидир. Уни кўнглингиз орзикиб, сурурга  
тўлиб ўкийсиз, деган ниятдамиз.

ISBN 978-9943-00-947-9

УДК 821.512.133-31

КБК 84(5Ў)6

**ISBN 978-9943-00-947-9**

© “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси  
Бош таҳририяти, 2013.

UDK 821.512.133-31  
KBK 84(50‘)6  
F – 20

**Taqrizchilar:**

**Omon MUXTOR**, *adib va shoir,*

*O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi,*  
**Mirzo KENJABEK**, *shoir va olim*

**F – 20 Fayzulloh, Vafo**

Azaliy g‘ussa yoxud Farishtalar uch-  
rashtirdi orzularni: She’rlar. – T.: “Sharq”,  
2013. – 240-b.

**Qadrli muxlis!**

“Azaliy g‘ussa yoxud Farishtalar uchrashtirdi orzularni” iste’dodli shoir Vafo Fayzullohning chin dil izhori, mard ko‘ngil izlab, yillar osha yo‘llagan, bir intiq dovon ustida ostonangizga yetgan she’riy maktublaridir. Uni ko‘nglingiz orziqib, surguga to‘lib o‘qiysiz, degan niyatdamiz.

ISBN 978-9943-00-947-9

**UDK 821.512.133-31**  
**KBK 84(50‘)6**

**ISBN 978-9943-00-947-9**

© “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati, 2013.



## ШОИРЛИГИМ

Азалий ғуссага биринчи марта энг камида туғилмасимдан сал илгарироқ ботганман. Нуронийликка етиб, сахродан қишлоғига кайтган дostonчи чўпон бобом кенгликларни, йўқотган болалигини соғиниб, хаёлсевар келини, вужудида яшаётганим – онамдан “Ал-помиш”ни ўқиб беришини ўтинади. Ўшанда орзиқтирувчи, алвон ҳислар менга ҳам етиб бориб, қаламсиз шоирлигим кўз очган. Шундан бўлса керак, гўдаклигимда жуда ҳам журъатли эдим, мен учун тўсик йўқ эди беш ёшларга етгунимча. Хурлар севгилим эди. Буларга даҳри дуннинг ғаши келди, табора иддаоли қаради, устимдан кулишга тушди... Марҳаматингга кўнглим садка, тушунган суянчиғим онамга сирларимни ишондим. Ўн уч ёшимда қалам билан туртди шоирлигим Афандининг хуржунини... Маъносиз хаяжон, белгисиз, овозсиз ҳовлиқишларим азалий ғуссадан эди, азалий ғусса сари эди барибир...

Ғаддор даҳрнинг сиғдирмасликлари, бегона-парастлиги аксига кучаяверди. Менинг эса кавсар булоғини соғинган мусибатим мавжланаверди. Ўн тўққизимда қишлоғимни тарк этдим. Азалий ғуссага солган кўнгил юртини излаб





## SHOIRLIGIM

Azaliy g'ussaga birinchi marta eng kamida tug'ilmasimdan sal ilgariroq botganman. Nuroniylikka yetib, sahrodan qishlog'iga qaytgan dos-tonchi cho'pon bobom kengliklarni, yo'qotgan bolaligini sog'inib, xayolsevar kelini, vujudida yashayotganim – onamdan "Alpomish"ni o'qib berishini o'tinadi. O'shanda orziqtiruvchi, alvon hislar menga ham yetib borib, qalamsiz shoirligim ko'z ochgan. Shundan bo'lsa kerak, go'dakligimda juda ham jur'atli edim, men uchun to'siq yo'q edi besh yoshlarga yetgunimcha. Hurlar sevgilim edi. Bularga dahri dunning g'ashi keldi, tabora iddaoli qaradi, ustimdan kulishga tushdi... Marhamatingga ko'nglim sadqa, tushungan suyanchig'im onamga sirlarimni ishondim. O'n uch yoshimda qalam bilan turtdi shoirligim Afandining xurjunini... Ma'nosiz hayajon, belgisiz, ovozsiz hovliqishlarim azaliy g'ussadan edi, azaliy g'ussa sari edi baribir...

G'addor dahrning sig'dirmasliklari, begonaparastligi aksiga kuchayaverdi. Mening esa kavsar bulog'ini sog'ingan musibatim mavjlanaverdi. O'n to'qqizimda qishlog'imni tark etdim. Azaliy g'ussaga solgan ko'ngil yurtini izlab yo'lga chiqdim. Kimnidir, nimanidir ruhiyatim





йўлга чиқдим. Кимнидир, ниманидир руҳиятим жудаям интизор изларди. Ўзимда ўзимдан тортиб олинган ўзлим, туйғу ичган, хис кечган, шуур туйган кўшинларим азалий ғусса байроғи остида улғаймоққа уринарди. Шодлигимдан дудукланардим, холос. Фаришталар ҳовлисида ўсган райҳонлар, баҳорга тансик, анқо лолалар юрагимда. Мен эса ҳамон тилсиз қолавердим... Аянч. На райҳонларга етдим, на чайқалган лолаларимни бировга тақдим қила олдим. Шоирлигим тирик дорларда осилиб қолди. Майхўр арралар шоирлигимни нақадар занглатди...

Йигирма тўққизимда шунақа ҳам зич ўрмон, қуюқ туман чиқдики олдимдан... Гўё менга йўл йўқ эди уфқнинг ортига ўтиб олишимга. Оёқларимда тилло занжир, чехрамга зар никоб, кўлимга кумуш кишан, елкамда олтин қамчининг зийнатли излари хиргойи қиларди. Фақат ғуссам.... Уҳ, мен туйган, мен куйган азалий ғусса... Унга тил ато этсам борми!

Занжирбанд қуршовда полапонлар кўз очди. Армонлар мева солди. Беғамдай армон дарахтида ўтиравердим. Армоннинг сўзини талаффуз қилишга ҳеч тилим айланмади. Ичим азалий ғуссага тўлиб кетди. Ўлдириб, сўлдириб бўлмади уларнинг ҳеч бирини... Ўттиз тўққизимда энди бир тоғ йўлимга ғов бўлди, дов солди. Хайбати





judayam intizor izlardi. O'zimda o'zimdanda tortib olingan o'zligim, tuyg'u ichgan, his kechgan, shuur tuygan qo'shinlarim azaliy g'ussa bayrog'i ostida ulg'aymoqqa urinardi. Shodligimdan duduqlanardim, xolos. Farishtalar hovlisida o'sgan rayhonlar, bahorga tansiq, anqo lolalar yuragimda. Men esa hamon tilsiz qolaverdim... Ayanch. Na rayhonlarga yetdim, na chayqalgan lolalarimni birovga taqdim qila oldim. Shoirligim tirik dorlarda osilib qoldi. Mayxo'r arralar shoirligimni naqadar zanglatdi...

Yigirma to'qqizimda shunaqa ham zich o'rmon, quyuq tuman chiqdiki oldimdan... Go'yo menga yo'l yo'q edi ufqning ortiga o'tib olishimga. Oyoqlarimda tillo zanjir, chehramga zar niqob, qo'linga kumush kishan, yelkamda oltin qamchining ziynatli izlari xirgoyi qilardi. Faqat g'ussam.... Uh, men tuygan, men kuygan azaliy g'ussa... Unga til ato etsam bormi!

Zanjirband qurshovda polaponlar ko'z ochdi. Armonlar meva soldi. Beg'amday armon daraxtida o'tiraverdim. Armonning so'zini talaffuz qilishga hech tilim aylanmadi. Ichim azaliy g'ussaga to'lib ketdi. O'ldirib, so'ldirib bo'lmadi ularning hech birini... O'ttiz to'qqizimda endi bir tog' yo'limga g'ov bo'ldi, dov soldi. Haybati tinimsiz o'ziga chorlar, qo'rqinch va hayajonini





тинимсиз ўзига чорлар, кўркинч ва ҳаяжонини эсласам.... Ким ўйлабди, Тоғнинг тошига ет-масимдан ғофил йўлчини тақдир шунақа ку-лочкашлаб теран бир уммонга отдики... Бу нафс наинки жонқадар кадрдон ҳабибларим, ўзим ҳам ўзимга қаттол ғаним эканини англаб йиғлаганларим. Бунда азалий ғуссадан дарак йўқ эди, сира йўқ эди. Етти йил мен шу уммон қаърида ётдим. Ёнимдагиларнинг нуқсонларини севиб кўрардим. Биродарларим ёнгинамда пар-ранда-даррандаларга, балиқларга эврилди. Етти йил тинимсиз ғусса чекдим, тинимсиз орзиқдим, тинимсиз мағлубиятга ботдим. Нигоҳимдан додимни ўкиганлар юрагимнинг чорасизли-ги ва мубталолигидан кулганлари-кулган эди. Бадалига гўллимни пайқадим. Хаёлимдаги малаклар иблис, иблислари малоика экан-ку... Ашаддий сарсон-саргардон, хиёнаткор ўзим, кўнглим теграсида кезинарди. Хайрият, тили ке-сик дилим хиёнатни билмади, хиёнатни кечира олмади ҳам. Жисмоний ўзимни маънавий ўзимга йўлатмади. Уммондан кутулиб, ғорга кириб қолдим. Бўм-бўшлиқда хувиллайман. Ўзимни қанчалик даҳшатга солади йўқотганларим. Тил-сиз телбаланиш. Барибир, минг турли бир хис азалий ғуссадан азалий ғусса сари дилимни суд-раётир, сотилган Юсуфдай йўлга қарайман. Унинг меҳрибонлигига жуда қаттиқ ишонаман.







eslasam.... Kim o'ylabdi, Tog'ning toshiga yetmasimdan, g'ofil yo'lchini Taqdir shunaqa qulochkashlab teran bir ummonga otdiki... Bu nafs nainki jonqadar qadrdon habiblarim, o'zim ham o'zimga qattol g'ananim ekanini anglab yig'laganlarim. Bunda azaliy g'ussadan darak yo'q edi, sira yo'q edi. Yetti yil men shu ummon qa'rida yotdim. Yonimdagilarning nuqsonlarini sevib ko'rardim. Birodarlarim yonginamda par-randa-darrandalarga, baliqlarga evrildi. Yetti yil tinimsiz g'ussa chekdim, tinimsiz orziqdim, tinimsiz mag'lubiyatga botdim. Nigohimdan dodimni o'qiganlar yuragimning chorasizligi va muhtaloligidan kulganlari-kulgan edi. Badaliga go'lligimni payqadim. Xayolimdagi malaklar ib-lis, iblisleri maloika ekan-ku... Ashaddiy sarson-sargardon, xiyonatkor o'zim, ko'nglim tegrasida kezinardi. Xayriyat, tili kesik dilim xiyonatni bilmadi, xiyonatni kechira olmadi ham. Jismoniy o'zimni ma'naviy o'zimga yo'latmadi. Ummondan qutulib, g'orga kirib qoldim. Bo'm-bo'shlikda huvullayman. O'zimni qanchalik dahshatga soladi yo'qotganlarim. Tilsiz telbalanish. Baribir ming turli bir his azaliy g'ussadan azaliy g'ussa sari dilimni sudrayotir, sotilgan Yusufday yo'lga qarayman. Uning mehribonligiga juda qattiq isho-naman.





Бу сарҳисоб эмас. Менинг сарҳисоб қилишга ҳали маънавий ҳаққим йўқ. Бир умр тараддуд, фақат ҳозирланиш. Менинг ҳаққимга дуо қилинг. Азалий ғуссамни сўранглар, суриштиринглар, хаёлингизга шеър тўлгурлар! Ҳис этганларим жамолини, Ишқимнинг сўзини, Уни соғиниб, илоҳий илҳомга муштоқ ўтаётганимни ҳисобга олар Аллоҳим. Тотли бўза – азалий ғусса Сўзнинг васлига етай!!!


*Муаллиф*

---

Bu sarhisob emas. Mening sarhisob qilishga hali ma'naviy haqqim yo'q. Bir umr taraddud, faqat hozirlanish. Mening haqqimga duo qiling. Azaliy g'ussamni so'ranglar, surishtiringlar, xayolingizga she'r to'lgurlar! His etganlarim jamolini, Ishqimning so'zini, Uni sog'inib, ilohiy ilhomga mushtoq o'tayotganimni hisobga olar Allohim. Totli bo'za – azaliy g'ussa So'zning vasliga yetay!!!

*Muallif*

# ШЕЪРЛАР



**SHE'RLAR**



## КУЗ ВА БАҲОР ОРАЛИҒИДА

Осмоннинг рангига қўшилган ранглар,  
Олмалар ҳидини ҳидлайди тутиб.  
Қишлоқ. Бошланади пистоқи жанглар,<sup>1</sup>  
Яшамайди улар баҳорни кутиб.

Сўлғин боғ. Қабариб қолган қабрлар,  
Кўксимни тўлдирар айтмай алвидо.  
Тунларни кучоклаб йиғлар адирлар,  
Эскирган фаслдан бўлмасдан жудо.

Тонгда уйғонади кўкарган тупроқ;  
Тугайди мен эккан сўнгги сабрлар.  
Қаҳратон остига қолмасдан чорбоғ,  
Кўёшга талпина бошлар қабрлар...

1981

---

<sup>1</sup> Пистоқи (шева) – яшил.





## **KUZ VA BAHOR ORALIG'IDA**

Osmonning rangiga qo'shilgan ranglar,  
Olmalar hidini hidlaydi tutib.  
Qishloq. Boshlanadi pistoqi janglar,<sup>1</sup>  
Yashamaydi ular bahorni kutib.

So'lg'in bog'. Qabarib qolgan qabrlar,  
Ko'ksimni to'ldirar aytmay alvido.  
Tunlarni quchoqlab yig'lar adirlar,  
Eskirgan fasldan bo'lmasdan judo.

Tongda uyg'onadi ko'kargan tuproq;  
Tugaydi men ekkan so'nggi sabrlar.  
Qahraton ostiga qolmasdan chorbog',  
Quyoshga talpina boshlar qabrlar...

1981

---

<sup>1</sup> *Pistoqi (sheva)* – yashil.





## АРАФА ОҚШОМИ

Тўрткўзлар кутиб олган болакайларни,  
Рамазон айттирар қишлоқ йўллари.  
Лабларда наво бўлиб эриб кетган тун,  
Эсга олиб келар содда йилларни:

– Ё рамазон айтиб келдим эшигингизга,  
Худо қўчқордек ўғил берсин тилло  
бешигингизга.

Гунг остона бирдан бошлайди кўшиқ,  
Чол тинглаб титрайди эшилиб туйғу.  
Қорахатлар тўкиб, кийинган бўшлиқ,  
Кўзлари ёриydi-эй, туғади сулув.

– Янгача, янгача,  
Менга беринг тангача,  
Оёғимиз узилмагай  
Мурод айтиб тонггача.

Томларга ховузларни келарлар кўтариб,  
Олма дарахтини босар хаяжон.  
Бир этак болакайга боғлар йўталиб,  
Ўзига қўшиқ тўқир ошиқ қахрамон.





## ARAFa OQSHOMI

To'rtko'zlar kutib olgan bolakaylarni,  
Ramazon ayttirar qishloq yo'llari.  
Lablarda navo bo'lib erib ketgan tun,  
Esga olib kelar sodda yillarni:

– Yo ramazon aytib keldim eshigingizga,  
Xudo qo'chqordek o'g'il bersin tillo  
beshigingizga.

Gung ostona birdan boshlaydi qo'shiq,  
Chol tinglab titraydi eshilib tuyg'u.  
Qoraxatlar to'qib, kiyingan bo'shliq,  
Ko'zlari yoriydi-ey, tug'adi suluv.

– Yangacha, yangacha,  
Menga bering tangacha,  
Oyog'imiz uzilmagay  
Murod aytib tonggacha.

Tomlarga hovuzlarni kelarlar ko'tarib,  
Olma daraxtini bosar hayajon.  
Bir etak bolakayga bog'lar yo'talib,  
O'ziga qo'shiq to'qir oshiq qahramon.





– Бойнинг бир кизи бор, тўн бичади,  
Йигитлар султонидан сув ичади.  
У бичган тўнларининг қуроғи йўқ.  
Рўзада ўлганларнинг сўроғи йўқ.

Нурумид кампирнинг ёқилиб чироғи,  
Орзулар орзудан кетар кеккайиб.  
Бу кеч кўшиқларда қайтар қароғи  
Оймомонинг чўпчаклари қасддан кексайиб.

1982

### **ШАРҚ ҲАҚИДА ШАРҚНИНГ ҚЎШИҒИ**

Мачитларни кулатади тингланган орзу,  
Армонларнинг армонлари чоғлайди камон.  
Кунчиқарнинг кўкламига боғлаб тарози,  
Лайлакларнинг тилаклари келади омон.

Дилторларнинг баҳолари бўлган хаяжон,  
Қурбон кампир дуосига ўзин отади.  
Яссавийнинг дуторига осилган армон,  
Гадойларнинг елкасига боғлар ортади.







– Boyning bir qizi bor, to‘n bichadi,  
Yigitlar sultonidan suv ichadi.  
U bichgan to‘nlarining qurog‘i yo‘q.  
Ro‘zada o‘lganlarning so‘rog‘i yo‘q.

Nurumid kampirning yoqilib chirog‘i,  
Orzular orzudan ketar kekkayib.  
Bu kech qo‘shiqlarda qaytar qarog‘i  
Oymomoning cho‘pchaklari qasddan keksayib.

1982

### ***SHARQ HAQIDA SHARQNING QO‘SHIG‘I***

Machitlarni qulatadi tinglangan orzu,  
Armonlarning armonlari chog‘laydi kamon.  
Kunchiqarning ko‘klamiga bog‘lab tarozi,  
Laylaklarning tilaklari keladi omon.

Diltorlarning baholari bo‘lgan hayajon,  
Qurbon kampir duosiga o‘zin otadi.  
Yassaviyning dutoriga osilgan armon,  
Gadoylarning yelkasiga bog‘lar ortadi.





Куртакларнинг дарахтлари туғилган кунда,  
Ҳасратларни қок ёради ўлмаган тарона.  
Суюнчилар оқиб келар осмон бағрида,  
Шаҳзодалар қул бўлади, шоҳлар девона.

Оқ кунларни оркалайди беқазо дунё,  
Оҳангларга бахшидалиқ қаромат дилман.  
Кўзларимни юрагимга боғлаган наво –  
Юрагимда айтилмаган дардларим – Ватан.

Турналарнинг хуржунлари тўлган баҳорлар,  
Олиб келинар, олиб кетилар, йиллар  
майдонда.

Ҳаёлларнинг софликлари бўлиб ғалаба,  
Қуёшнинг ўзи ҳам бизлар томонда.

1983





Kurtaklarning daraxtlari tug‘ilgan kunda,  
Hasratlarni qoq yoradi o‘lmagan tarona.  
Suyunchilar oqib kelar osmon bag‘rida,  
Shahzodalar qul bo‘ladi, shohlar devona.

Oq kunlarni orqalaydi beqazo dunyo,  
Ohanglarga baxshidalik karomat dilman.  
Ko‘zlarimni yuragimga bog‘lagan navo –  
Yuragimda aytilmagan dardlarim – Vatan.

Turnalarning xurjunlari to‘lgan bahorlar,  
Olib kelinar, olib ketilar, yillar maydonda.  
Xayollarning soffliklari bo‘lib g‘alaba,  
Quyoshning o‘zi ham bizlar tomonda.

1983





\* \* \*

Пистоки кўзалардан хўпладим Шарқни,  
Хушовоз тупроқларнинг имконини ҳам.  
Шундан кейин менга диллар очилди:  
“Бизнинг дардимизни унутма, болам”.

Узоқ киш кечалар кампирлар гапдон,  
Ҳовлилари эса мункайган, пастқам.  
Йўталларга кўшиб тутдилар илҳом,  
Ёзмасам ўлгайдирман уялишдан ҳам.

Букри сўкмоқларга чиқдим отилиб,  
Хўнграб йиғласам-да ёғаверди қор.  
Чексиз далаларга кетдим сочилиб,  
Бундан бир кун униб чиқмоғим-ку бор!

Кўл силкиди ортда тупроқ том кулба,  
Кўзғалди содда дилда шодлик ва оғриқ.  
Қирлар ҳавоси-ла чиқдимми йўлга,  
Шарқдан пайдо бўлди яна бир кўшиқ!

1984





\* \* \*

Pistoqi ko‘zalardan ho‘pladim Sharqni,  
Xushovoz tuproqlarning imkonini ham.  
Shundan keyin menga dillar ochildi:  
“Bizning dardimizni unutma, bolam”.

Uzoq qish kechalar kampirlar gapdon,  
Hovlilari esa munkaygan, pastqam.  
Yo‘tallarga qo‘shib tutdilar ilhom,  
Yozmasam o‘lgaydirman uyalishdan ham.

Bukri so‘qmoqlarga chiqdim otilib,  
Ho‘ngrab yig‘lasam-da yog‘averdi qor.  
Cheksiz dalalarga ketdim sochilib,  
Bundan bir kun unib chiqmog‘im-ku bor!

Qo‘l silkidi ortda tuproq tom kulba,  
Qo‘zg‘aldi sodda dilda shodlik va og‘riq.  
Qirlar havosi-la chiqdimmi yo‘lga,  
Sharqdan paydo bo‘ldi yana bir qo‘shiq!

1984





## ҚЎШИҚ

Пахса девор,  
Устида бор,  
Тўртга дутор  
Улкан бемор.  
Пахса девор,  
Қулаган ор.  
Ўн саккиз минг  
Қўлда дутор.  
Сайратади,  
Булутларда бир кўшиқ бор.

Йикилади булутчалар,  
Йикилади сўнгра баҳор.  
Қасам ичган уфк дутор,  
Қуёш бемор.  
Бир кўшиқ бор.

Уфк бемор,  
Қуёш дутор.  
Хўнграб йўлга чўккалар нор,  
Бир кўшиқ бор.

Ўрқачларим ёлбор-ёлбор,  
Девонавор.





## QO'SHIQ

Paxsa devor,  
Ustida bor,  
To'rtta dutor  
Ulkan bemor.  
Paxsa devor,  
Qulagan or.  
O'n sakkiz ming  
Qo'lda dutor.  
Sayratadi,  
Bulutlarda bir qo'shiq bor.

Yiqiladi bulutchalar,  
Yiqiladi so'ngra bahor.  
Qasam ichgan ufq dutor,  
Quyosh bemor.  
Bir qo'shiq bor.

Ufq bemor,  
Quyosh dutor.  
Ho'ngrab yo'lga cho'kkalar nor,  
Bir qo'shiq bor.

O'rkachlarim yolbor-yolbor,  
Devonavor.





Қумга сиғмас  
Ўрқач абгор,  
Ўтгиз қунлаб сув ичмаган  
Бир қўшиқ бор.

Қумлар сарбон.  
Қум қаҳрамон,  
Ёлғиз йўлда,  
Ёлғиз армон.  
Йўлга тушган тойлар зотдор,  
Туёқларнинг бўёғида  
Бир қўшиқ бор.

Бир қўшиқ бор,  
Тепаларнинг нарёғида,  
Эртақларнинг оёғида  
Девлар хунхор,  
Ташлаб кетган йиллаб баҳор.  
Оқ теракка, ким керакка  
Хаёлларда бўлган тулпор  
Абдували<sup>1</sup> изларда бор.  
Саманларнинг тушларида,  
Ётган виқор  
Виқорларда бир қўшиқ бор.

---

<sup>1</sup> Абдували – Абдували Қутбиддин.







Qumga sig‘mas  
O‘rkach abgor,  
O‘ttiz kunlab suv ichmagan  
Bir qo‘shiq bor.

Qumlar sarbon.  
Qum qahramon,  
Yolg‘iz yo‘lda,  
Yolg‘iz armon.  
Yo‘lga tushgan toylar zotdor,  
Tuyoqlarning bo‘yog‘ida  
Bir qo‘shiq bor.

Bir qo‘shiq bor,  
Tepalarning naryog‘ida,  
Ertaklarning oyog‘ida  
Devlar xunxor,  
Tashlab ketgan yillab bahor.  
Oq terakka, kim kerakka  
Xayollarda bo‘lgan tulpor  
Abduvali<sup>1</sup> izlarda bor.  
Samanlarning tushlarida,  
Yotgan viqor  
Viqorlarda bir qo‘shiq bor.

---

<sup>1</sup> *Abduvali* – Abduvali Qutbiddin.





Ҳар бир кўшиқ битта баҳор,  
Ҳомерда минг,  
Есенинда юзта баҳор.

Симирилган тонгги аброр  
Абдулла-ку сара баҳор<sup>1</sup>.  
Бўламанми мен ҳам баҳор.  
Бир кўшиқ бор...

Бир кўшиқ бор,  
Чўллар сарик  
Тортган чорик;  
Нидо безор.  
Ҳарфларнинг бўйинларида  
Тошган озор  
Бир «кўшиқ» бор.  
Қутулмоқлик керак ундан,  
Кўшиқ сўраб сопол тундан.

Ҳали ҳам мен гўл, тўпори,  
Бошим ёрди қаттиқ кесак.  
Қаттиқ кесак,  
Зўр югурдак.  
Хаёлимни шундай есанг,

---

<sup>1</sup> Абдулла – Абдулла Орипов.





Har bir qo‘shiq bitta bahor,  
Homerda ming,  
Yeseninda yuzta bahor.

Simirilgan tonggi abror  
Abdulla-ku sara bahor<sup>1</sup>.  
Bo‘lamanni men ham bahor.  
Bir qo‘shiq bor

Bir qo‘shiq bor,  
Cho‘llar sariq  
Tortgan choriq;  
Nido bezor.  
Harflarning bo‘yinlarida  
Toshgan ozor  
Bir «qo‘shiq» bor.  
Qutulmoqlik kerak undan,  
Qo‘shiq so‘rab sopol tundan.

Hali ham men go‘l, to‘pori,  
Boshim yordi qattiq kesak.  
Qattiq kesak,  
Zo‘r yugurdak.  
Xayolimni shunday yesang,

---

<sup>1</sup> *Abdulla* – Abdulla Oripov.





Сени кўтариб келар келажак.  
Ҳали ҳам мен гўл, тўпори,  
Дардларимга кўшиқ чўпқори<sup>1</sup>,  
Ёзма дерлар сен бекорни  
Калламда ўйнашиб кўпқари.  
Сўз меники, ютуқ кимники,  
Йўқми бошқа айт, Вафо қул  
Кўшиқнинг бори,  
Кўшиқнинг нори.

Айт тўпори,  
Айт баҳорни.  
Бу воҳада ҳамма бедор,  
Қайноқ кўнгил бизга дилдор.  
Девоналар бари баҳор...  
Айт тўпори,  
Айт баҳорни.  
Баҳорларда бир кўшиқ бор.  
Қатлам-катлам дардим нигор,  
Қатларини титар сетор.  
Юрагимда сўнмас ўт бор,  
Топинганим дашту кўлвор.

---

<sup>1</sup> Чўпқори (шева) – синч.





Seni ko'tarib kelar kelajak.  
Hali ham men go'l, to'pori,  
Dardlarimga qo'shiq cho'pkori<sup>1</sup>,  
Yozma derlar sen bekorni  
Kallamda o'ynashib ko'pkari.  
So'z meniki, yutuq kimniki,  
Yo'qmi boshqa ayt, Vafo qul  
Qo'shiqning bori,  
Qo'shiqning nori.

Ayt to'pori,  
Ayt bahorni.  
Bu vohada hamma bedor,  
Qaynoq ko'ngil bizga dildor.  
Devonalar bari bahor...  
Ayt to'pori,  
Ayt bahorni.  
Bahorlarda bir qo'shiq bor.  
Qatlam-qatlam dardim nigor,  
Qatlarini titar setor.  
Yuragimda so'nmas o't bor,  
Toppinganim dasht-u ko'lvor.

---

<sup>1</sup> Cho'pkori (sheva) – sinch.





Ёпинганим эса баҳор.  
Бир қўшиқ бор.

Кенгликларда ялангоёқ,  
Ялангликлар берган маёқ.  
Орзу, орзу,  
Ортингдан югуриб бўлдим-ку този?  
Қулаб кетган созми, тилак.  
Отам чечак,  
Онам чечак.  
Укаларим – бу келажак.  
Йўловчи булоклар зиёрат,  
Юрагимдаги мозорат  
Қўрғоним баҳор бўлажак,  
Юрагим қийкириб кулажак!

Бир қўшиқ бор...

1985





Yopinganim esa bahor.  
Bir qo‘shiq bor.

Kengliklarda yalangoyoq,  
Yalangliklar bergan mayoq.  
Orzu, orzu,  
Ortingdan yugurib bo‘ldim-ku tozi?  
Qulab ketgan sozmi, tilak.  
Otam chechak,  
Onam chechak.  
Ukalarim – bu kelajak.  
Yo‘lovchi buloqlar ziyorat,  
Yuragimdagi mozorat  
Qo‘rg‘onim bahor bo‘lajak,  
Yuragim qiyqirib kulajak!

Bir qo‘shiq bor...

1985





**НИККОЛО ПАГАНИНИНИНГ «АЛПОМИШ»  
ДОСТОНИ**

Аҳай, бузрук қалбнинг нигоҳи ҳовуз,  
Алпнинг юрагини ковлаган Барчин.  
Ишкнинг дарёлари тошади сўзсиз,  
Наъра эгаллайди ер қаъри, Аршни.

Аҳай, кўпкарида оёғи қон Март,  
Термулган кўзларида тунаб Бойчибор.  
Бойсун-Қўнғиротнинг доврўғи қанот,  
Ўн тўрт ботмон кўшиқ иплари йўқ дор.

Аҳай, овозанинг қўли парли ёй,  
Асқартоғин чалган кудрат довуши.  
Қалмоқ талошида ҳуркитилган Ой,  
Тўксон молнинг инқилоби ковушиб.

Аҳай, севги дара, сийлаган тўра,  
Оқмоқда ориятинг мисоли жола.  
Олти ойлик йўлдир Чилбирдаги бахт,  
Туғённи камчилагин, туғённи, жўра.

Аҳай, сарҳадларни олди ғам Чилла...







**NIKKOLO PAGANINING «ALPOMISH»  
DOSTONI**

Ahay, buzruk qalbning nigohi hovuz,  
Alpning yuragini kovlagan Barchin.  
Ishqning daryolari toshadi so‘zsiz,  
Na‘ra egallaydi yer qa‘ri, Arshni.

Ahay, ko‘pkarida oyog‘i qon Mart,  
Termulgan ko‘zlarida tunab Boychibor.  
Boysun-Qo‘ng‘irotning dovrug‘i qanot,  
O‘n to‘rt botmon qo‘shiq iplari yo‘q dor.

Ahay, ovozaning qo‘li parli yoy,  
Asqartog‘in chalgan qudrat dovushi.  
Qalmoq taloshida hurkitilgan Oy,  
To‘qson molning inqilobi qovushib.

Ahay, sevgi dara, siylagan to‘ra,  
Oqmoqda oriyating misoli jola.  
Olti oylik yo‘ldir Chilbirdagi baxt,  
Tug‘yonni qamchilagin, tug‘yonni, jo‘ra.

Ahay, sarhadlarni oldi g‘am Chilla...





\* \* \*

Қишлоқ йўлда фасли заъфарон,  
Севги турна арғимчоғида.  
Югургандек ортидан гирён,  
Баҳор кучган юрт булоғи-ла.

Итлар эди бизга кадрдон,  
Шамолларнинг улаши кўшиқ,  
Икки кўнгил иккита осмон,  
Қишлоқ йўлда улғайди кўшиқ.

«Севасанми мени, Нодира»,  
Қишлоқ йўлга ёздим чинакам.  
Итлар бўлди дарддан девона,  
Кўзларида увлар тўрт кўклам.

Адирларни куйлади орзу,  
Илк бор титроқ – сўнгги кўнғироқ.  
Овозада келган овозни  
Йўлларимга айладим чироқ.

Куйлар сотган кал аттор амак,  
Ишк хақида берди хиргойи.  
Ҳуштакларга жойланган тилак,  
Қишлоқ йўли тўқир рубойи.





\* \* \*

Qishloq yo'lda fasli za'faron,  
Sevgi turna arg'imchog'ida.  
Yugurgandek ortidan giryon,  
Bahor quchgan yurt bulog'i-la.

Itlar edi bizga qadrdon,  
Shamollarning uvlashi qo'shiq,  
Ikki ko'ngil ikkita osmon,  
Qishloq yo'lda ulg'aydi qo'shiq.

«Sevasanmi meni, Nodira»,  
Qishloq yo'lga yozdim chinakam.  
Itlar bo'ldi darddan devona,  
Ko'zlarida uvlar to'rt ko'klam.

Adirlarni kuyladi orzu,  
Ilk bor titroq – so'nggi qo'ng'iroq.  
Ovozada kelgan ovozni  
Yo'llarimga ayladim chiroq.

Kuylar sotgan kal attor amak,  
Ishq haqida berdi xirgoyi.  
Hushtaklarga joylangan tilak,  
Qishloq yo'li to'qir ruboiy.





Тут шохига осдилар ёзни,  
Каллакланган бахо(р)дир мозий.  
Қирда қолган мағрур болалик,  
Қишлоқ йўлнинг қўлдаги сози.

Оч бўридек тун ҳам ютинар,  
Севгимизни асар оймомо.  
Қиймаланган қисмат мактублар,  
Қишлоқ йўлнинг юраги аро.

Хайрлашмай учаётир йиллар,  
Хотирани чорлар жамалак.  
Қишлоқ йўлда улғайган қўшиқ,  
Қишлоқ йўлда бўлгай келинчак.

Хотира турна арғимчоғида  
Бир умрга қалбимда армон.  
Энди ўшал вақт қароғида  
Қишлоқ йўлу фасли заъфарон.

1985





Tut shoxiga osdilar yozni,  
Kallaklangan baho(r)dir moziy.  
Qirda qolgan mag'ur bolalik,  
Qishloq yo'lining qo'ldagi sozi.

Och bo'ridek tun ham yutinar,  
Sevgimizni asrar oymomo.  
Qiymalangan qismat maktublar,  
Qishloq yo'lining yuragi aro.

Xayrlashmay uchayotir yillar,  
Xotirani chorlar jamalak.  
Qishloq yo'lda ulg'aygan qo'shiq,  
Qishloq yo'lda bo'lgay kelinchak.

Xotira turna arg'imchog'ida  
Bir umrga qalbmida armon.  
Endi o'shal vaqt qarog'ida  
Qishloq yo'l-u fasli za'faron.

1985





**ҚИШЛОҚ ТОМИДА УХЛАЁТГАН  
ҲОФИЗ БОЛА**

Чукур кўчаларда ялангоёк қайғу,  
Йирок-йирокларга чўзилган шудгор.  
Бир бола ухлайди қишлоқ томида,  
Булутлар сутига ташна, интизор.

Ҳовлилар четида ғўзапоя ғарами,  
Далаларнинг дарди йиғилган айём.  
Тушига ёғади йиллар ситами,  
Ҳаваслар чўккисида ухлайди илҳом.

Орзу денгизидир, кема варраги,  
Момосидан қолган ёдгорлик – эртак.  
Кенгликлар туганмас куйдир тилдаги,  
Хаёллар дунёсига бўйлар келажак.

Эгри йўллар аро овоза ҳаёт,  
Сарғайган армону орзу бепоён.  
Ошиғи тинмаган қишлоқи баёт,  
Ва уйғонган куни уйғонар исён.

1986





**QISHLOQ TOMIDA UXLAYOTGAN  
HOFIZ BOLA**

Chuqur ko'chalarda yalangoyoq qayg'u,  
Yiroq-yiroqlarga cho'zilgan shudgor.  
Bir bola uxlaydi qishloq tomida,  
Bulutlar sutiga tashna, intizor.

Hovlilar chetida g'o'zapoya g'arami,  
Dalalarning dardi yig'ilgan ayyom.  
Tushiga yog'adi yillar sitami,  
Havaslar cho'qqisida uxlaydi ilhom.

Orzu dengizidir, kema varragi,  
Momosidan qolgan yodgorlik – ertak.  
Kengliklar tuganmas kuydir tildagi,  
Xayollar dunyosiga bo'ylar kelajak.

Egri yo'llar aro ovoza hayot,  
Sarg'aygan armon-u orzu bepoyon.  
Oshig'i tinmagan qishloqi bayot,  
Va uyg'ongan kuni uyg'onar isyon.

1986





\* \* \*

Варрақлар осмонга солинган кўприк,  
Зардоли панжаси қонаган уфқ.  
Булутлар югуриб ҳориган хўтик,  
Қирларнинг лабидан ичаман қўшиқ.

Кўклам нон ёпади, меҳрлар қийчи,<sup>1</sup>  
Арикнинг рошидан<sup>2</sup> излайман сингил.  
Чилланинг субҳида очилган куйчи,  
Қирларга сочилиб ётибди кўнгил.

Адирлар уйғонган зангор хиргойи,  
Бахшининг манглайи исённинг йўли.  
Тунлари ўғирлаб зарғалдоқ ойни,  
Куёшнинг нуридан кундузни кийгум.

Сўнгра турналарга қўл силккан Ватан —  
Кўзимда хилпирар мунгли қизғалдоқ.  
Отажон, май ичманг, қўшиқ айтаман,  
Кетмоқлигим керак жуда ҳам йироқ.

1986

---

<sup>1</sup> Қийчи — баҳорда чиқадиған ўт, кўк сомса қилинади.

<sup>2</sup> Рош (шева) — соҳил, чет.







\* \* \*

Varraklar osmonga solingan ko‘prik,  
Zardoli panjasi qonagan ufq.  
Bulutlar yugurib horigan xo‘tik,  
Qirlarning labidan ichaman qo‘shiq.

Ko‘klam non yopadi, mehrlar qiychi,<sup>1</sup>  
Ariqning roshidan<sup>2</sup> izlayman singil.  
Chillaning subhida ochilgan kuychi,  
Qirlarga sochilib yotibdi ko‘ngil.

Adirlar uyg‘ongan zangor xirgoyi,  
Baxshining manglayi isyonning yo‘li.  
Tunlari o‘g‘irlab zarg‘aldoq oyni,  
Quyoshning nuridan kunduzni kiygum.

So‘ngra turnalarga qo‘l silkkan Vatan –  
Ko‘zimda hilpirar mungli qizg‘aldoq.  
Otajon, may ichmang, qo‘shiq aytaman,  
Ketmoqligim kerak juda ham yiroq.

1986

---

<sup>1</sup> *Qiychi* – bahorda chiqadigan o‘t, ko‘k somsa qilinadi.

<sup>2</sup> *Rosh (sheva)* – sohil, chet.





## КЎКЛАМ

*Яна баҳор келди....*

Абдулла Орипов

Яна баҳор келди, бу ўзга баҳор,  
Турналар йўргагида зангори қасос.  
Ўриклар кўтарган туғ ҳилпирайди зор,  
Мен Абдулла эмас, Вафоман, холос.

Ҳамал варраклари кулдир орзуга,  
Номсиз кизғалдоқлар исм йўклайди.  
Қабри очилган гул чопган қозига,  
Кўринг бинафшани, милтиқ ўклайди.

Майса қуршовида қолган дала-туз,  
Дайди булутлардан ичади захар.  
Кимга қайғураман, борми менда сўз,  
Бугун лолаларнинг мозори шаҳар.

Хотир чирик арқон, менинг бағрим қон,  
Нега булбулларни гўрга тикдилар,  
Ҳаяжонда номи улғайган зотлар,  
Чала эътиқодли бўлиб чикдилар.





## KO'KLAM

*Yana bahor keldi....*

Abdulla Oripov

Yana bahor keldi, bu o'zga bahor,  
Turnalar yo'rgagida zangori qasos.  
O'riklar ko'targan tug' hilpiraydi zor,  
Men Abdulla emas, Vafoman, xolos.

Hamal varraklari quldir orzuga,  
Nomsiz qizg'aldoqlar ism yo'qlaydi.  
Qabri ochilgan gul chopgan qoziga,  
Ko'ring binafshani, miltiq o'qlaydi.

Maysa qurshovida qolgan dala-tuz,  
Daydi bulutlardan ichadi zahar.  
Kimga qayg'uraman, bormi menda so'z,  
Bugun lolalarning mozori shahar.

Xotir chirik arqon, mening bag'rim qon,  
Nega bulbullarni go'rga tiqdilar,  
Hayajonda nomi ulg'aygan zotlar,  
Chala e'tiqodli bo'lib chiqdilar.





Қишлоқ. Гап халталар орзумга дордир,  
Ўғирда<sup>1</sup> ҳайратимни қоқидай туйиб.  
Меҳримга онам, отам, укамлар зордир,  
Тириклар мотамига юрибман куйиб.

Яна баҳор келди, бу ўзга баҳор,  
Менинг кўп тилсимга етмайди ақлим.  
Фақат бир ишончим Шарқдек устувор,  
Уйғон, бир уйғониб ухлаган халким.

1986

### **ҚИШЛОҚИ ШОИР БАХТИ**

Қишлоқ армонлари йиғилган дўнглик,  
Овозалар севар ул қизнинг ҳуснин.  
Мендан бўлак яна шайдо тўққиз бек  
Тунлари тебратиб такрорлар исмин.

Тўдабоши бориб турган безори,  
Қонаган бурунлар кучига тилхат.  
Кўрқитиб олмоқчи бўлар баҳорни,  
Севги ҳақиқатнинг лунжидаги байт.

Шўхлик кўчасида бири кучукбоз,  
Қароғида яшар овул итлари.

---

<sup>1</sup> Ўғир (*шева*) – келисоп.





Qishloq. Gap xaltalar orzumga dordir,  
O'g'irda<sup>1</sup> hayratimni qoqiday tuyib.  
Mehrimga onam, otam, ukamlar zordir,  
Tiriklar motamiga yuribman kuyib.

Yana bahor keldi, bu o'zga bahor,  
Mening ko'p tilsimga yetmaydi aqlim.  
Faqat bir ishonchim Sharqdek ustuvor,  
Uyg'on, bir uyg'onib uxlagan xalqim.

1986

### **QISHLOQI SHOIR BAXTI**

Qishloq armonlari yig'ilgan do'nglik,  
Ovozalar sevar ul qizning husnin.  
Mendan bo'lak yana shaydo to'qqiz bek  
Tunlari tebratib takrorlar ismin.

To'daboshi borib turgan bezori,  
Qonagan burunlar kuchiga tilxat.  
Qo'rqitib olmoqchi bo'lar bahorni,  
Sevgi haqiqatning lunjidagi bayt.

Sho'xlik ko'chasida biri kuchukboz,  
Qarog'ida yashar ovul itlari.

---

<sup>1</sup> O'g'ir (*sheva*) – kelisop.





Қишлоқ куйларига улар жўровоз,  
Оқшомлар йўргагин эса йиртади.

Агар тўдабоши бўлса зўравон,  
Ўсиб келаётан юрак чўлига.  
Ишонинг, кучуклар эди ҳукмрон,  
Ул пари қатновчи қишлоқ йўлига.

Ана, кенгликларда тушди эсимга  
Куйлари осмонга ёйилган Чўлпон.  
Унинг куйларидан хўнграб йиғладим,  
Нечун бойлик дея ўлади жаҳон.

Ҳавас ошиқликни олмоқчи сотиб,  
Қишлоқнинг тилида айланар армон.  
Ўқ йўқми, кўзғалинг, кесаклар отиб,  
Бойлик севолмайди, севгиси ёлғон.

Тепаликнинг дарди ошиқ ўнавлон,  
Қайралган тишларда кўрмоқлик ҳавас.  
Гўзаллик мағрурдир мисоли осмон.  
Мактублар йиртилган, ҳеч кимга боқмас.

Биламан, ҳаммангиз бўсага зорсиз.  
Орзулар тўзони ичра турибман.





Qishloq kuylariga ular jo'rovoz,  
Oqshomlar yo'rgagin esa yirtadi.

Agar to'daboshi bo'lsa zo'ravon,  
O'sib kelayotan yurak cho'liga.  
Ishoning, kuchuklar edi hukmron,  
Ul pari qatnovchi qishloq yo'liga.

Ana, kengliklarda tushdi esimga  
Kuylari osmonga yoyilgan Cho'lpon.  
Uning kuylaridan ho'ngrab yig'ladim,  
Nechun boylik deya o'ladi jahon.

Havas oshiqlikni olmoqchi sotib,  
Qishloqning tilida aylanar armon.  
O'q yo'qmi, qo'zg'aling, kesaklar otib,  
Boylik sevolmaydi, sevgisi yolg'on.

Tepalikning dardi oshiq o'navlon,  
Qayralgan tishlarda ko'rmoqlik havas.  
Go'zallik mag'rurdir misoli osmon.  
Maktublar yirtilgan, hech kimga boqmas.

Bilaman, hammangiz bo'saga zorsiz.  
Orzular to'zoni ichra turibman.





Йиллар қаҳратонда қолган баҳорсиз,  
Мен унинг қалбини ўпиб юрибман.

Майли, коптирингиз тишлонғич итга,  
Мен ҳам ул севгига ахир дахлдор.  
Дўстларим, барибир қолгайсиз четда,  
Ўнта дард меники ва битта баҳор.

Ҳаёт шеърларини ёдлаб, юкинган,  
Ҳаяжоним қишлоқ хуснига овчи.  
Менинг томонимдан, менинг ишқимдан  
Ҳофиз билан Хайём бўлдилар совчи.

Дўстларим, барибир қолгайсиз четда,  
Сиз севган, мен куйган, ул эса битта.  
Шеър ёздим йўлига, исмидир васфи,  
Тайёрман Исодек кетмоққа кўкка.

Унинг қанотидир қишлоқ алвончи,  
Булут овозимда кунлар қувончи.  
Менинг томонимдан, менинг ишқимдан  
Ҳофиз билан Хайём бўлдилар совчи.

1986







Yillar qahratonda qolgan bahorsiz,  
Men uning qalbini o'pib yuribman.

Mayli, qoptiringiz tishlong'ich itga,  
Men ham ul sevgiga axir daxldor.  
Do'stlarim, baribir qolgaysiz chetda,  
O'nta dard meniki va bitta bahor.

Hayot she'rlarini yodlab, yukingan,  
Hayajonim qishloq husniga ovchi.  
Mening tomonimdan, mening ishqimdan  
Hofiz bilan Xayyom bo'ldilar sovchi.

Do'stlarim, baribir qolgaysiz chetda,  
Siz sevgan, men kuygan, ul esa bitta.  
She'r yozdim yo'liga, ismidir vasfi,  
Tayyorman Isodek ketmoqqa ko'kka.

Uning qanotidir qishloq alvonchi,  
Bulut ovozimda kunlar quvonchi.  
Mening tomonimdan, mening ishqimdan  
Hofiz bilan Xayyom bo'ldilar sovchi.

1986





### ЁЗ-З-И

Буғдой бошоғининг рангидек армон,  
Байтул ахзон ичра кўкарган сурхон.  
Илон чаққан боғлар айтади азон...  
Ёз-з-и.

Висол оқшомини қавиган<sup>1</sup> қизлар,  
Қатқалок пайкалларда экилди излар,  
Лабларни елимлади ложувард сўзлар,  
Ёз-з-и.

Чордевор тўлқинлари буздими ўзан?  
Чалдевор оқинлари туздими ўлан?  
Қалбимнинг келинчаги бичдими сўзан?<sup>2</sup>  
Ёз-з-и.

Даштларнинг қувраган ўтлари тугун,  
Кўзимнинг ёшлари рухсатсиз тўкин,  
Тилларинг қонаса, қонига юкун!  
Ёз-з-и.

---

<sup>1</sup> Қавимоқ – тикмок.

<sup>2</sup> Сўзан – сўзана.





## YOZ-Z-I

Bug‘doy boshog‘ining rangidek armon,  
Baytul ahzon ichra ko‘kargan surhon.  
Ilon chaqqan bog‘lar aytadi azon...  
Yoz-z-i.

Visol oqshomini qavigan<sup>1</sup> qizlar,  
Qatqaloq paykallarda ekildi izlar,  
Lablarni yelimladi lojuvard so‘zlar,  
Yoz-z-i.

Chordevor to‘lqinlari buzdimi o‘zan?  
Chaldevor oqinlari tuzdimi o‘lan?  
Qalbimning kelinchagi bichdimi so‘zan?<sup>2</sup>  
Yoz-z-i.

Dashtlarning quvragan o‘tlari tugun,  
Ko‘zimning yoshlari ruxsatsiz to‘kin,  
Tillaring qonasa, qoniga yukun!  
Yoz-z-i.

---

<sup>1</sup> *Qavimoq* – tikmoq.

<sup>2</sup> *So‘zan* – so‘zana.





## БАҲОР ОРТИДАН МУНОЖОТ

Қабри йўқ баҳорни кўмдим қалбимга,  
Лолалар лабимда юрибди сузиб,  
Баҳор кетяпти, баҳордир дарға,  
Ортидан югурдим арвоҳдек тўзиб.

Қани, орзуларнинг дояси ҳамал,  
Олхўри дарахтининг оғзидаги сут.  
Қорачиғим фарёд этмоқда қамал,  
Наҳот ўтганларнинг бариси унут.

Ўн саккизга кирди холамнинг қабри,  
Ўн саккизда кетган эди ўзи ҳам.  
Йигирма уч ёшда йиғлоқи ари,  
Отнинг дийдасидан қаттиқдир дийдам.

Ўжар сахроининг кулбасича бор  
Юрак эшигидан чиқмоқда кўклам.  
Мени ташлаб кетма, азизим баҳор,  
Этагингга тўкай бор-бутун ғуссам.

Дағал чўпчаклар-ла шопирганда шон,  
Хивчин миниб юрган бир бола эдим.  
Баҳор эса миниб юрарди ғунон,  
Мовий ялангликлар ёпинган тилсим.





## **BAHOR ORTIDAN MUNOJOT**

Qabri yo‘q bahorni ko‘mdim qalbimga,  
Lolalar labimda yuribdi suzib,  
Bahor ketyapti, bahordir darg‘a,  
Ortidan yugurdim arvohdek to‘zib.

Qani, orzularning doyasi hamal,  
Olxo‘ri daraxtining og‘zidagi sut.  
Qorachig‘im faryod etmoqda qamal,  
Nahot o‘tganlarning barisi unut.

O‘n sakkizga kirdi xolamning qabri,  
O‘n sakkizda ketgan edi o‘zi ham.  
Yigirma uch yoshda yig‘loqi ari,  
Otning diydasidan qattiqdir diydam.

O‘jar sahroyining kulbasicha bor  
Yurak eshigidan chiqmoqda ko‘klam.  
Meni tashlab ketma, azizim bahor,  
Etagingga to‘kay bor-butun g‘ussam.

Dag‘al cho‘pchaklar-la shopirganda shon,  
Xivchin minib yurgan bir bola edim.  
Bahor esa minib yurardi g‘unon,  
Moviy yalangliklar yopingan tilsim.





Сарғайган меҳрлардан ўсаётган дон,  
Далани тўлдиради ҳали ҳам шўхлик.  
Менинг юрагимни суғорган осмон,  
Бевафо баҳор билан кетаётган ёшлик.

Содда софликларга қанотлар тилаб,  
Турна арғимчоғи билан тиллашдим.  
Навкирон ариқларга ялпизлар йўллаб,  
Ялангоёк баҳор бўлди улашим.

Шафак йўрғагида тўкқиз “алла”си,  
Уч ой бормаганим узр, онажон.  
Баҳор хур қуёшнинг тўнғич боласи,  
Мангу тирикликка лаҳзали эҳсон.

Ортдан югуради менинг учун ҳам,  
Бўталоғи каби дардманд туянинг.  
Ёнингизда ҳалак жигарим кўклам,  
Мени соғинсангиз унга суюнинг.

Кўнгил сарҳадида кўкарди севги,  
Апрель охиридек ўзгарган тусим.  
Қирда мени кутган лолалар билан  
Ул қизнинг исмини ёзмақчи эдим.





Sarg'aygan mehrlardan o'sayotgan don,  
Dalani to'ldiradi hali ham sho'xlik.  
Mening yuragimni sug'organ osmon,  
Bevafo bahor bilan ketayotgan yoshlik.

Sodda sofliklarga qanotlar tilab,  
Turna arg'imchog'i bilan tillashdim.  
Navqiron ariqlarga yalpizlar yo'llab,  
Yalangoyoq bahor bo'ldi ulashim.

Shafaq yo'rgagida to'qqiz "alla"si,  
Uch oy bormaganim uzr, onajon.  
Bahor hur quyoshning to'ng'ich bolasi,  
Mangu tiriklikka lahzali ehson.

Ortdan yuguradi mening uchun ham,  
Bo'talog'i kabi dardmand tuyaning.  
Yoningizda halak jigarim ko'klam,  
Meni sog'insangiz unga suyaning.

Ko'ngil sarhadida ko'kardi sevgi,  
Aprel oxiridek o'zgargan tusim.  
Qirda meni kutgan lolalar bilan  
Ul qizning ismini yozmoqchi edim.





Тошда ўйилгандек қалбда бир дафтар,  
Йилларимни узиб, қайтмади варрак.  
Лолалар ер қаърига этдилар сафар,  
Изғиди адирларда бағри хун тилак:

– Тўкилса булутларнинг бемаврид қони,  
Хуштак кўчаларнинг қалби, камони,  
Болалик жанозасиз тарк этса жонни,  
Уфққа етмоқчилар баҳор йўқласин.

Ишкнинг даласида армон ўрмоқчи,  
Ишкнинг даласида чакмоқ ўроқчи,  
Ўғлига энг муборак дардни ёймоқчи,  
Исм излаганлар баҳор йўқласин.

Етим қалби учун баҳорни эмган,  
Ҳазратим ирода, деб ҳар кун ўтинган,  
Қочқоқ булбулларга ака тутинган,  
Томоғи йиртилганлар баҳор йўқласин.

Ҳаёт ва шеърят нимага қодир,  
Келажак баҳорларим нимага дорир.  
Турна этагида бўламан ҳозир,  
Мени йўқлаганлар баҳор йўқласин.







Toshda o'yilgandek qalbda bir daftar,  
Yillarimni uzib, qaytmadi varrak.  
Lolalar yer qa'riga etdilar safar,  
Izg'idi adirlarda bag'ri xun tilak:

– To'kilsa bulutlarning bemavrid qoni,  
Hushtak ko'chalarning qalbi, kamoni,  
Bolalik janozasiz tark etsa jonni,  
Ufqqa yetmoqchilar bahor yo'qlasin.

Ishqning dalasida armon o'rmoqchi,  
Ishqning dalasida chaqmoq o'roqchi,  
O'g'liga eng muborak dardni yoymoqchi,  
Ism izlaganlar bahor yo'qlasin.

Yetim qalbi uchun bahorni emgan,  
Hazratim iroda, deb har kun o'tingan,  
Qochqoq bulbullarga aka tutingan,  
Tomog'i yirtilganlar bahor yo'qlasin.

Hayot va she'riyat nimaga qodir,  
Kelajak bahorlarim nimaga dorir.  
Turna etagida bo'laman hozir,  
Meni yo'qlaganlar bahor yo'qlasin.





Қабри йўқ баҳорни кўмдим қалбимга,  
Лолалар лабимда юрибди сузиб.  
Баҳор кетяпти, баҳордир дарға,  
Ортидан югурдим арвоҳдек тўзиб.

1986

\* \* \*

Шеърим – узоқладим онамдан,  
Осди гуллар тўнғич эркини.  
Узоқлатди деҳқон отамдан  
Қодирийнинг ҳайрат экини.  
Шеърим – Азройилга хабарсиз умрим,  
Кўнгли синиқ йўл қарар ажал.  
Узоқлади жигар соғинчи,  
Эгаллади ўрнини ханжар.  
Зиёратга келади шеърим,  
Узоқладим ўзим-ўзимдан.  
Дунё ирим қилар, ирим...  
Кўзимда туғилганлар кўзимда.  
Туш кўради хаёл, илк севгим,  
Қирда ойга эдим парвона.  
Қарғадилар, қайтмадим, тиндим,  
Кечдим, кечдим, кечдим... девона.

1991





Qabri yo‘q bahorni ko‘mdim qalbimga,  
Lolalar labimda yuribdi suzib.  
Bahor ketyapti, bahordir darg‘a,  
Ortidan yugurdim arvohek to‘zib.

1986

\* \* \*

She‘rim – uzoqladim onamdan,  
Osdi gullar to‘ng‘ich erkini.  
Uzoqlatdi dehqon otamdan  
Qodiriyning hayrat ekini.  
She‘rim – Azroyilga xabarsiz umrim,  
Ko‘ngli siniq yo‘l qarar ajal.  
Uzoqladi jigar sog‘inchi,  
Egalladi o‘rmini xanjar.  
Ziyoratga keladi she‘rim,  
Uzoqladim o‘zim-o‘zimdan.  
Dunyo irim qilar, irim...  
Ko‘zimda tug‘ilganlar ko‘zimda.  
Tush ko‘radi xayol, ilk sevgim,  
Qirda oyga edim parvona.  
Qarg‘adilar, qaytmadim, tindim,  
Kechdim, kechdim, kechdim... devona.

1991





## СИНГЛИМ НАСИБАНИНГ ШЕЪРИ

Ёлғиз кўйлагим баҳор,  
Жулдур бўлди, на қилай.  
Ўраган дуррам булут,  
Йиртилди, қайдан олай?

Рўмолчамдаги ялпиз  
Аразлаган ариқдан.  
Тунлари кўноқ юлдуз,  
Билибди зар балиқдан.

Кетмоқчи зоғора ҳам,  
Бўлганда овора ҳам.  
Ёзсанг-чи хат сиёҳдон,  
Эмас-ку улар меҳмон.

Офтоб кўчирар дарсни  
Отамнинг даласига.  
Қандай яхши қаҳратон  
Ўзбекнинг боласига.

Сарик девмикан, билмам,  
Учар гилам учмасин.  
Битта илтимос, ака,  
Ой – чироғим ўчмасин.

1989





## **SINGLIM NASIBANING SHE'RI**

Yolg'iz ko'ylagim bahor,  
Juldur bo'ldi, na qilay.  
O'ragan durram bulut,  
Yirtildi, qaydan olay?

Ro'molchamdagi yalpiz  
Arazlagan ariqdan.  
Tunlari qo'noq yulduz,  
Bilibdi zar baliqdan.

Ketmoqchi zog'ora ham,  
Bo'lganda ovora ham.  
Yozsang-chi xat siyohdon,  
Emas-ku ular mehmon.

Oftob ko'chirar darsni  
Otamning dalasiga.  
Qanday yaxshi qahraton  
O'zbekning bolasiga.

Sariq devmikan, bilmam,  
Uchar gilam uchmasin.  
Bitta iltimos, aka,  
Oy – chirog'im o'chmasin.

1989





## НУСХА

Майли мен тўпори, майли мен содда,  
Юзимга отасиз ҳар хил баҳони.  
Биздан минглаб йиллар ўзиган олдга,  
Пул билан ўлчайсиз ёвқур даҳони.

Сизнингча, фойдасин билмаган довдир,  
Отилган кулгулар мисли палаҳмон.  
Ҳақиқатнинг эса юраги долдир,  
Кўзи очик кўрлар машҳури замон.

Базмлар, зиёфатлар ўтмайди сизсиз,  
Сўзингиздан томиб дононинг нақли.  
Эртанинг донолари оғзи қон, сўзсиз,  
Туфланган башарангиз кечага тақлид.

Булбул дилдан кўчиб келдингиз шайдо,  
Оҳанг тарновига тўлдириб ғусса.  
Қаранг, чин, мард сафлар бўлмоқда пайдо,  
Сиз фақат нусхасиз, сиз фақат нусха!

1987





**NUSXA**

Mayli men to'pori, mayli men sodda,  
Yuzimga otasiz har xil bahoni.  
Bizdan minglab yillar o'zigan oldga,  
Pul bilan o'lchaysiz yovqur dahoni.

Sizningcha, foydasin bilmagan dovdir,  
Otilgan kulgular misli palahmon.  
Haqiqatning esa yuragi doldir,  
Ko'zi ochiq ko'rlar mashhuri zamon.

Bazmlar, ziyofatlar o'tmaydi sizsiz,  
So'zingizdan tomib dononing naqli.  
Ertaning donolari og'zi qon, so'zsiz,  
Tuflangan basharangiz kechaga taqlid.

Bulbul dildan ko'chib keldingiz shaydo,  
Ohang tarnoviga to'ldirib g'ussa.  
Qarang, chin, mard saflar bo'lmoqda paydo,  
Siz faqat nusxasiz, siz faqat nusxa!

1987





Ғурбатхонами бу?  
Кураш касаллик,  
Идрок қулаган,  
Нураган деворни чалмоқда  
Бўғрикқан нафаслар,  
Куйган кунлар эса кетиб бормоқда.

Юрак – ойнами бу?  
Сийқа нақорат билан чапланган тил.  
Ақллиларнинг эмас, гапдонларнинг шуури  
Рақс тушади доира бўйлаб.  
Алдаб ваъда беради кўр кўнгил,  
Ичи тирмаланган шуҳратнинг.

Сурат – намунами бу?  
Ҳаётни ниқоблашнинг макони,  
Инсонни билиш бели букри меҳнатда,  
Текис йўллар дил каби узлатда,  
Мардларнинг факат кўз ёши – ёвғони.

Ишқ – тантанами бу?  
Боши иккита бўлиб ўтади кўрикдан.  
Дилсиз таннинг хаёллари ёзилиб  
Эртани яратар ўликлар.







\* \* \*

G'urbatxonami bu?  
Kurash kasallik,  
Idrok qulagan,  
Nuragan devorni chalmoqda  
Bo'g'riqqan nafaslar,  
Kuygan kunlar esa ketib bormoqda.

Yurak – oynami bu?  
Siyqa naqorat bilan chaplangan til.  
Aqllilarning emas, gapdonlarning shuuri  
Raqs tushadi doira bo'ylab.  
Aldab va'da beradi ko'r ko'ngil,  
Ichi tirmalangan shuhratning.

Surat – namunami bu?  
Hayotni niqoblashning makoni,  
Insonni bilish beli bukri mehnatda,  
Tekis yo'llar dil kabi uzlatda,  
Mardlarning faqat ko'z yoshi – yovg'oni.

Ishq – tantanami bu?  
Boshi ikkita bo'lib o'tadi ko'rikdan.  
Dilsiz tanning xayollari yozilib  
Ertani yaratar o'liklar.





Йиллар ялтоқланган тўшакда  
Қамчиланар меҳрга зор дудоклар,  
Маъсум севги ўн йил олдинги ҳуштакда.  
Тўқнашганда кон туфлайди нигоҳлар.

Ҳақиқат – ғўр сўнами бу?  
Ёпишади ўчиб қолган чирокқа.  
Мусаффо тонгларнинг қонлари  
Итларга тортилади ялоқда...

Нима бу ўзи? Нима бу?..

1984

### СЎНГГИ ҚЎШИҚ

*(Афғон хонандаси Аҳмад Зоирнинг  
Шарқдан келаётган турналарга айт-  
ганлари)*

Эҳ-ей, баҳорлари келмаган осмон,  
Турналар бостириб келяпти бизга.  
Қани, қанотингни ёйгин армонжон,  
Жуда ўхшаркансан мен севган қизга...

Майли аразлангиз турналар мендан,  
Сизни мадҳ этмади овозим – рубоб.





Yillar yaltoqlangan to'shakda  
Qamchilalar mehrga zor dudoqlar,  
Ma'sum sevgi o'n yil oldingi hushtak-da.  
To'qnashganda qon tufaydi nigohlar.

Haqiqat – g'o'r so'nami bu?  
Yopishadi o'chib qolgan chiroqqa.  
Musaffo tonglarning qonlari  
Itlarga tortiladi yaloqda...

Nima bu o'zi? Nima bu?..

1984

### **SO'NGGI QO'SHIQ**

*(Afg'on xonandasi Ahmad Zoirning  
Sharqdan kelayotgan turnalarga ayt-  
ganlari)*

Eh-ey, bahorlari kelmagan osmon,  
Turnalar bostirib kelyapti bizga.  
Qani, qanotingni yoygin armonjon,  
Juda o'xsharkansan men sevgan qizga...

Mayli arazlangiz turnalar mendan,  
Sizni madh etmadi ovozim – rubob.





Лекин келажакдир қишнинг ортидан  
Менинг турналарим – буюк инкилоб.

Қаранг, ўз қабримни қовлайман ўзим,  
Дунёни қучаётган сўзларим озод.  
Мен мана бу қабр – дунёни буздим,  
Кўзларимда гуллаб ётар изтироб.

Ҳисобмас, йиқилдим, рубобим синди,  
Хайр, дилда айтгум охирги сўзни:  
– Енгилмас кўшиғимда баҳорлар унди,  
Менга оқ йўл берган қуёшнинг ўзи!

1987

## **МИРТЕМИРНИНГ СЎНГГИ КУНЛАРИ**

Баҳорим келмади, мен тўйдим йиғлаб,  
Юрагим ҳеч кимга демади хайр.  
Янтоқлар кўкарди руҳимни англаб,  
Болалик қабрига гул қўйган сабр.

Даштлар чопқилади ялангоёқлаб,  
Сарғайган ҳаяжон – она Туркистон.  
Ялангликлар келди мени сўроқлаб,  
Яссавийни ёдла, Яссига ишон.





Lekin kelajakdir qishning ortidan  
Mening turnalarim – buyuk inqilob.

Qarang, o‘z qabrimni kovlayman o‘zim,  
Dunyoni quchayotgan so‘zlarim ozod.  
Men mana bu qabr – dunyoni buzdim,  
Ko‘zlarimda gullab yotar iztirob.

Hisobmas, yiqildim, rubobim sindi,  
Xayr, dilda aytgum oxirgi so‘zni:  
– Yengilmas qo‘shig‘imda bahorlar undi,  
Menga oq yo‘l bergan quyoshning o‘zi!

1987

### **MIRTEMIRNING SO‘NGGI KUNLARI**

Bahorim kelmadi, men to‘ydim yig‘lab,  
Yuragim hech kimga demadi xayr.  
Yantoqlar ko‘kardi ruhimni anglab,  
Bolalik qabriga gul qo‘ygan sabr.

Dashtlar chopqiladi yalangoyoqlab,  
Sarg‘aygan hayajon – ona Turkiston.  
Yalangliklar keldi meni so‘roqlab,  
Yassaviyni yodla, Yassiga ishon.





Очиқ хотирамда ин кўйди алам,  
Топталган элимнинг хунини кўриб.  
Нигоҳим ердадир, бўғзимда қалам,  
Борарман сарғайиб, борарман сўлиб...

1987

\* \* \*

Ҳей лолалар,  
Баҳор тукқан  
Бахтли болалар,  
Забт этдингиз  
Хор кўнглимни,  
Дала-тузимни.  
Мен тўпори,  
Дилда бори –  
Ахли дорман,  
Бир мартага нисор этсам сизга сўзимни.

Ҳеч бўлмади,  
Ватанимга ватансизлик,  
Дайди чиқдим.  
Бола-чақам хаёлимни шопиради.  
Юрагимга умид ўтин,  
Кўмир йўқдир,  
Жигарларим қишда қорни ёпинади.





Ochiq xotiramda in qo'ydi alam,  
Toptalgan elimning xunini ko'rib.  
Nigohim yerdadir, bo'g'zimda qalam,  
Borarman sarg'ayib, borarman so'lib...

1987

\* \* \*

Hey lolalar,  
Bahor tuqqan  
Baxtli bolalar,  
Zabt etdingiz  
Xor ko'nghimni,  
Dala-tuzimni.  
Men to'pori,  
Dilda bori –  
Ahli dorman,  
Bir martaga nisor etsam sizga so'zimni.

Hech bo'lmadi,  
Vatanimga vatansizlik,  
Daydi chiqdim.  
Bola-chaqam xayolimni shopiradi.  
Yuragimga umid o'tin,  
Ko'mir yo'qdir,  
Jigarlarim qishda qorni yopinadi.





Жўраларим – дард жўраси,  
Узлатларда  
Ҳижратзада.

Қалдирғочлар уч ой боққан бу бўзимни  
Қабрин қазиб,  
Девонаваш ўзлигимни  
Дорда осиб,  
Чоғланаман супуришга ғар тузимни.

Гул кўнглимнинг қиличлари кесган бошим,  
Томоғимда  
Ниши ботган асалари  
Ғинғиллайди. Хиргойиси  
Емиш лошим.  
Кимнинг дарди?  
Кимнинг гарди?  
Ади-бади...

Сиз қозисиз!  
Ҳаммасига розидурман.  
Ковласам бас,  
Овласам бас  
Ўз сўзимни.  
Ҳали тупрок...







Jo‘ralarim – dard jo‘rasi,  
Uzlatlarda  
Hijratzada.

Qaldirg‘ochlar uch oy boqqan bu bo‘zimni  
Qabrin qazib,  
Devonavash o‘zligimni  
Dorda osib,  
Chog‘lanaman supurishga g‘ar tuzimni.

Gul ko‘nglimning qilichlari kesgan boshim,  
Tomog‘imda  
Nishi botgan asalari  
G‘ing‘illaydi. Xirgoyisi  
Yemish loshim.  
Kimning dardi?  
Kimning gardi?  
Adi-badi...

Siz qozisiz!  
Hammasiga rozidurman.  
Kovlasam bas,  
Ovlasam bas  
O‘z so‘zimni.  
Hali tuproq...





Ҳали осмон...  
Ҳеч нарсамас,  
Бир баҳорда енга олсам мен ўзимни...

1989

### ЗОҲИД

Ёмғирлар ёғмади ёр бўлиб,  
Сочлар сузилмади дор бўлиб,  
Мен гунгман...

Чимилдикнинг даричаси қанақа?  
Ичида тилсим, паричаси қанақа?  
Мен кўрман...

Нигоҳлар ҳам айтмаса-я “кутаман”,  
Бу кулоқлар мадрасани ўтаган!  
Мен карман...

Лаблар шафак, чакиради, дейдилар,  
Ҳам шафақни, ҳам юракни едилар,  
Мен очман...

1989





Hali osmon...  
Hech narsamas,  
Bir bahorda yenga olsam men o'zimni...

1989

### ZOHID

Yomg'irlar yog'madi yor bo'lib,  
Sochlar suzilmadi dor bo'lib,  
Men gungman...

Chimildiqning darichasi qanaqa?  
Ichida tilsim, parichasi qanaqa?  
Men ko'rman...

Nigohlar ham aytmasa-ya "kutaman",  
Bu quloqlar madrasani o'tagan!  
Men karman...

Lablar shafaq, chaqiradi, deydilar,  
Ham shafaqni, ham yurakni yedilar,  
Men ochman...

1989





## **БИР СЎФИЙ ТАСАВВУРИ**

Мен Шарқнинг ғоридурман, ғоридурман,  
Йўқолиб, йўқолмаган оридурман.  
Қайга қарамай, тилимдан чўғ учади,  
Сўзлар қарзи мозоримни ўлчади.  
Дўстлар-да қалбимга туфладилар,  
Қон дилим ўртасида ухладилар...  
Ўзимдан, сиздан-да уяламан,  
Гуноҳ – ман, Аллоҳимга суянаман.  
Суянган суянчиқлар синмадими?  
Юртимнинг оҳанглари тинмадими?  
Мени ҳеч ким, ҳеч қачон билолмаган,  
Мени ҳеч ким, ҳеч қачон билолмагай.  
Хаёлни тойчоқ қилиб мен чопаман,  
Сиз мени топманг, мен сизни топаман.  
Ҳайратим сўзимни нон айлади,  
Еганнинг юраги ёр сайлади.  
Орази сарғаймаган тил керакдир.  
Фурсати қарғалмаган йил керакдир?  
Мен Шарқнинг ғоридурман, зоридурман,  
Ҳар субҳ куёш ёққан коридурман...

1989





## **BIR SO'FIY TASAVVURI**

Men Sharqning g'oridurman, g'oridurman,  
Yo'qolib, yo'qolmagan oridurman.  
Qayga qaramay, tilimdan cho'g' uchadi,  
So'zlar qarzi mozorimni o'lhadi.  
Do'stlar-da qalbimga tufladilar,  
Qon dilim o'rtasida uxladilar...  
O'zimdanda, sizdanda uyalaman,  
Gunoh – man, Allohimga suyanaman.  
Suyangan suyanchiqlar sinmadimi?  
Yurtimning ohanglari tinmadimi?  
Meni hech kim, hech qachon bilolmagan,  
Meni hech kim, hech qachon bilolmagay.  
Xayolni toychoq qilib men chopaman,  
Siz meni topmang, men sizni topaman.  
Hayratim so'zimni non ayladi,  
Yeganning yuragi yor sayladi.  
Orazi sarg'aymagan til kerakdir.  
Fursati qarq'almagan yil kerakdir?  
Men Sharqning g'oridurman, zoridurman,  
Har subh quyosh yoqqan qoridurman...

1989





## ЧЎЛПОН

Ҳали кўп қон қусиб, келади кўклам,  
Дардимизни ҳеч ким ололмас юлиб.  
Қанотимга киргин, ёлғизим алам,  
Мен кулиб келган эдим, кетяпман тўлиб.

Адирлар ҳаяжоннинг боқий дояси.  
Соф қолса бас на-да тонгнинг этаги.  
Юракнинг ипини уз, дорнинг боласи,  
Тугаб бошланади ҳурнинг эртаги.

Соткин жўраларни танир арвоҳим,  
Қуёшнинг қизлари деб гулларим сўлган.  
Гўринг нурга тўлгай эрта гуноҳим,  
Юртининг даласида бугун хор бўлган.

Юракда юраклардан ҳайдалган Худо,  
Шудгорланган дилга экканим сабр,  
Кўзи кўр қизғалдоқлар, айтмангиз видо,  
Боши очик дилдор – Бинафша хайр...

Ҳали кўп қон қусиб, келади кўклам...

1989





## CHO'LPON

Hali ko'p qon qusib, keladi ko'klam,  
Dardimizni hech kim ololmas yulib.  
Qanotimga kirgin, yolg'izim alam,  
Men kulib kelgan edim, ketyapman to'lib.

Adirlar hayajonning boqiy doyasi.  
Sof qolsa bas na-da tongning etagi.  
Yurakning ipini uz, dorning bolasi,  
Tugab boshlanadi hurning ertagi.

Sotqin jo'ralarni tanir arvohim,  
Quyoshning qizlari deb gullarim so'lgan.  
Go'ring nurga to'lgay erta gunohim,  
Yurtining dalasida bugun xor bo'lgan.

Yurakda yuraklardan haydalgan Xudo,  
Shudgorlangan dilga ekkanim sabr,  
Ko'zi ko'r qizg'aldoqlar, aytmangiz vido,  
Boshi ochiq dildor – Binafsha xayr...

Hali ko'p qon qusib, keladi ko'klam...

1989





\* \* \*

Гунг келади бу йўлдан,  
Келади одамови...  
Дили шаккок, бийрондир,  
Сухбатдоши армондир.  
Гунг келади бу йўлдан,  
Келади одамови...

Танишлардан қочади,  
Янтокқа дил очади.  
Маломатдир отаси,  
Ҳақоратдир онаси,  
Гунг келади бу йўлдан,  
Келади одамови...

Қайларгадир боқади,  
Қайлардандир оқади.  
Шудгорланган ишқ, алла,  
Қўшиксиз, сағир дала.  
Гунг келади бу йўлдан,  
Келади одамови...

Дўстлар дўстсиз қолганлар,  
Тонглар юзсиз толганлар.  
Қуёш кунни пуллайди,  
Ёвлар юртда гуллайди.







\* \* \*

Gung keladi bu yo'ldan,  
Keladi odamovi...  
Dili shakkok, biyrondir,  
Suhbatdoshi armondir.  
Gung keladi bu yo'ldan,  
Keladi odamovi...

Tanishlardan qochadi,  
Yantoqqa dil ochadi.  
Malomatdir otasi,  
Haqoratdir onasi,  
Gung keladi bu yo'ldan,  
Keladi odamovi...

Qaylarga dir boqadi,  
Qaylardandir oqadi.  
Shudgorlangan ishq, alla,  
Qo'shiqsiz, sag'ir dala.  
Gung keladi bu yo'ldan,  
Keladi odamovi...

Do'stlar do'stsiz qolganlar,  
Tonglar yuzsiz tolganlar.  
Quyosh kunni pullaydi,  
Yovlar yurtda gullaydi.





Гунг келади бу йўлдан,  
Келади одамови...

1989

### **НОМАЪЛУМНИНГ ҚЎШИҒИ**

Тонгнинг астаридан тўкилди исмим,  
Бокира хаёлни йўргаклади йўл.  
Ҳеч кимни уйғотмай, ҳар кун кон қусдим,  
Даҳаним майдонида чакнаган Бедил –  
Айтинг камалакнинг бўёғи шубҳа,  
Нафасимнинг ранги менинг канақа?

Оғзимга термулиб сайради қирлар,  
Бу майса гунгмиди, сўкмоқ сарбони.  
Қурук дарёларда ғолиб қитмирлар,  
Синиқ дуторларга жойлар рўёни.  
Балки ҳали тўлгай қалбнинг ўзани,  
Ҳали жим ҳисларим ўзани қани?

Гўрини казиди гумон ҳаваснинг,  
Юксалди саримсоқ семиртирган гап.  
Ишонч болталади ҳоким қафасин,  
Уйғонгин руҳим менинг ўлимни қарғаб!





Gung keladi bu yo'ldan,  
Keladi odamovi...

1989

### *NOMA'LUMNING QO'SHIG'I*

Tongning astaridan to'kildi ismim,  
Bokira xayolni yo'rgakladi yo'l.  
Hech kimni uyg'otmay, har kun qon qustim,  
Dahanim maydonida chaqnagan Bedil –  
Ayting kamalakning bo'yog'i shubha,  
Nafasimning rangi mening qanaqa?

Og'zimga termulib sayradi qirlar,  
Bu maysa gungmidi, so'qmoq sarboni.  
Quruq daryolarda g'olib qitmirlar,  
Siniq dutorlarga joylar ro'yonlari.  
Balki hali to'lgay qalbning o'zani,  
Hali jim hislarim o'zani qani?

Go'rini qazidi gumon havasning,  
Yuksaldi sarimsoq semirtirgan gap.  
Ishonch boltaladi hokim qafasin,  
Uyg'ongin ruhim mening o'limni qarg'ab!





Ҳавасимнинг жанги бўлмасдан бурун.  
Журъатимнинг чанги чиқмоқда нечун?

Жодулади лойли кўча кўзимни,  
Кўзи чарос кўклам бағишлаб армон.  
Айбим – мактамадим унга ўзимни,  
Сизга севги ато қилибди ёлғон.  
Сарғайган сомон билан буғдойи сарсон,  
Юракдаги тандир қачон ёпгай нон?

Зангори тупрокнинг дардлари хўрак,  
Чорлади кўзимдан оккан наҳрни.  
Зангори тупрокнинг подшоҳи – юрак,  
Асради туйғуси ўтли сағирни.  
Нега англамайди саждам дили-жон,  
Кетаяпти бўғзим тили гунг ва қон!

Такдиримга кирди кади палаги<sup>1</sup>,  
Сарв танани чирмаб интилди олға.  
Қонда элнинг зилол ҳамда кўлмаги,  
Дордаги Насимийдек осилган ёдга.  
Ахир, узилгандек ердан оёғим,  
Туйғуларга меҳроб – Каъба қаёқда?

---

<sup>1</sup> Кади (шева) – ковок.





Havasimning jangi bo'lmasdan burun.  
Jur'atimning changi chiqmoqda nechun?

Joduladi loyli ko'cha ko'zimni,  
Ko'zi charos ko'klam bag'ishlab armon.  
Aybim – maqtamadim unga o'zimni,  
Sizga sevgi ato qilibdi yolg'on.  
Sarg'aygan somon bilan bug'doyi sarson,  
Yurakdagi tandir qachon yopgay non?

Zangori tuproqning dardlari xo'rak,  
Chorladi ko'zimdan oqqan nahrni.  
Zangori tuproqning podshohi – yurak,  
Asradi tuyg'usi o'tli sag'irni.  
Nega anglamaydi sajdami dili-jon,  
Ketayapti bo'g'zim tili gung va qon!

Taqdirimga kirdi kadi palagi<sup>1</sup>,  
Sarv tanani chirmab intildi olg'a.  
Qonda elning zilol hamda ko'lmagi,  
Dordagi Nasimiydek osilgan yodga.  
Axir, uzilgandek yerdan oyog'im,  
Tuyg'ularga mehrob – Ka'ba qayoqda?

---

<sup>1</sup> Kadi (sheva) – qovoq.





Укам тушунмади, ўзича осмон,  
Отам юкунмади, ўзича армон,  
Кунлар букилмади, ўзича арқон,  
Шомлар келаверди, ўзича ўпқон.  
Сўзим гирён бўлиб чиқди васлига,  
Ҳақнинг хур тасвири нима аслида?

Баҳорнинг силласин суғорди қуёш,  
Онамнинг алласин суғорди қуёш.  
Кўнглимнинг ярасин суғорди қуёш,  
Рухимнинг даласин суғорди қуёш.  
Ўзимни танимасдан боргум қаёққа?  
Нафасимнинг ранги кўзғал оёққа!

### **НУРОТАЛИК БОЛА САФАРИ**

Янтоқларни кўтариб йўлга  
Чиқдим, мени кутлагин, эй, Шарқ.  
Хуржунимда ҳаваслар тўла,  
Ҳавасларим мевали дарахт.

Шабодалар экилган ўлка,  
Азобларга ташлар ҳали кўп.  
Яғринимга тикилган юртда  
Достонларни кетяпман экиб.





Ukam tushunmadi, o'zicha osmon,  
Otam yukunmadi, o'zicha armon,  
Kunlar bukilmadi, o'zicha arqon,  
Shomlar kelaverdi, o'zicha o'pqon.  
So'zim giryon bo'lib chiqdi vasliga,  
Haqning hur tasviri nima aslida?

Bahorning sillasin sug'ordi quyosh,  
Onamning allasin sug'ordi quyosh.  
Ko'nglimning yarasin sug'ordi quyosh,  
Ruhimning dalasin sug'ordi quyosh.  
O'zimni tanimasdan borgum qayoqqa?  
Nafasimning rangi qo'zg'al oyoqqa!

### ***NUROTALIK BOLA SAFARI***

Yantoqlarni ko'tarib yo'lga  
Chiqdim, meni qutlagin, ey, Sharq.  
Xurjunimda havaslar to'la,  
Havaslarim mevali daraxt.

Shabodalar ekilgan o'lka,  
Azoblarga tashlar hali ko'p.  
Yag'rinimga tikilgan yurtda  
Dostonlarni ketyapman ekib.





Бир кўшиғим Жуманбулбулдир,  
Унинг кўзи бу қирлардир-о.  
Кўл силкийди яна битта гул,  
Жамалак соч, хайр, дилрабо.

Ортга қайтиб кўрмоқлик душвор,  
Шувокларни оламан жангга,  
Бор умримга етгулик наҳор,  
Баҳор байроқ берар Ватанга.

Йўлга чиқар қирлардан дунё,  
Одамларнинг қалбидан созим.  
Хуржунимда тўла Осиё,  
Қутла мени тўнғич овозим.

\* \* \*

Ойлар ўртасида бўсанинг ранги,  
Йиллар оша эса тонгнинг овози.  
Мен сизга эсдалик учун қолдиргум  
Севгига зориққан ўн етти ёзни.

Бўшанг ёғдулардан чакнади тилак,  
Отлар дупурини ёдлади алла.







Bir qo‘shig‘im Jumanbulbuldir,  
Uning ko‘zi bu qirlardir-o.  
Qo‘l silkiydi yana bitta gul,  
Jamalak soch, xayr, dilrabo.

Ortga qaytib ko‘rmoqlik dushvor,  
Shuvoqlarni olaman jangga,  
Bor umrimga yetgulik nahor,  
Bahor bayroq berar Vatanga.

Yo‘lga chiqar qirlardan dunyo,  
Odamlarning qalbidan sozim.  
Xurjunimda to‘la Osiyo,  
Qutla meni to‘ng‘ich ovozim.

\* \* \*

Oylar o‘rtasida bo‘saning rangi,  
Yillar osha esa tongning ovozi.  
Men sizga esdalik uchun qoldirgum  
Sevgiga zoriqqan o‘n etti yozni.

Bo‘shang yog‘dulardan chaqnadi tilak,  
Otlar dupurini yodladi alla.





Мен сизга эсдалик учун қолдиргум,  
Ўн еттига кирган яна бир дала.

Орзу субҳонининг дардлари йўлда...  
Онам кўз ёшига ёпинган осмон.  
Мен сизга эсдалик учун қолдиргум,  
Сиктамоқлик учун ўн етти армон.

Сўнгра мунг оралаб қайтмайман ортга,  
Майли меҳрларсиз узилгум, толгум.  
Ёдга олавергим қишлоқ йўлини,  
Кўзингиз чўғларини кўзимга олгум...

## **БОБОМ ФАЙЗУЛЛО ҲАЙДАР ХОТИРАСИГА**

Бугун ўланингиз қайда, қайда ўзингиз,  
Менинг томоғимга тикилган жавзо.  
Энди тупроқ тинглар ўтли сўзингиз,  
Жонга ўт ташлади руҳоний қазо.  
Эл сизни кузатди Наврўз тонгида,  
Гиёҳлар кўк кийиб, оқ ўраб само.  
Мен-чи, кечикиб бордим таъзиянгизга,  
Сўзингизни ўстирмақчи бўлган бедаво.  
Кечикдим, қарзимни юз йил узолмас





Men sizga esdalik uchun qoldirgum,  
O'n yettiga kirgan yana bir dala.

Orzu subhonining dardlari yo'lda...  
Onam ko'z yoshiga yopingan osmon.  
Men sizga esdalik uchun qoldirgum,  
Siqtamoqlik uchun o'n yetti armon.

So'ngra mung oralab qaytmayman ortga,  
Mayli mehrlarsiz uzilgum, tolgum.  
Yodga olavergim qishloq yo'lini,  
Ko'zingiz cho'g'larini ko'zimga olgum...

### **BOBOM FAYZULLO HAYDAR XOTIRASIGA**

Bugun o'laningiz qayda, qayda o'zingiz,  
Mening tomog'imga tiqilgan javzo.  
Endi tuproq tinglar o'tli so'zingiz,  
Jonga o't tashladi ruhoniy qazo.  
El sizni kuzatdi Navro'z tongida,  
Giyohlar ko'k kiyib, oq o'rab samo.  
Men-chi, kechikib bordim ta'ziyangizga,  
So'zingizni o'stirmoqchi bo'lgan bedavo.  
Kechikdim, qarzimni yuz yil uzolmas





Хаётнинг ёлғончи, терс аравасида.  
Кўзёш ичга чўккан, дардим увлолмас,  
Қорачиғи булок ярамасларнинг...  
Қушлар азон айтган чини азадор,  
Патларини юлган кўкда турналар.  
Улар етмиш баҳор сиздан хабардор,  
Улар етмиш кузак қалбни тирнаган.  
Билмадим, шеър керак эдими, сизга,  
Тилингиздан эса тушмасди ҳикмат.  
Нима қолдирдингиз азалий бизга,  
Англаб қон йиғлади, қувнади фикрат.

Таржимаи ҳолми, у кимга керак?  
Ўн ёш кичик эди сиздан «инқилоб».  
Афсус, жанг қилмади қаро кун юрак,  
Нега саҳрои дард чалмади рубоб?  
Мен сиздан нафратландим, ҳам  
хайратландим,  
Ёмон кўриб-кўриб, севдим жонимдан.  
Гунг забон замон тушун, тушун шу бугун,  
Ўргулгим, кўлмакдаги ҳалол қонимдан...  
Болалик. Илк ҳосилга кирган шафтоли,  
Чикдим тепасига нафс илинжида,  
Каллаклаб ташладингиз манфур хаёлни,  
Шаҳид кетди ниҳол, тирик йўнғичка.





Hayotning yolg'onchi, ters aravasida.  
Ko'zyosh ichga cho'kkan, dardim uvlolmas,  
Qorachig'i buloq yaramaslarning...  
Qushlar azon aytgan chini azador,  
Patlarini yulgan ko'kda turnalar.  
Ular yetmish bahor sizdan xabardor,  
Ular yetmish kuzak qalbni tirnagan.  
Bilmadim, she'r kerak edimi, sizga,  
Tilingizdan esa tushmasdi hikmat.  
Nima qoldirdingiz azaliy bizga,  
Anglab qon yig'ladi, quvnadi fikrat.

Tarjimayi holmi, u kimga kerak?  
O'n yosh kichik edi sizdan "inqilob".  
Afsus, jang qilmadi qaro kun yurak,  
Nega sahroyi dard chalmadi rubob?  
Men sizdan nafratlandim, ham hayratlandim,  
Yomon ko'rib-ko'rib, sevdim jonimdan.  
Gung zabon zamon tushun, tushun shu  
bugun,  
O'rgulgim, ko'lmakdagi halol qonimdan...  
Bolalik. Ilk hosilga kirgan shaftoli,  
Chiqdim tepasiga nafs ilinjida,  
Kallaklab tashladingiz manfur xayolni,  
Shahid ketdi nihol, tirik yo'ng'ichqa.





Кўрдингизми молни бизлардан яхши,  
Ёхуд биз ҳайвондан эдикми ёвуз.  
Эй, бадфеъл руҳияти бепоён бахши,  
Овул куйларига ҳоким чанқовуз.  
Зиёрат қилолмайман қишлоққа борсам,  
Гўрингизни, аввал дардкашим оғил.  
Ундаги омовларга дилимни ёрсам,  
Эгасиз бўйинтуруғнинг тилида довул:  
– Тингла, ўғри ўғил, кўргин, кўр ўғил,  
Эшит, эшитмасанг бўлгил хўр, ўғил.  
Тўқимлар бўш ҳамон, дунё хар, ўғил,  
Сўзи соф кўпларнинг, иши ғар, ўғил...

Бугун ўланингиз қайда, қайда ўзингиз...

1989

\* \* \*

Сувратимдан эзилди гулим,  
Қурбонига сузилди гулим.

Қарзларидан тиккан белбоғи,  
Рўмолчаси ишкнинг улоғи.

Чимилдикда ўлтирдик хомуш,  
Сарғайди-ей, қарғалган болиш.





Ko'rdingizmi molni bizlardan yaxshi,  
Yoxud biz hayvondan edikmi yovuz.  
Ey, badfe'l ruhiyati bepoyon baxshi,  
Ovul kuylariga hokim chanqovuz.  
Ziyorat qilolmayman qishloqqa borsam,  
Go'ringizni, avval dardkashim og'il.  
Undagi omochlarga dilimni yorsam,  
Egasiz bo'yinturug'ning tilida dovul:  
– Tingla, o'g'ri o'g'il, ko'rgin, ko'r o'g'il,  
Eshit, eshitmasang bo'lgil xo'r, o'g'il.  
To'qimlar bo'sh hamon, dunyo xar, o'g'il,  
So'zi sof ko'plarning, ishi g'ar, o'g'il...

Bugun o'laningiz qayda, qayda o'zingiz...

1989

\* \* \*

Suvratimdan ezildi gulim,  
Qurboniga suzildi gulim.

Qarzlaridan tikkan belbog'i,  
Ro'molchasi ishqning ulog'i.

Chimildiqda o'ltirdik xomush,  
Sarg'aydi-yey, qarg'algan bolish.





У ўзига, мен ўзимга ғарқ,  
У ўзича, мен ўзимча Шарқ.

Қон даламдан узилган, гулим,  
Кўнгли арқдек бузилган, гулим...

1989

\* \* \*

Ўпишиб исинишади бемахрамлар,  
Мен гунгман, мен гадоман ўз ватанимда.  
Унутилган содда, лақма кўкламим,  
Февраль далалари қалб маҳзанимда.

Қанча тиришмайин, қанча чопмайин  
Эскилик урфини дилга сочаман.  
Қари гулхайрилар сотманглар,  
Қилич нигоҳларга кўнгил очаман.

Шаҳар оч бўрининг йиртиқ қулоғи,  
Куз ўтиб боради ундан тентираб.  
Соллана-соллана йиғлайди боғлар,  
Тобут тайёрланган менга хазондан.

Келганини билмай моможон кузак,  
Кузатади кимни, кутади кимни?







U o'ziga, men o'zimga g'arq,  
U o'zicha, men o'zimcha Sharq.

Qon dalamdan uzilgan, gulim,  
Ko'ngli arkdek buzilgan, gulim...

1989

\* \* \*

O'pishib isinishadi bemahramlar,  
Men gungman, men gadoman o'z vatanimda.  
Unutilgan sodda, laqma ko'klamim,  
Fevral dalalari qalb mahzanimda.

Qancha tirishmayin, qancha chopmayin  
Eskilik urfini dilga sochaman.  
Qari gulxayrilar sotmanglar,  
Qilich nigohlarga ko'ngil ochaman.

Shahar och bo'rining yirtiq qulog'i,  
Kuz o'tib boradi undan tentirab.  
Sollana-sollana yig'laydi bog'lar,  
Tobut tayyorlangan menga xazondan.

Kelganini bilmay momojon kuzak,  
Kuzatadi kimni, kutadi kimni?





Орзуси бир арава ва битта тентак,  
Юрагига босади юраксиз симни.

Сарғайган чимзорлар дакки пар тўшак,  
Қалдирғоч уясида беёр хотира.  
Кошки, фарзанд камолида азадор тилак,  
Олманинг сочига осик соҳира.

Бўш қалбнинг чўнтаги қаппайган елдан,  
Раъногулнинг устихони ҳокима ифор.  
Ишқни дараклангиз майса элидан,  
Навқирон кўк булутлар қилади ифтор.

1989

## ДУНЁ

Ҳали овозимни тинглаганинг йўқ,  
Менинг сўзларимга зор эмас дунё.  
Нега юрагимга солдинг унда чўғ,  
Нега хор исмимни чакирар дарё?

Қани тушунтиргин, англатгин гўзал,  
Булбуллари гумроҳ, чумчуғи обид.





Orzusi bir arava va bitta tentak,  
Yuragiga bosadi yuraksiz simni.

Sarg'aygan chimzorlar daqqi par to'shak,  
Qaldirg'och uyasida beyor xotira.  
Koshki, farzand kamolida azador tilak,  
Olmaning sochiga osiq sohira.

Bo'sh qalbning cho'ntagi qappaygan yeldan,  
Ra'nogulning ustixonni hokima ifor.  
Ishqni daraklangiz maysa elidan,  
Navqiron ko'k bulutlar qiladi iftor.

1989

## **DUNYO**

Hali ovozimni tinglaganing yo'q,  
Mening so'zlarimga zor emas dunyo.  
Nega yuragimga solding unda cho'g',  
Nega xor ismimni chaqirar daryo?

Qani tushuntirgin, anglatgin go'zal,  
Bulbullari gumroh, chumchug'i obid.





Нега мен бош урган меҳроблар ўсал,  
Турналар арғимчоғи – шоҳона тобут?

Балки шунақа дайдиб, йитиб кетарман  
Чечаклари етим баҳор руҳимнинг...  
Балки шомда маъсум гуллар тутарман,  
Қон йиғлаб лолалари ўксик умримнинг.

На бўлса ҳам энди ортга қайтмасман,  
Орқалаб дала-қирлар хаёлларини.  
Одамларга эса дардим айтмасман,  
Оралаб тонг ўпмаган дилдорларини.

1991

\* \* \*

*Янтоқ гуллаганда  
тузилган эканман.*

Янтоқ гули адирнинг туғи,  
Ҳансирайди қайрилмачоқ йўл.  
Хайр она, қайғурманг она,  
Ҳаёт ўзи хайр-хўш, "бўл-бўл"...  
Менинг гулим тўкилди, сўлди,  
Ўғлимники кўкарди, кулди.





Nega men bosh urgan mehroblar o'sal,  
Turnalar arg'imchog'i – shohona tobut?

Balki shunaqa daydib, yitib ketarman  
Chechaklari yetim bahor ruhimning...  
Balki shomda ma'sum gullar tutarman,  
Qon yig'lab lolalari o'ksik umrimning.

Na bo'lsa ham endi ortga qaytmasman,  
Orqalab dala-qirlar xayollarini.  
Odamlarga esa dardim aytmasman,  
Oralab tong o'pmagan dildorlarini.

1991

\* \* \*

*Yantoq gullaganda  
tug'ilgan ekanman.*

Yantoq guli adirning tug'i,  
Hansiraydi qayrilmachiq yo'l.  
Xayr ona, qayg'urmang ona,  
Hayot o'zi xayr-xo'sh, "bo'l-bo'l"...  
Mening gulim to'kildi, so'ldi,  
O'g'limniki ko'kardi, kuldi.





Янтоқ гули адирнинг туғи,  
Сўроқлайди йўлнинг чанглари.  
Хайр она, кайғурманг, она,  
Мунча гўзал кайғу ранглари.  
Мени ҳамма-ҳамма алдади,  
Фақатгина кайғу англади.

Янтоқ гули адирнинг туғи,  
Жилмаяди ҳорғин терагим.  
Хайр она, кайғурманг она,  
Наҳот энди йўқдир керагим?  
Сўнган каби чўғли тилагим,  
Балки керак энди ўлмагим.

Янтоқ гули адирнинг туғи,  
Солланади, солланар армон.  
Хайр она, кайғурманг она,  
Руҳим узар ҳар кун бир арқон.  
Мен ҳам осмон, осмон ҳам осмон,  
Тотли, тахир тақдир, онажон...

Янтоқ гули адирнинг туғи,  
Хайр она, кайғурманг, она...

1992





Yantoq guli adirning tug'i,  
So'roqlaydi yo'ning changlari.  
Xayr ona, qayg'urmang, ona,  
Muncha go'zal qayg'u ranglari.  
Meni hamma-hamma aldadi,  
Faqatgina qayg'u angladi.

Yantoq guli adirning tug'i,  
Jilmayadi horg'in teragim.  
Xayr ona, qayg'urmang ona,  
Nahot endi yo'qdir keragim?  
So'ngan kabi cho'g'li tilagim,  
Balki kerak endi o'lmagim.

Yantoq guli adirning tug'i,  
Sollanadi, sollanar armon.  
Xayr ona, qayg'urmang ona,  
Ruhim uzar har kun bir arqon.  
Men ham osmon, osmon ham osmon,  
Totli, taxir taqdir, onajon...

Yantoq guli adirning tug'i,  
Xayr ona, qayg'urmang, ona...

1992





\* \* \*

Мен телба. Ўзимдан енгилган телба,  
Дилимни ёндирар ишқнинг чўғлари.  
Кимни излаганман, кимгаман эга,  
Рухимни руҳимнинг ўзи бўғади.

Кўчаларда дайди, ишқнинг гадоси,  
Ёлвориб қараса, қонайди яра.  
Лола нигоҳимда кўрнинг нидоси,  
Дилим сенга ташна, фақат қарама.

Бўлдим ожиз, ҳатто қолдим ишончсиз,  
Овораман, ғамни кўз-кўз қилолмай.  
Жоҳил худосиз, дер, нодон меҳрсиз,  
Яшамоғим шартми ўзни биллолмай?

Мен телба. Менга ҳеч ўхшамас телба,  
Аллалаб ухлатсам, ухламас хотир.  
Кулман – орзулари қолган беэга,  
Кўрқоқ кўнғироғим сизни уйғотур.

1990







\* \* \*

Men telba. O‘zimdan yengilgan telba,  
Dilimni yondirar ishqning cho‘g‘lari.  
Kimni izlaganman, kimgaman ega,  
Ruhimni ruhimning o‘zi bo‘g‘adi.

Ko‘chalarda daydi, ishqning gadosi,  
Yolvorib qarasa, qonaydi yara.  
Lola nigohimda ko‘rning nidosi,  
Dilim senga tashna, faqat qarama.

Bo‘ldim ojiz, hatto qoldim ishonchsiz,  
Ovoraman, g‘ammi ko‘z-ko‘z qilolmay.  
Johil xudosiz, der, nodon mehirsiz,  
Yashamog‘im shartmi o‘zni bilolmay?

Men telba. Menga hech o‘xshamas telba,  
Allalab uxlatsam, uxlamas xotir.  
Qulman – orzulari qolgan beega,  
Qo‘rqoq qo‘ng‘irog‘im sizni uyg‘otur.

1990





## АРМОН

(Ўғлим Дилшодга)

Менинг бу дунёда савдойи ишқим  
 Шафакнинг юрагини тирнар беозор.  
 Тушунмас феъли хуйим, итим – кўшиғим,  
 Қалдирғоч таҳсинига бўлган сазовор.  
 Хаёл кемасида жони жаҳоним,  
 Рухимга ортмоқлайди чидовсиз ғусса.  
 Ортда чиркираган севгим – армоним,  
 Умрим қиёмида тўкилган бўза.  
 Чалғимоқчи бўлиб изғидим сарсон,  
 Дўсти биродарлар кўнглидан айри.  
 Дардим уфқидан ўтмаган карвон,  
 Одамовиликда замона зайли.  
 Қакнус азасида туғилдинг, ДИЛШОД,  
 Ғамнинг қувончида янада базм.  
 Бунда одамлигим гуноҳкор сароб,  
 Бунда шоирлигим жилпангсоз назм.  
 Барибир нолаларим қирларга етмас,  
 Бўғзида қилич қотган интизор дунё.  
 Нигоҳлар оғриғимни ковлар, ичар маст,  
 Бошимга ўтиради қаҳри қор рўё...  
 Шабнамларга бокиб излайман маъни,  
 Бизнинг умримиз ҳам гўёки шабнам.





## ARMON

(O'g'lim Dilshodga)

Mening bu dunyoda savdoyi ishqim  
Shafaqning yuragini tirnar bezor.  
Tushunmas fe'li huyim, itim – qo'shig'im,  
Qaldirg'och tahsiniga bo'lgan sazovor.  
Xayol kemasida joni jahonim,  
Ruhingga ortmoqlaydi chidovsiz g'ussa.  
Ortda chirqiragan sevgim – armonim,  
Umrin qiyomida to'kilgan bo'za.  
Chalg'imoqchi bo'lib izg'idim sarson,  
Do'sti birodarlar ko'nglidan ayri.  
Dardim ufqidan o'tmagan karvon,  
Odamovilikda zamona zayli.  
Qaqnus azasida tug'ilding, DILSHOD,  
G'amning quvonchida yanada bazm.  
Bunda odamligim gunohkor sarob,  
Bunda shoirligim jilpangsoz nazm.  
Baribir nolalarim qirlarga yetmas,  
Bo'g'zida qilich qotgan intizor dunyo.  
Nigohlar og'rig'imni kovlar, ichar mast,  
Boshimga o'tiradi qahri qor ro'yo...  
Shabnamlarga boqib izlayman ma'ni,  
Bizning umrimiz ham go'yoki shabnam.





Қизғанма мен ғарибдан оддий нарсани –  
Очилмай сўлимасин Кўкламим кўклам.  
Кулфи йўқ кўнгилларга кўриндим ялли,  
Бойбека ҳасратларга юпун ва хасис.  
Худойим, юрагимни очяпман, қани  
Топганим-йўкотганим поёнсиз, сўнгсиз.  
Дилбар куй чехрасида рангин изтироб,  
Қаҳратон тепасидан офтобдай ўтгин.  
Чопқила орзуларим, майли мен хароб,  
Юлдузлар даврасида ойни унутгин.  
Билмадим, нима истаб, кимларни кўмсаб  
Варраklar пойгасида тебранар ноним.  
Кечир бу телбани – қария-гўдак,  
Кўклар дарёсида оқади коним.  
Ҳаётнинг селларида жолам кўзлаган  
Муҳаббат оғушида бадавлат узлат.  
Уйғониш кўнғироғи бўзлаб музлаган,  
Бир пулдир милён фасл, телба ҳақиқат.  
Лайлаklar минорларга айтмади фикрат,  
Умиднинг тилларида умид чалажон.  
Азоби соясида эврилган кулфат,  
Хорлигинг юрагимга санчилган эҳсон.  
Доим кимларнидир бошимда кўрдим,  
Ўргимчакдек кимлар миям ичида.  
Ҳайҳот, тугамаса шўрлик ғўрлигим.





Qizg'anma men g'aribdan oddiy narsani –  
Ochilmay so'limasin Ko'klamim ko'klam.  
Qulfi yo'q ko'ngillarga ko'rindim yalli,  
Boybeka hasratlarga yupun va xasis.  
Xudoyim, yuragimni ochyapman, qani  
Topganim-yo'qotganim poyonsiz, so'ngsiz.  
Dilbar kuy chehrasida rangin iztirob,  
Qahraton tepasidan oftobday o'tgin.  
Chopqila orzularim, mayli men xarob,  
Yulduzlar davrasida oyni unutgin.  
Bilmadim, nima istab, kimlarni qo'msab  
Varraklar poygasida tebranar nonim.  
Kechir bu telbani – qariya-go'dak,  
Ko'klar daryosida oqadi qonim.  
Hayotning sellarida jolam ko'zlagan  
Muhabbat og'ushida badavlat uzlat.  
Uyg'onish qo'ng'irog'i bo'zlab muzlagan,  
Bir puldir milyon fasl, telba haqiqat.  
Laylaklar minorlarga aytmedi fikrat,  
Umidning tillarida umid chalajon.  
Azobi soyasida evrilgan kulfat,  
Xorliging yuragimga sanchilgan ehson.  
Doim kimlarnidir boshimda ko'rdim,  
O'rgimchakdek kimlar miyam ichida.  
Hayhot, tugamasa sho'rlik g'o'rligim.





Ёниб англомокда кўклам кечида.  
Маддохликда тенгсиз майналар сотқин,  
Шоҳ туйғулар ора дард овораси.  
Қилич камалакда... капалак чопгин,  
Балки орланадир қасос наъраси.  
Тобелик саҳросида оёғим ботган,  
Рухимни минг асрлик чулғаган қуллик.  
Ҳаяжон тўлғоғини бевақт уйғотган,  
Туғилса нафасингда келажак ўлик.  
Индамай ўтармидим, жим кетармидим  
Кишаним синиғида мардлар суяги.  
Чала ҳофизларинг не битар эди,  
Зулматнинг хуржунида тонгнинг эртаги.  
Қарғалган гул мену сен хаста ғунча,  
Беиз тақдиримиз кимларга керак.  
Юрак муз диёри устида кунда,  
Бошсиз оломонга томоша, эрмак.  
Дорга осилмаган ит кам, сичқон кам.  
Ҳаётимнинг ярми қувончга рўза.  
Тубсиз хаёлотга чўкиблар ўлсам,  
Ахир нишонам ким, ўзингдан ўзга.  
Турна қанотини элтсин илтифот,  
Майса нафасида тиклан зурриётим.  
Танимас касамини сабри сил сабот,  
Душманга тик қаролмай хўнграйди ёдим.





Yonib anglanmoqda ko'klam kechida.  
Maddohlikda tengsiz maynalar sotqin,  
Shoh tuyg'ular ora dard ovarasi.  
Qilich kamalakda... kapalak chopgin,  
Balki orlanadir qasos na'rasi.  
Tobelik sahrosida oyog'im botgan,  
Ruhimni ming asrlik chulg'agan qullik.  
Hayajon to'lg'og'ini bevaqt uyg'otgan,  
Tug'ilsa nafasingda kelajak o'lik.  
Indamay o'tarmidim, jim ketarmidim  
Kishanim sinig'ida mardlar suyagi.  
Chala hofizlaring ne bitar edi,  
Zulmatning xurjunida tongning ertagi.  
Qarg'algan gul men-u sen xasta g'uncha,  
Beiz taqdirimiz kimlarga kerak.  
Yurak muz diyori ustida kunda,  
Boshsiz olomonga tomosha, ermak.  
Dorga osilmagan it kam, sichqon kam.  
Hayotimning yarmi quvonchga ro'za.  
Tubsiz xayolotga cho'kiblar o'lsam,  
Axir nishonam kim, o'zingdan o'zga.  
Turna qanotini eltsin iltifot,  
Maysa nafasida tiklan zurriyotim.  
Tanimas qasamini sabri sil sabot,  
Dushmanga tik qarolmay ho'ngraydi yodim.





Йиғла, бўғзимдаги атирлар чиқсин,  
Чидарман тишимни босиб тишимга.  
Йиғла, исмимдаги меҳрлар чиқсин,  
Йиғлашинг келтирсин мени хушимга.  
Майли яшамайин тайинли, жўшиб,  
Танглайимда ўйнар мангу пулсирот.  
Кечам ҳувуллаган, эртам ҳам бўшлиқ,  
Борлигинг – йўқлигингга ичаман зардоб.  
Мана ўттизинчи баҳор бошимда,  
Ўттиз бор бепарво ғимирлаган жон.  
Ўттиз бор чўмилган ялпиз ёшимга,  
Ўттиз бор алвидо юкланган карвон.  
Бирок минг бир ҳалак ситилган жоним.  
Бозор бўлиб ётган кўнглида мозор.  
Синовми Парвардигор менга бу оним,  
Баҳорнинг адоғида ёғаётган қор...  
Менинг бу дунёда савдои ишқим,  
Бўғзигача дардга, хатга қарздор.  
Сарғарган сариқ гулдай, тулдай ёшлигим...  
Туманлар пардасида бежон, бемадор...

1993







Yig'la, bo'g'zimdagi atirlar chiqsin,  
Chidarman tishimni bosib tishimga.  
Yig'la, ismimdagi mehrlar chiqsin,  
Yig'lashing keltirsin meni hushimga.  
Mayli yashamayin tayinli, jo'shib,  
Tanglayimda o'ynar mangu pulsirot.  
Kecham huvullagan, ertam ham bo'shliq,  
Borlig'ing – yo'qligingga ichaman zardob.  
Mana o'ttizinchi bahor boshimda,  
O'ttiz bor beparvo g'imirlagan jon.  
O'ttiz bor cho'milgan yalpiz yoshimga,  
O'ttiz bor alvido yuklangan karvon.  
Biroq ming bir halak sitilgan jonim.  
Bozor bo'lib yotgan ko'nglida mozor.  
Sinovmi Parvardigor menga bu onim,  
Bahorning adog'ida yog'ayotgan qor...  
Mening bu dunyoda savdoi ishqim,  
Bo'g'zigacha dardga, xatga qarzdor.  
Sarg'argan sariq gulday, tulday yoshligim...  
Tumanlar pardasida bejon, bemador...

1993





\* \* \*

Кўнглим-ай чўмилди покиза ёшга,  
Бир пайтлар айланган эди у тошга.  
Наҳотки, наҳотки қайта туғилдим,  
Душманим қолмади ўзимдан бошқа!..

\* \* \*

Ичим тўла армон, қай бирин айтай,  
Умрим балки ўтди орзуга етмай...  
Ҳозирча сўрама, омон бўлсам бас!  
Фақат тила сабр! Йўлимдан қайтмай.

2008

\* \* \*


Ko'nglim-ay cho'mildi pokiza yoshga,  
Bir paytlar aylangan edi y toshga.  
Nahotki, nahotki qayta tug'ildim,  
Dushmanim qolmadi o'zimdand boshqa!..

\* \* \*

Ichim to'la armon, qay birin aytay,  
Umrin balki o'tdi orzuga yetmay...  
Hozircha so'rama, omon bo'lsam bas!  
Faqat tila sabr! Yo'limdand qaytmay.

2008





*Azaliy g'ussa*





\* \* \*

Йўлларимиз бизларнинг айро,  
Тақдиримиз ўзгадан-ўзга.  
Ким зарга зор, ким меҳр гадо,  
Бошқа-бошқа борармиз кузга.

Ранги турфа бунда мардликнинг,  
Турфарокдир номардлик яна.  
Гўзаллардан гўзал бахтсизлик  
Бахтимизга қилган тантана.

Ортимиздан йиғлоқ чечаклар  
Хайрлашар, хушлашар кулиб.  
Балки маъни йўқдир эртада,  
Юрагимиз олинган юлиб.

Борадирсан, олмагайсан тан,  
Синган, синиб унган руҳимни.  
Юрагим қон, олмагайман тан  
Сендайларни тукқан тузимни.

Қони кўлмак севимли тўда,  
Одамсимон бўри галаси.  
Милён марта улардан кўра  
Менга тотли онам алласи.





\* \* \*

Yo‘llarimiz bizlarning ayro,  
Taqdirimiz o‘zgadan-o‘zga.  
Kim zarga zor, kim mehr gado,  
Boshqa-boshqa borarmiz kuzga.

Rangi turfa bunda mardlikning,  
Turfaroqdir nomardlik yana.  
Go‘zallardan go‘zal baxtsizlik  
Baxtimizga qilgan tantana.

Ortimizdan yig‘loq chechaklar  
Xayrlashar, xushlashar kulib.  
Balki ma’ni yo‘qdir ertada,  
Yuragimiz olingan yulib.

Boradirsan, olmagaysan tan,  
Singan, sinib ungan ruhimni.  
Yuragim qon, olmagayman tan  
Sendaylarni tuqqan tuzimni.

Qoni ko‘lmak sevimli to‘da,  
Odamsimon bo‘ri galasi.  
Milyon marta ulardan ko‘ra  
Menga totli onam allasi.





Ким кўкда хор, ким ерда адо,  
Қалқиб чиқар армони юзда.  
Эҳ, барибир йўлимиз айро,  
Тақдиримиз ўзгадан-ўзга...

1993

### **ХУТ САРИ**

Вафо, далаларда лопиллайди шом,  
Ариқларни музлар ётибди қучиб.  
Фуркат базми узун, фузун кўр маром,  
Олов рақслари хут сари кўчиб.

Сабр суҳбатлари зерикди зардан,  
Ақл кўпкариси тушовда тилсим.  
Беҳол манзаралар сўроқлар ватан,  
Осмон ҳовлиқади, мусаффо исмим.

Малойиклар лойли тушда чопади,  
Муҳаббатга тўйган мушуклар мисол.  
Туби тешик табассумни қопади,  
Зарангзор тупроғида чарх урган хаёл.





Kim ko'kda xor, kim yerda ado,  
Qalqib chiqar armoni yuzda.  
Eh, baribir yo'limiz ayro,  
Taqdirimiz o'zgadan o'zga...

1993

### *HUT SARI*

Vafo, dalalarda lopillaydi shom,  
Ariqlarni muzlar yotibdi quchib.  
Furqat bazmi uzun, fuzun ko'r marom,  
Olov raqslari hut sari ko'chib.

Sabr suhbatlari zerikdi zardan,  
Aql ko'pkarisi tushovda tilsim.  
Behol manzaralar so'roqlar vatan,  
Osmon hovliqadi, musaffo ismim.

Maloyiklar loyli tushda chopadi,  
Muhabbatga to'ygan mushuklar misol.  
Tubi teshik tabassumni qopadi,  
Zarangzor tuprog'ida charx urgan xayol.





Латиф лисонига бермоқдами зеб  
Ифор кўчасидан ўтмаган ўлат.  
Шифо даррасини кеча-кундуз еб,  
Еллар машк олади, машшоқа сийрат.

Рухим, торсиз қолган бемадор руҳим,  
Диловар ўтлоқларда яйраса, қани.  
Ишончидан айри, сиёҳли туйғу,  
Лоқайд давраларда излайди маъни.

Шамшод дарахтини йиқади йўрик,  
Осма кўприкларнинг кўзгуси замон.  
Далли кенгликларда йиртилган чорик,  
Қанот чиқарганинг рост бўлсин, ёрон.

Алла айтиб қишни уйғотди нахот,  
Нола қилиб кўкни тўзғитган банда.  
Ором кучоғида бўл хонасалот,  
Агар журъатингга топмасанг жанда...

1993







Latif lisoniga bermoqdami zeb  
Ifor ko'chasidan o'tmagan o'lat.  
Shifo darrasini kecha-kunduz yeb,  
Yellar mashq oladi, mashshoqa siyrat.

Ruhim, torsiz qolgan bemador ruhim,  
Dilovar o'tloqlarda yayrasa, qani.  
Ishonchidan ayri, siyohli tuyg'u,  
Loqayd davralarda izlaydi ma'ni.

Shamshod daraxtini yiqadi yo'riq,  
Osma ko'priklarning ko'zgusi zamon.  
Dalli kengliklarda yirtilgan choriq,  
Qanot chiqarganing rost bo'lsin, yoron.

Alla aytib qishni uyg'otdi nahot,  
Nola qilib ko'kni to'zg'itgan banda.  
Orom quchog'ida bo'l xonasalot,  
Agar jur'atingga topmasang janda...

1993





APЗ

Турналар қалқиса кўклам бошида,  
Кийчилар қўл силкса қирлар рошида,  
Ҳайратлар уйғонса кўзим ёшида,  
Мен сендан жуда ҳам йироқда ВАФО.

Айланса айланган хотиралар хун,  
Шайланса йироққа ёндирилган кун,  
Кўклардан кўринса чўктирилган тун,  
Мен сендан жуда ҳам йироқда ВАФО.

Бахтсизлик етарли ҳар қандай бахтда,  
Қон туфлаган соғинч қайғуси сохта,  
Оҳ, канча оҳсизлик ёлғончи оҳда,  
Сен қайси чоҳдадир, ул қайси чоҳда...  
Мен сендан жуда ҳам йироқда ВАФО.

Иккита дунёдан нариёқда ишқим,  
Келмаса, келмаса ўзимга ҳушим,  
Юрагим эриса, бўлмаса ишим,  
Мен сендан жуда ҳам йироқда ВАФО.

Олкишга ўрарлар балки ўлимни,  
Ортидан кетганман йўлсиз йўлимни,  
Ҳеч кимдан узмадим ҳали кўнглимни,  
Мен сендан жуда ҳам йироқда ВАФО.





**ARZ**

Turnalar qalqisa ko'klam boshida,  
Qiychilar qo'l silksa qirlar roshida,  
Hayratlar uyg'onsa ko'zim yoshida,  
Men sendan juda ham yiroqda VAFO.

Aylansa aylangan xotiralar xun,  
Shaylansa yiroqqa yondirilgan kun,  
Ko'klardan ko'rinsa cho'ktirilgan tun,  
Men sendan juda ham yiroqda VAFO.

Baxtsizlik yetarli har qanday baxtda,  
Qon tuflagan sog'inch qayg'usi soxta,  
Oh, qancha ohsizlik yolg'onchi ohda,  
Sen qaysi chohdadir, ul qaysi chohda...  
Men sendan juda ham yiroqda VAFO.

Ikkita dunyodan nariyoqda ishqim,  
Kelmasa, kelmasa o'zinga hushim,  
Yuragim erisa, bo'lmasa ishim,  
Men sendan juda ham yiroqda VAFO.

Olqishga o'rarlar balki o'limni,  
Ortidan ketganman yo'lsiz yo'limni,  
Hech kimdan uzmadim hali ko'nglimni,  
Men sendan juda ham yiroqda VAFO.





## ҚИШ ОЛДИ

Аравалар синган,  
Бўм-бўш далалар,  
Дехқонлар баҳорнинг қабрида...

Арзон жуда армон,  
Увлар жимжитлик –  
Итларга берилган мангулик ёнида.

Дарё чуқурида гунг-гаранг  
Китлар гулшан курган.  
Соҳилда дўст-ёрсиз ёлғизлик –

Бўйнига осилган тул боғлар  
Тугаган шираси эсланмас,  
Хотирда доғули доғлари.

Дабдуруст кирасан туманга,  
Пайпаслаб топасан умрингни,  
Қаёққа тешилган кемада?

Ёрилар овлоқда оқ арвоҳ,  
Қари саробларда гардлари.  
Изғийди қора дард...





## QISH OLDI

Aravalar singan,  
Bo‘m-bo‘sh dalalar,  
Dehqonlar bahorning qabrida...

Arzon juda armon,  
Uvlar jimjitlik –  
Itlarga berilgan manguлик yonida.

Daryo chuqurida gung-garang  
Kitlar gulshan qurgan.  
Sohilda do‘st-yorsiz yolg‘izlik –

Bo‘yniga osilgan tul bog‘lar  
Tugagan shirasi eslanmas,  
Xotirda dog‘uli dog‘lari.

Dabdurust kirasan tumanga,  
Paypaslab topasan umringni,  
Qayoqqa teshilgan kemada?

Yorilar ovloqda oq arvoh,  
Qari saroblarda gardlari.  
Izg‘iydi qora dard...





Нигоҳда кувраган қиличлар.  
Саҳродан саҳрога хун йўли.  
Ҳаммаси алданган илинжда.

Тиллоси таланган табиат!  
Юраги пишмаган жамият!  
Кунда мана, қатл яқин.

1984

### **АҚРАБ**

Тентираб боғлардан келади садо,  
Кўпкарига кирган булутлар.  
Ақраб чакиради, жулдур чимилдик.

Гуллар товушининг ковуши тўғри,  
Ҳомилали қорларнинг туши.  
Ақраб йўл тўсади, сўзсиз, беникоҳ...

Тошбақа косасига яшринган қуёш,  
Юмрон ковагида бурдаланган ишқ.  
Ақраб дор илади, гуноҳкор мурда...





Nigohda quvragan qilichlar.  
Sahrodan sahroga xun yo'li.  
Hammasi aldangan ilinjda.

Tillosi talangan tabiat!  
Yuragi pishmagan jamiyat!  
Kunda mana, qatl yaqin.

1984

### ***AQRAB***

Tentirab bog'lardan keladi sado,  
Ko'pkariga kirgan bulutlar.  
Aqrab chaqiradi, juldur chimildiq.

Gullar tovushining kovushi to'g'ri,  
Homilali qorlarning tushi.  
Aqrab yo'l to'sadi, so'zsiz, benikoh...

Toshbaqa kosasiga yashringan quyosh,  
Yumron kovagida burdalangan ishq.  
Aqrab dor iladi, gunohkor murda...





Ният жон узади, ёзмай васият,  
Қасднинг далалари изсиз, кумтепа.  
Акраб йўл бузади, тузади тўда...

Ейди турналарнинг чинкириғин ой,  
Шайтон ишонтириб қисимлаган мой –  
Акраб зап дўкондор, етмайди захар...

1994

\* \* \*

Кечам ғамгин кечди,  
Кечам тул кечди,  
На бир оҳанг бичди,  
На бир ғул ечди.

Кечам гунгсиради,  
Баттар кирлади.  
Тушидаги кирларидан  
Қабр сўради.

Кечам ўргилмади,  
Тўрлар илмади.  
Гуллар хайридан-да,  
Бир қайрилмади.







Niyat jon uzadi, yozmay vasiyat,  
Qasdning dalalari izsiz, qumtepa.  
Aqrab yo'l buzadi, tuzadi to'da...

Yeydi turnalarning chinqirig'in oy,  
Shayton ishontirib qisimlagan moy –  
Aqrab zap do'kondor, yetmaydi zahar...

1994

\* \* \*

Kecham g'amgin kechdi,  
Kecham tul kechdi,  
Na bir ohang bichdi,  
Na bir g'ul yechdi.

Kecham gungsiradi,  
Battar kirladi.  
Tushidagi qirlaridan  
Qabr so'radi.

Kecham o'rgilmadi,  
To'rlar ilmadi.  
Gullar xayridan-da,  
Bir qayrilmadi.





Дардсиз, майсасиздай  
Кўнгли бузилди.  
Бадбахт, кимсасиздай  
Жони узилди.

Тилга кирмай кетди  
Ғусса рангидан.  
Телба деб ҳам,  
Тирилмади янгидан...

1994

### **БЕХУДА**

Беҳуда,  
Беҳуда,  
Беҳуда...  
Кушим ёзгин қанотларингни.  
Эсла, эсла, ишқимиз эсла  
Беҳуда, беҳуда, беҳуда...  
  
Гапир гўрда ойдан беҳуда,  
Чирик тилинг келтирсин ўтин.  
Ўкин, ўкин, жудаям ўкин  
Беҳуда, беҳуда, беҳуда...





Dardsiz, maysasizday  
Ko'ngli buzildi.  
Badbaxt, kimsasizday  
Joni uzildi.

Tilga kirmay ketdi  
G'ussa rangidan.  
Telba deb ham,  
Tirilmadi yangidan...

1994

### **BEHUDA**

Behuda,  
Behuda,  
Behuda...  
Qushim yozgin qanotlaringni.  
Esla, esla, ishqimiz esla  
Behuda, behuda, behuda...

Gapir go'rda oydan behuda,  
Chirik tiling keltirsin o'tin.  
O'kin, o'kin, judayam o'kin  
Behuda, behuda, behuda...





Тила, тила девоналикда!  
Онагинанг бегоналикда.  
Ит конини ичганмисан, айт!  
Беҳуда,  
    беҳуда,  
        беҳуда...

1994

\* \* \*

О жоним Саломат, жоним саломат,  
Рухга озор етмай кулсайди омад.  
Сенга сумалакни суздирар эдим,  
Кўкдан камалакни уздирар эдим,  
Кўнгил озорини тўздирар эдим,  
Хаёл бозорини киздирар эдим.

О жоним Саломат, жоним саломат,  
Рухга зиён етди, кулмади омад.  
Тонг-ла бадар кетдим, рад бало, етим,  
Ит этдим ўзимни, ҳоқоним итим,  
Кўзимга қон тўлди, ичимга ютдим,  
Омадни унутдим, сени унутдим.

О жоним Саломат, жоним саломат,  
Жоним омонат-ку, жоним-ку омад.





Tila, tila devonalikda!  
Onaginang begonalikda.  
It qonini ichganmisan, ayt!  
Behuda,  
Behuda,  
Behuda...

1994

\* \* \*

O jonim Salomat, jonim salomat,  
Ruhga ozor etmay kulsaydi omad.  
Senga sumalakni suzdirar edim,  
Ko'kdan kamalakni uzdirar edim,  
Ko'ngil ozorini to'zdirar edim,  
Xayol bozorini qizdirar edim.

O jonim Salomat, jonim salomat,  
Ruhga ziyon yetdi, kulmadi omad.  
Tong-la badar ketdim, rad balo, yetim,  
It etdim o'zimni, hoqonim itim,  
Ko'zimga qon to'ldi, ichimga yutdim,  
Omadni unutdim, seni unutdim.

O jonim Salomat, jonim salomat,  
Jonim omonat-ku, jonim-ku omad.





Яна ҳайрат бўлгин гулга эврилиб,  
Шаффоф ёшларингни ғуссам симириб,  
Зулфингга оссанг ҳам аломат дейман,  
Бизлар омадлимиз – саломат дейман.

О жоним Саломат, жоним саломат,  
На-да омад дейман, на-да фароғат.  
Орзуни армоннинг отига қўшди,  
Олдин телба этиб, сўнг берди ҳушни.  
Юлдуз юрагингни кулдирар бўлдим,  
Ўзимни армонсиз ўлдирар бўлдим!..

8.04.1995

\* \* \*

Орзикиб қарайман ҳув кенгликларга,  
Жуда муҳим нима қолганкан унда?  
Шабнам сўқмоқчага киради суқим<sup>1</sup>.  
Қафасдан бўшалиб, эрк теккан кунда  
Чопиб, у ёқларда яйрардай руҳим!..

Девонаваш сароб кўзим қоплаган,  
Тирик ўлигимга бокмайди Сахий.

---

<sup>1</sup> Суқ (шева) – ичикмоқ.





Yana hayrat bo'lgin gulga evrilib,  
SHaffof yoshlaringni g'ussam simirib,  
Zulfigga ossang ham alomat deyman,  
Bizlar omadlimiz – salomat deyman.

O jonim Salomat, jonim salomat,  
Na-da omad deyman, na-da farog'at.  
Orzuni armonning otiga qo'shdi,  
Oldin telba etib, so'ng berdi hushni.  
Yulduz yuragingni kuldirar bo'ldim,  
O'zimni armonsiz o'ldirar bo'ldim!..

8.04.1995

\* \* \*

Orziqib qarayman huv kengliklarga,  
Juda muhim nimam qolgankan unda?  
Shabnam so'qmoqchaga kiradi suqim<sup>1</sup>.  
Qafasdan bo'shalib, erk tekkan kunda  
Chopib, u yoqlarda yayrarday ruhim!..

Devonavash sarob ko'zim qoplagan,  
Tirik o'ligimga boqmaydi Saxiy.

---

<sup>1</sup> *Suq (sheva)* – ichikmoq.





Яқинларим йироқ, сўнгсиздир ҳаққи,  
Тушларимни туртар беиззат ваҳий.  
Умрим дудукланиб ўтаётган лакки...

Менинг онам соғинч, муштипар соғинч,  
Қабргача болалигим опичлар Сабр.  
Нариги дунёларда учрашмоқ уят,  
Бунисида эса қочоқлик зарур...  
Қачон юрагимга қиламан хижрат?

13.04.1995

### ЖўРА

Телба баҳор, келдингми, жўра?  
Ўн йилдан сўнг сездим шарпангни.  
Келасану ўтасан кўрмай,  
Бузганмидим ахир капангни?

Мен зор қолдим, мен ёлғиз қолдим,  
Музлаб борди тобора қоним.  
На севинчга шерик тополдим,  
На-да ғамга, гунгсираб ёндим...

Эркаларди бир вақт ҳаяжон,  
Дардларимни ўйнарди гуллар.







Yaqinlarim yiroq, so'ngsizdir haqqi,  
Tushlarimni turtar bezzat vahiy.  
Umrin duduqlanib o'tayotgan laqqi...

Mening onam sog'inch, mushtipar sog'inch,  
Qabrgacha bolaligim opichlar Sabr.  
Narigi dunyolarda uchrashmoq uyat,  
Bunisida esa qochoqlik zarur...  
Qachon yuraginga qilaman hijrat?

13.04.1995

### JO'RA

Telba bahor, keldingmi, jo'ra?  
O'n yildan so'ng sezdim sharpangni.  
Kelasan-u o'tasan ko'rmay,  
Buzganmidim axir kapangni?

Men zor qoldim, men yolg'iz qoldim,  
Muzlab bordi tobora qonim.  
Na sevinchga sherik topoldim,  
Na-da g'amga, gungsirab yondim...

Erkalardi bir vaqt hayajon,  
Dardlarimni o'ynardi gullar.





Ўн йилдирки, руҳим паришон,  
Очилмайди, кулмайди гуллар.

Эй, келдингми тўпори, жўра,  
Изларингга бош кўйиб йиғлай,  
Тизларингга бош кўйиб йиғлай,  
Ўн йилда бир мени ҳам тингла!..  
Мен ҳам англай, мен ҳам уйғонай...

Телба жўра, афанди жўра...

6.04.1995

\* \* \*

Мен гиначи ниначи...

Ел дарёси ҳаётим,  
Ҳарир, доғли қанотим.

Гулдан болта йўнаман,  
Гапдан гапга кўнаман.

Ғашлигим тўнғич болам,  
Юрагимга ўч болам...

Мен гиначи ниначи...

19.05.1995

Азалий гусса





O'n yildirki, ruhim parishon,  
Ochilmaydi, kulmaydi gullar.

Ey, keldingmi to'pori, jo'ra,  
Izlaringga bosh qo'yib yig'lay,  
Tizlaringga bosh qo'yib yig'lay,  
O'n yilda bir meni ham tingla!..  
Men ham anglay, men ham uyg'onay...

Telba jo'ra, afandi jo'ra...

6.04.1995

\* \* \*

Men ginachi ninachi...

El daryosi hayotim,  
Harir, dog'li qanotim.

Guldan bolta yo'naman,  
Gapdan gapga qo'naman.

G'ashligim to'ng'ich bolam,  
Yuragingga o'ch bolam...

Men ginachi ninachi...

19.05.1995





**АЙТМА**

Саргашта сахройи кетиб борасан,  
Армон ялангининг адоғи сароб.  
Ломакон туйғулар билан қорасан,  
Омадли розларнинг бариси хароб.  
Машаққат юлғуни дарра мен учун,  
Алам даштларида яйра мен учун,  
Таланган қафасда қарға сен учун.

Сопол товоғида хасрат битади,  
Ари уясига етмаган асал.  
Лолазор сайхонда уйқу элтади,  
Орзумнинг боғлари қуриган, ўсал.  
Манзилинг тун, шарпа, шубҳа ботқоғи,  
Арзимас мендаининг гунг кўнғироғи,  
Талъати бегона саҳар сўроғи...

Сарпойчанг югурган тушларим бекор,  
Акашак ҳисларим нажот сўрайди<sup>1</sup>.  
Латофат кўнглида бўғизланган сор,  
Оппоқ кафанига мени ўрайди.  
Мартабаси улуғ хаскаш замонда,

---

<sup>1</sup> Акашак (шева) – гужанак.





**AYTMA**

Sargashta sahroyi ketib borasan,  
Armon yalangining adog‘i sarob.  
Lomakon tuyg‘ular bilan qorasan,  
Omadli rozlarning barisi xarob.  
Mashaqqat yulg‘uni darra men uchun,  
Alam dashtlarida yayra men uchun,  
Talangan qafasda qarg‘a sen uchun.

Sopol tovog‘ida hasrat bitadi,  
Ari uyasiga yetmagan asal.  
Lolazor sayhonda uyqu eltadi,  
Orzumning bog‘lari qurigan, o‘sal.  
Manziling tun, sharpa, shubha botqog‘i,  
Arzimas mendayning gung qo‘ng‘irog‘i,  
Tal‘ati begona sahar so‘rog‘i...

Sarpoychang yugurgan tushlarim bekor,  
Akashak hislarim najot so‘raydi<sup>1</sup>.  
Latofat ko‘nglida bo‘g‘izlangan sor,  
Oppoq kafaniga meni o‘raydi.  
Martabasi ulug‘ xaskash zamonda,

---

<sup>1</sup> *Akashak (sheva)* – g‘ujanak.





Ашкинг билан ошдинг неча довонлар,  
Турбатинг гулшан бўлсин қарши томонда.

Сабил қолсин майли жўн ниятларим,  
Абад шўришларда кўринмас мазмун.  
Лайлидан сенгача бу ғийбатлару,  
Мажнундан менгача тизилган назм,  
Ордона, сарвларга ярашмас таъзим,  
Аломат бўлса гар қасдингдан қайтма,  
Табассум уволинг, ичингни айтма...

20.05.1995

### ДўСТ...

Англаб, ҳайҳот, дея юборар ҳислар  
Қарашлар ортида итлар ҳуради.  
Дўстлар, кўрар кўзлар, меҳрибон, азиз  
Бошингни ғажишга тайёр туради.

Шунга ҳам шунчалик фитна, талотўп –  
Пастлок булутларни ҳабиб билмассан.  
Фикрлар сузади изингни ўпиб,  
Лекин олдга жилмас ханжар урмасдан.





Ashking bilan oshding necha dovonlar,  
Turbating gulshan bo'lsin qarshi tomonda.

Sabil qolsin mayli jo'n niyatlarim,  
Abad sho'rishlarda ko'rinmas mazmun.  
Laylidan sengacha bu g'iybatlar-u,  
Majnundan mengacha tizilgan nazm,  
Orдона, sarvlarga yarashmas ta'zim,  
Alomat bo'lsa gar qasdingdan qaytma,  
Tabassum uvoling, ichingni aytma...

20.05.1995

### *DO'ST...*

Anglab, hayhot, deya yuborar hislar  
Qarashlar ortida itlar huradi.  
Do'stlar, ko'rar ko'zlar, mehribon, aziz  
Boshingni g'ajishga tayyor turadi.

Shunga ham shunchalik fitna, taloto'p –  
Pastloq bulutlarni habib bilmassan.  
Fikrlar suzadi izingni o'pib,  
Lekin oldga jilmas xanjar urmasdan.





Шундок аҳбобга зор, сароб ила ёр,  
Қайга борганингни асло сўрама...  
Тегрангда дўст янглиғ салангласа дор,  
Ҳеч шафқат тилама, хатто инграма!..

1995

### **РЕМБО**

Шеърият нима бу?  
Жазава, ўйин...  
Кўнглинг куйиб кетди,  
Куйикжон туйғу.

Сен бир шаффоф сақич...  
Мусаффо лаҳза –  
Кўзи синдирилган  
Иzza-дeраза...

1996







Shundoq ahbobga zor, sarob ila yor,  
Qayga borganingni aslo so'rama...  
Tegrangda do'st yanglig' salanglasa dor,  
Hech shafqat tilama, hatto ingrama!..

1995

**REMBO**

She'riyat nima bu?  
Jazava, o'yin...  
Ko'ngling kuyib ketdi,  
Kuyikjon tuyg'u.

Sen bir shaffof saqich...  
Musaffo lahza –  
Ko'zi sindirilgan  
Izza-deraza...

1996





## ҒАРИБ

Сумбула сувига чайдим кўнглимни,  
Гарчи ювиб бўлмас гуноҳларим бор.  
Гарчи ғариб кўрдим гулдай умримни,  
Беҳаёл бўғзимда тилла боғич дор.

Чайдим, мажнунлар хор, ишқимдан ёдгор,  
Туйғум чўккисига лолалар илди,  
Хотирам кирида кўмилган баҳор,  
Рухимнинг бир этак боласи келди:

– Не бир даҳшат сирлар томири дилда,  
Айтсам ўзанига қайтади дунё.  
Айтсам телба дерлар тукқан элимда,  
Булбулигўёлари Ҳақ демас асло.

Чакмоққа минганича келар видоси,  
Қани эди мен ҳам қийқириб кулсам.  
Мени-да соғинади тонгнинг Эгаси,  
Чайилган кўнглим билан кўкларда ўлсам.

1996





**G'ARIB**

Sumbula suviga chaydim ko'nglimni,  
Garchi yuvib bo'lmas gunohlarim bor.  
Garchi g'arib ko'rdim gulday umrimni,  
Bexayol bo'g'zimda tilla bog'ich dor.

Chaydim, majnunlar xor, ishqimdan yodgor,  
Tuyg'um cho'qqisiga lolalar ildi,  
Xotiram qirida ko'milgan bahor,  
Ruhimning bir etak bolasi keldi:

– Ne bir dahshat sirlar tomiri dilda,  
Aytsam o'zaniga qaytadi dunyo.  
Aytsam telba derlar tuqqan elimda,  
Bulbuligo'yolari Haq demas aslo.

Chaqmoqqa minganicha kelar vidosi,  
Qani edi men ham qiyqirib kulsam.  
Meni-da sog'inadi tongning Egasi,  
Chayilgan ko'nglim bilan ko'klarda o'lsam.

1996





\* \* \*

Ёмғир пичирлайди: бардам бўл,  
Аёзни сев, аёз ўткинчи.  
Руҳинг тушкун, юрагингда гул,  
Ахир айшинг қонлар ютгувчи!  
Аёзни сев, аёз ўткинчи...

Эзма бўлма,  
Букма тизингни.  
Кулиб йиғла, лабинг порласин.  
Боравергин музларга ёниб,  
Сени ҳам бир тақдир синасин.  
Ёшинг яшир – қалбинг қонасин.

Доди додсиз шайтон давраси,  
Сўқмоқларга солади кинна.  
Ўзлигингнинг ола қарғаси  
Қарғаса-да, ютокиб тингла!

Карахт кунлар дилбардир балким,  
Балким англамассан ҳеч қачон...  
Чорлар меросхўрсиз Сусамбил,  
Порлар болалигинг ҳур замон,  
Балким сарғаймасдир ҳеч қачон!..





\* \* \*

Yomg'ir pichirlaydi: bardam bo'l,  
Ayozni sev, ayoz o'tkinchi.  
Ruhing tushkun, yuragingda gul,  
Axir ayshing qonlar yutguvchi!  
Ayozni sev, ayoz o'tkinchi...

Ezma bo'lma,  
Bukma tizingni.  
Kulib yig'la, labing porlasin.  
Boravergin muzlarga yonib,  
Seni ham bir taqdir sinasin.  
Yoshing yashir – qalbing qonasin.

Dodi dodsiz shayton davrasi,  
So'qmoqlarga soladi kinna.  
O'zligingning ola qarg'asi  
Qarg'asa-da, yutoqib tingla!

Karaxt kunlar dilbardir balkim,  
Balkim anglamassan hech qachon...  
Chorlar merosxo'rsiz Susambil,  
Porlar bolaliging hur zamon,  
Balkim sarg'aymasdir hech qachon!..







Yuragingda o'kinch va armon...  
Yuragingda o'kinch va armon...

17.12.1996

### **HASSOS KUNLAR**

Bir tuyg'uni topdimmi yo yo'qotib qo'ydim,  
Yillar o'tmay o'zgardim men, o'zgarmay  
dunyo.

Kimlardandir hadiksirab, kimlardan kuydim,  
Adashdim men, adashtirma endi Rabbano.

Sabr bilan yashaganday edim bir umr,  
Pulsirotning dami kabi sezilmas gunoh.  
Bir soddaning azobiyam sevinchiday g'o'r,  
Meni o'zgart, komil et, deb yolvorgum, Olloh.

Zorim yetmas ma'volarda sog'inch solgan dor,  
Jonimning qay kavagida Dajjol berar pand.  
Tasavvurim mening nochor, aqlim qilmas kor,  
Seni qanday anglay, qanday ko'ray Xudovand?

Sabo bo'lsam, mast-alastga yoqimli dardim,  
Sahroga xun sachratganim bahoriy zebo.





Балки шундан сенга ҳаддим сиғди-да, Раббим,  
Қўрқиб туриб ўз-ўзимни тутдим норасо.

Энди... ёлғон... кўчаларда эринчоқ қасос,  
Баҳордаги кесак бўлиб уваланади.  
Мен бўғзидан олган кунлар бунчалар ҳассос,  
Ҳайратимнинг қарғишида саваланади.

1997

### **КЎКЛАМСИЗ КЎНГИЛ**

Бу йил ҳам баҳорим кўрмади лола,  
Тоғларга чиқишга йўқ ихтиёри.  
Ғалат бир фаслга дунё дўмбира,  
Ҳолимга келади исмимнинг ори.

Заволим субҳими очилган имкон,  
Оламни тутгандай чака оҳанги.  
Рухим кулдорлари тутар буғдой нон,  
Нафснинг бозорида ранго-ранг чангим.

Азонлаб гулдирар қолганлар тилдан,  
Тинчлиги туналган восвосдай мен ҳам.  
Май тутган ол лабли қизлари билан  
Бир лаҳза кўнглимга кирмади кўклам.







Balki shundan senga haddim sig‘di-da, Rabbim,  
Qo‘rqib turib o‘z-o‘zimni tutdim noraso.

Endi... yolg‘on... ko‘chalarda erinchoq qasos,  
Bahordagi kesak bo‘lib uvalanadi.  
Men bo‘g‘zidan olgan kunlar bunchalar hassos,  
Hayratimning qarg‘ishida savalanadi.

1997

### *KO‘KLAMSIZ KO‘NGIL*

Bu yil ham bahorim ko‘rmadi lola,  
Tog‘larga chiqishga yo‘q ixtiyori.  
G‘alat bir faslga dunyo do‘mbira,  
Holimga keladi ismimning ori.

Zavolim subhimi ochilgan imkon,  
Olamni tutganday chaqa ohangi.  
Ruhim quldorlari tutar bug‘doy non,  
Nafsning bozorida rango-rang changim.

Azonlab g‘uldirar qolganlar tildan,  
Tinchligi tunalgan vosvosday men ham.  
May tutgan ol labli qizlari bilan  
Bir lahza ko‘nglimga kirmadi ko‘klam.





Кўчага отилиб чиқади сабрим,  
Туманда санғийди дили оч гала.  
Туғма басирингга англагин, Раббим  
Тириклик нима-ю тирикчилик на?

Иссиз чечакларнинг кўпини кўрдим,  
Ҳаёсиз ғунчалар ундан зиёда.  
Негадир келадир гоҳо хўрлигим,  
Бахтсизликсиз яшаб бўлмас дунёда.

Шунда овлоқларга йўқолсам дейман,  
Нур ўйнар чўккида овунармидим?  
Мен ҳам хаёлларга ўзимча бийман,  
Балки ҳасратларни ўлдирар эдим.

Ғуборсиз ўтларга кўмилсам дейман,  
Рақссиз рақсга қараб тўймасам,  
Райҳонлар атрига чўмилсам дейман,  
Қизғалдоқлар билан пойга ўйнасам...

Нега жирканч ғордан чиқмайди бошим?  
Нега юрагимга кишан солдинг, Ҳақ?  
Ахир кўнглим кўзи сенинг сирдошинг,  
Бунча гўзалсану бунча хорсан, Шарқ?!





Ko'chaga otilib chiqadi sabrim,  
Tumanda sang'iydi dili och gala.  
Tug'ma basiringga anglatgin, Rabbim  
Tiriklik nima-yu tirikchilik na?

Issiz chechaklarning ko'pini ko'rdim,  
Hayosiz g'unchalar undan ziyoda.  
Negadir keladir goho xo'rligim,  
Baxtsizliksiz yashab bo'lmas dunyoda.

Shunda ovloqlarga yo'qolsam deyman,  
Nur o'ynar cho'qqida ovunarmidim?  
Men ham xayollarga o'zimcha biyman,  
Balki hasratlarni o'ldirar edim.

G'uborsiz o'tlarga ko'milsam deyman,  
Raqsiz raqsga qarab to'ymasam,  
Rayhonlar atriga cho'milsam deyman,  
Qizg'aldoqlar bilan poyga o'ynasam...

Nega jirkanch g'ordan chiqmaydi boshim?  
Nega yuragimga kishan solding, Haq?  
Axir ko'nglim ko'zi sening sirdoshing,  
Buncha go'zalsan-u buncha xorsan, Sharq?!





Нечун телбаланиб тонгга бокмасман,  
Шамсни қаршиламоқ эди-ку байрам.  
Умидим баҳоридан бир гул топмасман,  
Юрагим қирқ йил найсон ўтмаган дала.

Ялангтўш чўккилар қайси чоҳларда,  
Кунгай тарафларнинг ҳавоси қани?  
Ҳаётсиз гунгсирар умр оҳларда,  
Янгича муз асри маҳв этар мани.

Завксиз ташвишларда бормидир маъни?  
Онамдан айирган тап-тақир тупроқ.  
Ахир гул туйғулар эди маҳзаним,  
Энди гуллар қабри кўнглимда кўпроқ.

Баҳорга эргашмай мен қандай аҳбоб,  
Дилбар лаҳзаларнинг тутмасми хуни?  
Қандай мен дайдига суйкалар офтоб,  
Ташлаб кетган бўлса шабнам жунуни.

Аъроф саҳросида отим йиқилган,  
Зулмат ботқоғида руҳим борурдай.  
Кўзимга аёвсиз экин экилган,  
Баҳорим кўнглингни қандайин олай?..





Nechun telbalanib tongga boqmasman,  
Shamsni qarshilamoq edi-ku bayram.  
Umidim bahoridan bir gul topmasman,  
Yuragim qirq yil nayson o'tmagan dala.

Yalangto'sh cho'qqilar qaysi chohlarda,  
Kungay taraflarning havosi qani?  
Hayotsiz gungsirar umr ohlarda,  
Yangicha muz asri mahv etar mani.

Zavqsiz tashvishlarda bormidir ma'ni?  
Onamdan ayirgan tap-taqir tuproq.  
Axir gul tuyg'ular edi mahzanim,  
Endi gullar qabri ko'nglimda ko'proq.

Bahorga ergashmay men qanday ahbob,  
Dilbar lahzalarning tutmasmi xuni?  
Qanday men daydiga suykalar oftob,  
Tashlab ketgan bo'lsa shabnam jununi.

A'rof sahrosida o'tim yiqilgan,  
Zulmat botqog'ida ruhim borurday.  
Ko'zimga ayovsiz ekin ekilgan,  
Bahorim ko'nglingni qandayin olay?..





Бу йил ҳам баҳорим кўрмади лола,  
Тоғларга чиқишга йўқ ихтиёри.  
Дарбадар кўнглидан теради нола,  
Орзулар қабрига етмасдан зори...

1997, ёз

\* \* \*

Уф тортасан кексадек,  
Бўзлагайсан бўтадек,  
Тугадими эркалик  
Менинг мангу гўдагим!

Қирлардаги лоламсан,  
Ўзинг бошқа оламсан,  
Якка-ёлғиз боламсан,  
Менинг мангу гўдагим!

Яшамасдан яшадинг,  
Тикан бўлди тўшагинг,  
Минг хаёлга бошладинг...  
Менинг мангу гўдагим!

На англадинг ўзингни,  
На англадинг сўзимни.





Bu yil ham bahorim ko‘rmadi lola,  
Tog‘larga chiqishga yo‘q ixtiyori.  
Darbadar ko‘nglidan teradi nola,  
Orzular qabriga yetmasdan zori...

1997, yoz

\* \* \*

Uf tortasan keksadek,  
Bo‘zlagaysan bo‘tadek,  
Tugadimi erkalik  
Mening mangu go‘dagim!

Qirlardagi lolamsan,  
O‘zing boshqa olamsan,  
Yakka-yolg‘iz bolamsan,  
Mening mangu go‘dagim!

Yashamasdan yashading,  
Tikan bo‘ldi to‘shaging,  
Ming xayolga boshlading...  
Mening mangu go‘dagim!

Na anglading o‘zingni,  
Na anglading so‘zimni.





Эгаси бўл ўзингни!  
Менинг мангу гўдагим!

Сен турнамсан ярадор,  
Бир умр мен гўл, ночор –  
Наҳот шунча айбим бор –  
Менинг мангу гўдагим!

Бу дунёдан кетар чоғ,  
Из қолдиргин, эмас доғ.  
Бандсиз, кўкдаги япроқ  
Менинг мангу гўдагим!  
Менинг мангу гўдагим!

8.06.1998

## ҲАЁТ

Умрим бино бўлиб нимани кўрдим?  
Дилгир чигирткалар... тутмаган сўзим,  
Карлар мени тинглаб кўкларда юрди.  
Факат сўқирларга тушади кўзим!  
Йўкотдим эркка кул изимни.  
Чошгоҳда иблисни офтоб урган кун –  
Кучдим хотирада дор тортган тизни,







Egasi bo'l o'zingni!  
Mening mangu go'dagim!

Sen turnamsan yarador,  
Bir umr men go'l, nochor –  
Nahot shuncha aybim bor –  
Mening mangu go'dagim!

Bu dunyodan ketar chog',  
Iz qoldirgin, emas dog'.  
Bandsiz, ko'kdagi yaproq  
Mening mangu go'dagim!  
Mening mangu go'dagim!

8.06.1998

## *HAYOT*

Umrim bino bo'lib nimani ko'rdim?  
Dilgir chigirtkalar... tutmagan so'zim,  
Karlar meni tinglab ko'klarda yurdi.  
Faqat so'qirlarga tushadi ko'zim!  
Yo'qotdim erkka qul izimni.  
Choshgohda iblisni oftob urgan kun –  
Quchdim xotirada dor tortgan tizni,





Болта кўтарган қиз – кузак сўрар хун.  
Мажнундан ҳайдалган қари, кўтир ит.  
Дунё, дунё сўрар – кетган дуоибад.  
Менинг нима ахир тушларда умид,  
Менинг нима ахир мамот этгай рад?  
Хасдай ғов эмасман ёвуз ҳаётга,  
Адам водийида ҳислар кесаги.  
Кўмди тонг кўзини шуури содда,  
Гуноҳ манглайида иймон безаги.  
Маъсум, ғамгин руҳим ғубор оралар,  
Шабнамлар аллақачон қишнинг ҳалоли.  
Ой қопган хуршид «кўм» деб ерга зорланар,  
Қотилга мактулларнинг тушмас уволи.  
Юрак ўлдирар он мен озод бўлдим –  
Болалик кўкка кўприк солган дам қайтсин.  
Зўрлик юлдуз бўлиб теграмда кулди,  
Ҳурлик ҳаммол экан, ривоят айтсин...  
Майса, қасос исмин қайтарар йиллаб,  
Қани Ҳак уйида собит пулсирот?  
Йўкол, шубҳа билан ўпишган диллар,  
Кечсанг, мендан кечу давом эт ҳаёт!

1998, сентябрь





Bolta ko'targan qiz – kuzak so'rar xun.  
Majnundan haydalgan qari, qo'tir it.  
Dunyo, dunyo so'rar – ketgan duoyibad.  
Mening nimam axir tushlarda umid,  
Mening nimam axir mamot etgay rad?  
Xasday g'ov emasman yovuz hayotga,  
Adam vodiya hislar kesagi.  
Ko'mdi tong ko'zini shuuri sodda,  
Gunoh manglayida iymon bezagi.  
Ma'sum, g'amgin ruhim g'ubor oralar,  
Shabnamlar allaqachon qishning haloli.  
Oy qopgan xurshid "ko'm" deb yerga zorlanar,  
Qotilga maqtullarning tushmas uvoli.  
Yurak o'ldirar on men ozod bo'ldim –  
Bolalik ko'kka ko'prik solgan dam qaytsin.  
Zo'rlik yulduz bo'lib tegramda kuldi,  
Hurlik hammol ekan, rivoyat aytsin...  
Maysa, qasos ismin qaytarar yillab,  
Qani Haq uyida sobit pulsiroto?  
Yo'qol, shubha bilan o'pishgan dillar,  
Kechsang, mendan kech-u davom et hayot!

1998, sentabr





## МЕН КИМ

Бу янги работ бўлса, маймунлар кулса,  
Кўнгил ўлса қирқ йил кетмайди доғи,  
Инсон йиғлолмаса, гул кулолмаса,  
Болдан безган дунё излайди оғу...  
Мен нима ҳам дердим?  
Мен ким ҳам эрдим?

Теграмда малойиклар алвасти талъат,  
Ялмоғизлар ташлаб кетган борини...  
Исмимдан дард йўнарлар – арвоҳларга хат,  
Булбуллар юрар кўтариб бедил зорини.  
Мен нима ҳам дердим?  
Мен ким ҳам эрдим?

Оҳи хур – йўқолган нур, топилган узр,  
Ҳаётга эрк теккани шайтон қонидан.  
Иблисинг кишанида илоҳий ҳузур,  
Севинч туш кўради ғам ёбонида...  
Мен нима ҳам дердим?  
Мен ким ҳам эрдим?

Тутаб хуршид ботур, ойни уйғотур,  
Қавми номаълум шам излайди ўлжа.





## **MEN KIM**

Bu yangi rabot bo'lsa, maymunlar kulsa,  
Ko'ngil o'lsa qirq yil ketmaydi dog'i,  
Inson yig'olmasa, gul kulolmasa,  
Boldan bezgan dunyo izlaydi og'u...  
Men nima ham derdim?  
Men kim ham erdim?

Tegramda maloyiklar alvasti tal'at,  
Yalmog'izlar tashlab ketgan borini...  
Ismimdan dard yo'narlar – arvohlarga xat,  
Bulbullar yurar ko'tarib bedil zorini.  
Men nima ham derdim?  
Men kim ham erdim?

Ohi hur – yo'qolgan nur, topilgan uzr,  
Hayotga erk tekkani shayton qonidan.  
Iblisning kishanida ilohiy huzur,  
Sevinch tush ko'radi g'am yobonida...  
Men nima ham derdim?  
Men kim ham erdim?

Tutab xurshid botur, oyni uyg'otur,  
Qavmi noma'lum sham izlaydi o'lja.





Кўнглимда қиличини қайрайди қотил,  
Рухимнинг изғишида кўрк туғар ғунча.  
Мен нима ҳам дердим?  
Мен ким ҳам эрдим?

Сабил фасли заъфар, мутрибадир кар,  
Нотинчланган нағма қасди дилором.  
Сўнгги имконимни еган гавҳарлар,  
Тонгга ағёр кистар, тунга хунли жом.  
Мен нима ҳам дердим?  
Мен ким ҳам эрдим?

Довуллар алмашади, дайдири нағма, куй,  
Гуноҳга яширинганни ким ҳам топади?  
Оқиллар жоҳилларга берадилар тўй,  
Лоларуҳ маъволарда итлар чопади...  
Мен нима ҳам дердим?  
Мен ким ҳам эрдим?

Поклик хузурида, тундлик ғўрида,  
Авжи минг мақомда телбараб Саёк.  
Гоҳ ўтирсам деса Аллоҳ ўрнига,  
Ғаюр дунё тезлаб, силкитар байроқ...  
Мен нима ҳам дердим?  
Мен ким ҳам эрдим?





Ko'nglimda qilichini qayraydi qotil,  
Ruhimning izg'ishida ko'rk tug'ar g'uncha.  
Men nima ham derdim?  
Men kim ham erdim?

Sabil fasli za'far, mutribadir kar,  
Notinchlangan nag'ma qasdi dilorom.  
So'nggi imkonimni yegan gavharlar,  
Tongga ag'yor qistar, tunga xunli jom.  
Men nima ham derdim?  
Men kim ham erdim?

Dovullar almashadi, daydir nag'ma, kuy,  
Gunohga yashiringanni kim ham topadi?  
Oqillar johillarga beradilar to'y,  
Lolaruh ma'volarda itlar chopadi...  
Men nima ham derdim?  
Men kim ham erdim?

Poklik huzurida, tundlik go'rida,  
Avji ming maqomda telbarab Sayoq.  
Goh o'tirsam desa Alloh o'rniga,  
G'ayur dunyo tezlab, silkitar bayroq...  
Men nima ham derdim?  
Men kim ham erdim?





Кундада қилич чопмас бедаво севгим,  
Ишқсиз боласини моҳ йўргаклайди.  
Саробларда сармаст бевафо севгим,  
Сени хотир деган ит сўроқлайди...  
Мен нима ҳам дердим?  
Мен ким ҳам эрдим?

Ёлғон шамойили унхўр муножот –  
Қайсдан Мажнунгача азалий зулм!  
Тилсиз баҳоримни кўмиб келган бод,  
Қабрини тирналайди савдойи дилим.  
Мен нима ҳам дердим?  
Мен ким ҳам эрдим?

Тириларми кўнглим, ўлмасми ўлим?  
Кузнинг боши очик кунлари менда.  
Сендан умидим йўқ, сен, сенсиз йўлим?!  
Қарарсан кимгадир зор, тентирми сенда?!  
Мен нима ҳам дердим?  
Мен ким ҳам эрдим?

*1998, октябрь*







Kundada qilich chopmas bedavo sevgim,  
Ishqsiz bolasini moh yo'rgaklaydi.  
Saroblarda sarmast bevafo sevgim,  
Seni xotir degan it so'roqlaydi...  
Men nima ham derdim?  
Men kim ham erdim?

Yolg'on shamoyili unxo'r munojot –  
Qaysdan Majnungacha azaliy zulm!  
Tilsiz bahorimni ko'mib kelgan bod,  
Qabrini tiralaydi savdoyi dilim.  
Men nima ham derdim?  
Men kim ham erdim?

Tirilarmi ko'nglim, o'lmasmi o'lim?  
Kuzning boshi ochiq kunlari menda.  
Sendan umidim yo'q, sen, sensiz yo'lim?!.  
Qararsan kimgadir zor, tentirmi senda?!.  
Men nima ham derdim?  
Men kim ham erdim?

1998, oktabr





## КЎНГИЛ

Ўзингдан ўзингни қаён ҳайдайсан?  
Сен қачон ўзингни аён айлайсан?  
Туғилгандан буён инсон сайлайсан,  
Қани, севган дилинг – ғилмон, найлайсан,  
Вале, кўрганигни ҳайвон, англайсан...  
Кўнгил, ким истайсан, ким истайсан ит?  
Кет, десам келмадинг, кел десам эй, кет!

Ишқ деб ўйнаганинг рўёлар тўқди,  
Юлдузга эврилиб, қабрга чўқди,  
Сени ғар алдади, номардлар букди,  
Фаришталар қарғаб, дўзахий сўқди:  
Қалайсан.  
Қалайсан.  
Қалайсан.  
Кўнгил, ким истайсан, кимга қарайсан?

Фикрингга нил тортилган, яна тиғлайсан!  
Зикрингга ўқ отилган, нега ўлмайсан?  
Бўғзингга тонг тикилган, шомга сиғмайсан,  
Кўнгил, ким истайсан, ким истайсан зор.  
Нега йўқ бўлмадинг, бўлмади туриб бор?!





## KO'NGIL

O'zingdan o'zingni qayon haydaysan?  
Sen qachon o'zingni ayon aylaysan?  
Tug'ilgandan buyon inson saylaysan,  
Qani, sevgan diling – g'ilmon, naylaysan,  
Vale, ko'rganingni hayvon, anglaysan...  
Ko'ngil, kim istaysan, kim istaysan it?  
Ket, desam kelmading, kel desam ey, ket!

Ishq deb o'ynaganing ro'yolar to'kdi,  
Yulduzga evrilib, qabrga cho'kdi,  
Seni g'ar aldadi, nomardlar bukdi,  
Farishtalar qarg'ab, do'zaxiy so'kdi:  
Qalaysan.  
Qalaysan.  
Qalaysan.  
Ko'ngil, kim istaysan, kimga qaraysan?

Fikringga nil tortilgan, yana tig'laysan!  
Zikringga o'q otilgan, nega o'lmaysan?  
Bo'g'zingga tong tiqilgan, shomga sig'maysan,  
Ko'ngil, kim istaysan, kim istaysan zor.  
Nega yo'q bo'lmading, bo'lmay turib bor?!





Озурдажон аҳдлар қилганди нозинг,  
Баҳоринг бахмал киймай, ўртанди ёзинг.  
Наҳот тийрамоҳдир ишонган қозинг?  
Ахир бир телбага етмади розинг!  
Кўнгил, ким истайсан, ким истайсан қул?  
Ярим дунё сағир, ярим дунё тул.

Кимда ҳаёнг қолди, кимда уятинг?  
Кимда сийратинг бор, кимда сувратинг...  
Мени хароб қилди сенинг ҳайратинг.  
Нечун тамук сари фақат ҳижратинг?  
Кўнгил, ким истайсан, ким истайсан, оҳ.  
Аллоҳ кимни истар, кимни истар моҳ?..

Ўзингдан ўзингни қаён ҳайдайсан?  
Сен қачон ўзингни аён айлайсан???

1999





Ozurdajon ahdlar qilgandi nozing,  
Bahoring baxmal kiymay, o'rtandi yozing.  
Nahot tiyramohdir ishongan qozing?  
Axir bir telbaga yetmadi rozing!  
Ko'ngil, kim istaysan, kim istaysan qul?  
Yarim dunyo sag'ir, yarim dunyo tul.

Kimda hayong qoldi, kimda uyating?  
Kimda siyrating bor, kimda suvrating...  
Meni xarob qildi sening hayrating.  
Nechun tamuq sari faqat hijrating?  
Ko'ngil, kim istaysan, kim istaysan, oh.  
Alloh kimni istar, kimni istar moh?..

O'zingdan o'zingni qayon haydaysan?  
Sen qachon o'zingni ayon aylaysan???

1999





## АРМОНСИЗ БУЛБУЛ

*Ёш шоирга*

Бедоғ умрим ўтиб, тоғларга етдим,  
Мен армонсиз булбул, хазонсиз баҳор!  
Гуллар ўксимаган кунларда битдим,  
Ғусса мендан қочди, ҳурқди мендан зор.  
Йўлсиз умрим хайр, ўзимни англай!  
Бебок шаҳидлар-ла келар Навоий!..  
Кўз очиб, кўзи юмуқ яшабман қандай?  
Бетон ғордан чикди сўнгги Ёввойи.  
Дилранг – яшил, сарик, сурх наво ўрлар,  
Чўккидан чўккига, ҳей, ҳатлайди руҳим.  
Мен тўймадим сизга гизли чўққилар,  
Менга термулади тўймасдан ўлим.  
Букригина кирлар қобирғасида  
Чипор илон билан ўйнар бинафша.  
Машаллоҳ! Худовандо! Нузил этдинг садо:  
– Яшасанг, фақатгина уйғониб яша!  
Юпун саҳройининг хунук чечаги,  
Сенга интиламан айтмасдан алёр.  
Қайғу эртаники, севинч кечаги,  
Бошимни чакмоқ узса, эдим бахтиёр.  
Қоялар тепасида айланган бургут  
Нафсга кул махлуқларни кўрар энг тубан.





## ARMONSIZ BULBUL

Yosh shoirga

Bedog' umrim o'tib, tog'larga yetdim,  
Men armonsiz bulbul, xazonsiz bahor!  
Gullar o'ksimagan kunlarda bitdim,  
G'ussa mendan qochdi, hurkdi mendan zor.  
Yo'lsiz umrim xayr, o'zimni anglay!  
Bebok shahidlar-la kelar Navoiy!..  
Ko'z ochib, ko'zi yumuq yashabman qanday?  
Beton g'ordan chiqdi so'nggi Yovvoyi.  
Dilrang – yashil, sariq, surx navo o'rlar,  
Cho'qqidan cho'qqiga, hey, hatlaydi ruhim.  
Men to'y madim sizga gizli cho'qqilar,  
Menga termuladi to'y masdan o'lim.  
Bukrigina qirlar qobirg'asida  
Chipor ilon bilan o'ynar binafsha.  
Mashalloh! Xudovando! Nuzil etding sado:  
– Yashasang, faqatgina uyg'onib yasha!  
Yupun sahroyining xunuk chechagi,  
Senga intilaman aytmasdan alyor.  
Qayg'u ertaniki, sevinch kechagi,  
Boshimni chaqmoq uzsa, edim baxtiyor.  
Qoyalar tepasida aylangan burgut  
Nafsga qul maxluqlarni ko'rar eng tuban.





Одамнинг дарди юксак – арабми, жухуд,  
Итқитсанг омон колгум ғам-ғуссам билан!..  
Шамол олдга солиб кувар риёни,  
Теграмда ивирсийди ғўр, қора абр.  
Машрабнинг умматиман, соя дунёни,  
Йўкот кўзларимдан, менга нур зарур!  
Тонгнинг елкасидан сув ичар асрор,  
Гулнинг илдизи бор дилимда мани.  
Жуда ҳам раҳмлидир, жуда ҳам Қаҳҳор,  
Куздан баҳор сари йўллаган мани.  
Кесилган бошлар ётар, сойликда тошлар –  
Кулади қоялардан энг хур армоним.  
Изланг, кунда топинг фикртарошлар,  
Барибир эрка, ойдин эрк қабристонни.  
Ёруғ мўл, умидвор ўл, руҳияти сил!  
Ой чўқар чўкки титрар Ёр ифорида –  
Бу нукта кўкларга-ю заминга манзил  
Бок! Мени йиллаб кутган кўнгил дорида...

· Мен армонсиз булбул, хазонсиз баҳор...

1999







Odamning dardi yuksak – arabmi, juhud,  
Itqitsang omon qolgum g'am-g'ussam bilan!..  
Shamol oldga solib quvar riyoni,  
Telegramda ivirsiydi g'o'r, qora abr.  
Mashrabning ummatiman, soya dunyoni,  
Yo'qot ko'zlarimdan, menga nur zarur!  
Tongning yelkasidan suv ichar asror,  
Gulning ildizi bor dilimda mani.  
Juda ham rahmlidir, juda ham Qahhor,  
Kuzdan bahor sari yo'llagan mani.  
Kesilgan boshlar yotar, soylikda toshlar –  
Quladi qoyalardan eng hur armonim.  
Izlang, kunda toping fikrtaroshlar,  
Baribir erka, oydin erk qabristoni.  
Yorug' mo'l, umidvor o'l, ruhiyati sil!  
Oy cho'kar cho'qqi titrar Yor iforida –  
Bu nuqta ko'klarga-yu zaminga manzil  
Boq! Meni yillab kutgan ko'ngil dorida...

Men armonsiz bulbul, xazonsiz bahor...

1999





\* \* \*

*Ёд этмади гамдан ўзга ҳеч кимса мани.*

**Жалолоддин Румий**

Дилхун дунёларда мен ёлғиз эмас,  
Кўклар-да етмаган армоним бордир.  
Ориф ўтлоғини жунун менсимас,  
Юрак кабобига юрагим зордир...

Кўнглим ҳаққи кечиринг мени,  
Хуним бўйнингизда бўлмаса.  
Ўлим ҳаққи, кечиринг мени,  
Ўлим кўнглингизда бўлмаса...

Ҳаёт ҳур лолазор, бозору мозор,  
Менинг бор-йўқ айбим уни севганим.  
Бунёдларим – озор, азизларим – мор,  
Асал тиланмадим, заҳар эландим...

Интиламан инжиб, ишқимни ғажиб,  
Кўпирганим ёлғон, ўкинганим рост.  
Ҳамрозидан ранжиб рақс тушар ғамим,  
Қалқинганим ёлғон, тўкилганим рост.





\* \* \*

*Yod etmadi g'amdan o'zga hech kimsa mani.*

**Jaloliddin Rumi**

Dilxun dunyolarda men yolg'iz emas,  
Ko'klar-da yetmagan armonim bordir.  
Orif o'tlog'ini junun mensimas,  
Yurak kabobiga yuragim zordir...

Ko'nglim haqqi kechiring meni,  
Xunim bo'yningizda bo'lmasa.  
O'lim haqqi, kechiring meni,  
O'lim ko'nglingizda bo'lmasa...

Hayot hur lolazor, bozor-u mozor,  
Mening bor-yo'q aybim uni sevganim.  
Bunyodlarim – ozor, azizlarim – mor,  
Asal tilanmadim, zahar elandim...

Intilaman injib, ishqimni g'ajib,  
Ko'pirganim yolg'on, o'kinganim rost.  
Hamrozidan ranjib raqs tushar g'amim,  
Qalqinganim yolg'on, to'kilganim rost.





Тақдир адаштирган сўқир ишқ ахтар,  
Куйди жодугарнинг жодусида маст.  
Сизни чўкки кутар, мени кутар жар,  
Фақат сукут этманг, фақат беринг сас!

Дилхун дунёларда мен ёлғиз эмас...

1999

### **ОЛТИН ДОҒ**

Нигоҳингга олтин доғ тушди,  
Тонг уйғонди – кимё саодат.  
Ёлворасан, сен ўғилкушни  
Соғинади гўзал ҳалокат.

Тегранг гуллар қурган адоват,  
Яқин чоҳдан сесканмай қўйдинг.  
На бир сир бор, на бир аломат,  
Кимни суйдинг, кимни ўлдирдинг?

Базмлардан гунглигинг безди,  
Безди сендан аъроф чўллари.  
Машъум туйғу ожиздай сезди,  
Ўнгни тан олмайди сўлларинг.





Taqdir adashtirgan so‘qir ishq axtar,  
Kuydi jodugarning jodusida mast.  
Sizni cho‘qqi kutar, meni kutar jar,  
Faqat sukut etmang, faqat bering sas!

Dilxun dunyolarda men yolg‘iz emas...

1999

### *OLTIN DOG‘*

Nigohingga oltin dog‘ tushdi,  
Tong uyg‘ondi – kimyo saodat.  
Yolvorasan, sen o‘g‘ilkushni  
Sog‘inadi go‘zal halokat.

Tegrang gullar qurgan adovat,  
Yaqin chohdan seskanmay qo‘yding.  
Na bir sir bor, na bir alomat,  
Kimni suyding, kimni o‘ldirding?

Bazmlardan gungliging bezdi,  
Bezdi sendan a‘rof cho‘llari.  
Mash‘um tuyg‘u ojizday sezdi,  
O‘ngni tan olmaydi so‘llaring.





Кўлмак теграсида елади  
Жон йўлини яширган армон.  
Сени ҳамон йўқ деб билади  
Замон, замон, яна бир замон...

2001

### *АРОСАТ*

Хушу билан тирикчилик чалғитди тинмай,  
Кун яқиндир, гуноҳ яқин ул кундан кўра.  
Ҳидоятнинг кавкабида ҳазин, дудуқ най,  
Ҳабиб излар, журму исён бўлгудек жўра,  
Ҳақдан кўра, Ҳақдан кўра нимадир имлар...

Одам ўша, Ҳавво ўша, ўшадир мавлуд,  
Янги-янги ранги рангсиз сароб жимирлар.  
Ишғол этди ерни қавми, ўзи унут Лут,  
Жазо бекор, номус анко, ғозий имиллар,  
Оқдан кўра доғ таққанлар кўтарган байроқ.

Бўғизланган зариф ишқнинг руҳида ёлқин,  
Истиғфордан нажот йўқдай очилган рўза.  
Иймонини замониға пуллади оқин,  
Керилади дилни сўқир этиб сивизға –  
Сўздан кўра маънолироқ бешакл имло...





Ko'lmak tegrasida yeladi  
Jon yo'lini yashirgan armon.  
Seni hamon yo'q deb biladi  
Zamon, zamon, yana bir zamon...

2001

### *AROSAT*

Xushu bilan tirikchilik chalg'itdi tinmay,  
Kun yaqindir, gunoh yaqin ul kundan ko'ra.  
Hidoyatning kavkabida hazin, duduq nay,  
Habib izlar, jurmu isyon bo'lgudek jo'ra,  
Haqdan ko'ra, Haqdan ko'ra nimadir imlar...

Odam o'sha, Havvo o'sha, o'shadir mavlud,  
Yangi-yangi rangi rangsiz sarob jimirlar.  
Ishg'ol etdi yerni qavmi, o'zi unut Lut,  
Jazo bekor, nomus anqo, g'oziy imillar,  
Oqdan ko'ra dog' taqqanlar ko'targan bayroq.

Bo'g'izlangan zarif ishqning ruhida yolqin,  
Istig'fordan najot yo'qday ochilgan ro'za.  
Iymonini zamoniga pulladi oqin,  
Keriladi dilni so'qir etib sivizg'a –  
So'zdan ko'ra ma'noliroq beshakl imlo...





Иблис кўнгил Ҳаққа қарши очганми уруш?  
Ҳар шом офтоб эврилади ўғрибошига,  
Хурриятнинг махзани бўш, давлати поймол,  
Ким ишонар тонггача тун ичган ёшимга,  
Шохдан кўра, номаълум кул беради фармон.

Хузу билан тирикчилик чалғитди тинмай,  
Ихлос билан кўзларимни боғлади жаллод.  
Аросатнинг кўлларидан сипқораман май,  
На хушёрман, на маст-аласт, азалми шундай?  
Ҳақдан кўра, Ҳақдан кўра нимадир имлар...

2001

### **ЮРАК СИМ-СИМ ОҒРИР...**

Юрак сим-сим оғрир, дунё қоронғу,  
Бир кўнгил изладинг сени тушунган.  
Юрак сим-сим оғрир, тутдилар оғу,  
Узилмай туриб ҳам кетдинг ҳушингдан.  
Айрилдинг етмасдан кўнгил кушингга.

О, одам изладинг, истадинг бекор,  
Қайдадир бемажол қулаган вафо.  
Сен кетиб борасан, яшайсан ночор,







Iblis ko'ngil Haqqa qarshi ochganmi urush?  
Har shom oftob evriladi o'g'riboshiga,  
Hurriyatning maxzani bo'sh, davlati poymol,  
Kim ishonar tonggacha tun ichgan yoshimga,  
Shohdan ko'ra, noma'lum qul beradi farmon.

Xuzu bilan tirikchilik chalg'itdi tinmay,  
Ixlos bilan ko'zlarimni bog'ladi jallod.  
Arosatning qo'llaridan sipqoraman may,  
Na hushyorman, na mast-alast, azalmi shunday?  
Haqdan ko'ra, Haqdan ko'ra nimadir imlar...

2001

### **YURAK SIM-SIM OG'RIR...**

Yurak sim-sim og'rir, dunyo qorong'u,  
Bir ko'ngil izlading seni tushungan.  
Yurak sim-sim og'rir, tutdilar og'u,  
Uzilmay turib ham ketding hushingdan.  
Ayrilding yetmasdan ko'ngil qushingga.

O, odam izlading, istading bekor,  
Qaydadir bemajol qulagan vafo.  
Sen ketib borasan, yashaysan nochor,





Йилларинг соврилган, умринг бесафо,  
Балки йўқдир меҳр, излайсан бекор.

Мордек судраласан, итдек инграйсан,  
Чаёндек чакади аталган дўст-ёр,  
Нега ўзинг билмай кун-тун тинмайсан?  
Сенчун ҳеч бўлмаса битта ОДАМ бор!  
Ҳар касни бўйлайсан, ул деб ўйлайсан.

Балки ака сенга, балкидир сингил,  
Онанг термулади оламлар оша.  
Тушингга киради энг чиройли гул –  
Киндик қонинг томган кирлар рошида,  
Йиғлаб уйғонасан, қани, қайда ул?

Омадинг келмайди, йўлинг унмайди,  
Қасос олмоқликка етмайди сабот.  
Сени армон билар, мардон билмайди,  
Наҳот бир лаҳзали нажот йўқ, нажот...  
Ботирар чуқурроқ ханжарин ҳаёт!

2001





Yillaring sovrilgan, umring besafo,  
Balki yo'qdir mehr, izlaysan bekor.

Mordek sudralasan, itdek ingraysan,  
Chayondek chaqadi atalgan do'st-yor,  
Nega o'zing bilmay kun-tun tinmayсан?  
Senchun hech bo'lmasa bitta ODAM bor!  
Har kasni bo'ylaysan, ul deb o'ylaysan.

Balki aka senga, balkidir singil,  
Onang termuladi olamlar osha.  
Tushingga kiradi eng chiroyli gul –  
Kindik qoning tomgan qirlar roshida,  
Yig'lab uyg'onasan, qani, qayda ul?

Omading kelmaydi, yo'ling unmaydi,  
Qasos olmoqlikka yetmaydi sabot.  
Seni armon bilar, mardon bilmaydi,  
Nahot bir lahzali najot yo'q, najot...  
Botirar chuqurroq xanjarin hayot!

2001





**ТУРНАЛАР ИЗИДА**

Кетдим турналарнинг изидан  
Шамол уясида ёрни қолдириб.  
Афиф ғунчаларнинг қони қизиган...  
Ўзимдан сўзимни тондириб.

Тавба, юрагимни сўрайди очун,  
Тош асрига узанган ёдим.  
Одамови жийда ушлаган қамчи  
Кўнглингизга кирмаган додим.

Қайтаманми, билмадим ҳабиб,  
Ой тушида менинг ўрним бўш.  
Тонг отгунча Бухоро ғариб.

Кун ботгунча мендан айри ҳуш,  
Хайр энди оқ ғозли кўча,  
Зилзиласиз қулаган девор...

2001





## TURNALAR IZIDA

Ketdim turnalarning izidan  
Shamol uyasida yorni qoldirib.  
Afif g'unchalarning qoni qizigan...  
O'zimdanda so'zimni tondirib.

Tavba, yuragimni so'raydi ochun,  
Tosh asriga uzangan yodim.  
Odamovi jiyda ushlagan qamchi  
Ko'nglingizga kirmagan dodim.

Qaytamanmi, bilmadim habib,  
Oy tushida mening o'rnim bo'sh.  
Tong otguncha Buxoro g'arib.

Kun botguncha mendan ayri hush,  
Xayr endi oq g'ozli ko'cha,  
Zilzilasiz qulagan devor...

2001





## ПАРИЗОД

Ботинимда тун бор...  
Ерга тушган юлдуз билан  
Елкадош...  
Рухимнинг бўриси изғиган  
Сўқмоқда  
Жодугарнинг ҳузурига  
Кетиб борар паризод...

Ботинимда тун бор...  
Мен занжирбанд хаёл ғорида,  
Қоронғидан таскин тўқийман,  
Кимсасиз уй – зангламаган қиличим  
Девлар билан аҳбоб тутиниб  
Сулаймоннинг кўзасини излайди...

Ботинимда тун бор...  
Асир олган гулни иштиёқ,  
У-зу-н-н умри бездирар капалакни,  
Янги чикқан ойда эски доғ,  
Осмон – кора денгиз, шовуллар.

Ботинимда тун бор...  
Сиёҳ сахро ўлан-тўшаги,





## PARIZOD

Botinimda tun bor...  
Yerga tushgan yulduz bilan  
Yelkadosh...  
Ruhimning bo'risi izg'igan  
So'qmoqda  
Jodugarning huzuriga  
Kelib borar parizod...

Botinimda tun bor...  
Men zanjirband xayol g'orida,  
Qorong'idan taskin to'qiyman,  
Kimsasiz uy – zanglamagan qilichim  
Devlar bilan ahbob tutinib  
Sulaymonning ko'zasini izlaydi...

Botinimda tun bor...  
Asir olgan gulni ishtiyoq,  
U-zu-n-n umri bezdirar kapalakni,  
Yangi chiqqan oyda eski dog',  
Osmon – qora dengiz, shovullar.

Botinimda tun bor...  
Siyoh sahro o'lan-to'shagi,





Жонимнинг тушлари ёлворар:  
Борма жодугарнинг олдига,  
Менинг ҳам кўнглимга қарама,  
Икки лаҳза жонон ёруғлик –  
Паризод,  
Паризод!..

\* \* \*

Шамол елкалаган берган ваъдамни,  
Ўтган йилги ҳислар қирдан ошмоқда...  
Саҳронинг ўртасида менинг Мадинам,  
Қаъба хавоси бор ҳар бир қишлоқда.

Қалбга боссам дерман тиканзорларни,  
Субҳон қадаҳида ичким келди май.  
Найсон қамчиласин гулузорларни,  
Турна тўпларида кўринадир най.

Райҳон ифоридан боғлаган дурра,  
Туши ойдинларнинг кўргани келди.  
Кўнгли басир кулдай уйғондим, жўра,  
Ҳизр ҳабиб билди мен кўнгли силни.







Jonimning tushlari yolvorar:  
Borma jodugarning oldiga,  
Mening ham ko'nglimga qarama,  
Ikki lahza jonon yorug'lik –  
Parizod,  
Parizod!..

\* \* \*

Shamol yelkalagan bergan va'damni,  
O'tgan yilgi hislar qirdan oshmoqda...  
Sahroning o'rtasida mening Madinam,  
Ka'ba havosi bor har bir qishloqda.

Qalbgam bossam derman tikanzorlarni,  
Subhon qadahida ichkim keldi may.  
Nayson qamchilasin guluzorlarni,  
Turna to'plarida ko'rinadir nay.

Rayhon iforidan bog'lagan durra,  
Tushi oydinlarning ko'rgani keldi.  
Ko'ngli basir qulday uyg'ondim, jo'ra,  
Hizr habib bildi men ko'ngli silni.





Орзу меърожида курдим чайламини,  
Рухим кетиб борар яшил бошмоқда.  
Шамол елкалаган берган ваъдамни,  
Ўтган йилги ҳислар қирдан ошмоқда.

14.04.2002

### СОҒИНДИМ

Одамман, айтинг нега ҳурни соғиндим?  
Теграм куёшли-ку, нурни соғиндим!

Менда даъво йўқдир, даво қайда бор?  
Мусо эмасману Турни соғиндим<sup>1</sup>.

Йўқ бўламан тилло, гавҳарга боқсам,  
Кўнгил тубидаги дурни соғиндим.

Кўрдим, ҳар лаҳзамдир Қиёмат-қойим,  
Махшаргоҳда туриб, Сурни соғиндим.

Вафо вафо эмас, ҳайратни билмас,  
Одамман, вале нечун ҳурни соғиндим?..

2002, баҳор

---

<sup>1</sup> Тур – Мусо, алайҳиссалом, қирк кун ибодатга кетган тоғ.





Orzu me'rojida qurdim chaylamni,  
Ruhim ketib borar yashil boshmoqda.  
Shamol yelkalagan bergan va'damni,  
O'tgan yilgi hislar qirdan oshmoqda.

14.04.2002

### **SOG'INDIM**

Odamman, ayting nega hurni sog'indim?  
Tegram quyoshli-ku, nurni sog'indim!

Menda da'vo yo'qdir, davo qayda bor?  
Muso emasman-u Turni sog'indim<sup>1</sup>.

Yo'q bo'laman tillo, gavharga boqsam,  
Ko'ngil tubidagi durni sog'indim.

Ko'rdim, har lahzamdir Qiyomat-qoyim,  
Mahshargohda turib, Surni sog'indim.

Vafo vafo emas, hayratni bilmas,  
Odamman, vale nechun hurni sog'indim?..

2002, bahor,

---

<sup>1</sup> Tur – Muso, alayhissalom, qirq kun ibodatga ketgan tog'.





## ЗУЛАЙҲО ДОҒИ

Эй чархи даввор,  
Қон бағримга нечун  
Накш олма солдинг?  
Мендан кетди ҳабиб,  
Жонимга ошиқ табиб,  
Бемор, балога қолдинг.

Алвастидан ҳазар,  
Ҳур васлига назар,  
Кимда хаёлинг?  
Маҳшар қакшар маҳал  
Қонли шафақ – гўзал...  
Қайда уволинг?

Зулайҳо доғи ҳамон,  
Қайси кул қолди омон?  
Мени-да қарога олдинг.  
Ой кусуф кеча армон,  
Ким Юсуф эмас, илон  
Нораво, нодир дийдор  
Арога солдинг.

Севдим, дема, този,  
Гул билан битди Ёзик,





## ZULAYHO DOG'I

Ey charxi davvor,  
Qon bag'ringa nechun  
Naqsh olma solding?  
Mendan ketdi habib,  
Jonimga oshiq tabib,  
Bemor, baloga qolding.

Alvastidan hazar,  
Hur vasliga nazar,  
Kimda xayoling?  
Mahshar qaqshar mahal  
Qonli shafaq – go'zal...  
Qayda uvoling?

Zulayho dog'i hamon,  
Qaysi qul qoldi omon?  
Meni-da qaroga olding.  
Oy kusus kecha armon,  
Kim Yusuf emas, ilon  
Noravo, nodir diydor  
Aroga solding.

Sevdim, dema, tozi,  
Gul bilan bitdi Yoziq,





Баҳор видо-да толдинг.  
Ғунча, малак нозни –  
Айтиб бўлмас розни –  
Беҳуда, бекор, сўнг бор  
Худога солдинг...

18.04.2002

### САФАР

Журмдан озод эт, хайриобод кун  
Сенга етгунимча кетиб бораман.  
Ўзинг барбод этдинг, ўзинг бунёд эт!  
Жунун водийига бўлмадим нойил.  
Менинг кузим сароб, баҳорим сароб  
Дунёдан бўш қалб-ла ўтиб бораман.  
Окилу орифга тахт йўк аркингда,  
Айбим не, бир хасга эмасман мойил...  
Журмдан озод эт, хайриобод кун  
Сенга етгунимга кечиб бораман.

Саҳролар қатқалоқ, тоғлар ошдим мен  
Ўркачи ялтирок, доғи ичинда.  
Қанотли, қанотсиз наво кўринди,  
Беҳуда ҳовлиқдим, беҳис тошдим мен.  
Теграси Карбало, боғи ичинда





Bahor vido-da tolding.  
G'uncha, malak nozni –  
Aytib bo'lmas rozni –  
Behuda, bekor, so'ng bor  
Xudoga solding...

18.04.2002

### **SAFAR**

Jurmdan ozod et, xayriobod kun  
Senga yetgunimcha ketib boraman.  
O'zing barbod etding, o'zing bunyod et!  
Junun vodiya bo'lmadim noyil.  
Mening kuzim sarob, bahorim sarob  
Dunyodan bo'sh qalb-la o'tib boraman.  
Oqil-u orifga taxt yo'q arkingda,  
Aybim ne, bir xasga emasman moyil...  
Jurmdan ozod et, xayriobod kun  
Senga yetgunimga kechib boraman.

Sahrolar qatqaloq, tog'lar oshdim men  
O'rkachi yaltiroq, dog'i ichinda.  
Qanotli, qanotsiz navo ko'rindi,  
Behuda hovliqdim, behis toshdim men.  
Tegrasi Karbalo, bog'i ichinda





Иблис диёрида ҳаво кўринди...  
Сени излаюрман, сени соғиндим,  
Менга талпинган дил кутиб бораман.  
Ҳали очилмаган, инжу сочмаган  
Хушанбар гулимни тутиб бораман.

Йўлимда ўнг келмас кўзлар уюми,  
Сўз ташлаб, бўз ёпса, кўнгил торикди.  
Арзон ва жайдари ваъда қуюни –  
Ёлғоннинг лашкари олди борликни.  
Ёрликни кўтариб кўнгил ёраман,  
Тамукнинг оғзидан турналар қайтсин...  
Англадим. Сен наҳот сўнгги чорасан?  
Хунимни томчилаб ютиб бораман.

Қайда ўзинг ёкқан абадий чирок?  
Шамси-анвори йўқ юрт кўрдим нечун?  
Тилимни кесди-ю, йўқолди чакмоқ  
Энди шаккоқлардан ким олар ўчим?  
Хаёл нигоҳида сузар пулсирот,  
Хаёл нигоҳида шаффоф хараминг.  
Муслим гуноҳкорга кўрсат илтифот,  
Адашган бечорага билдир караминг.  
Шунча сабот этдим, қани эт ҳаёт!  
Ёзнинг зулматига чиқиб бораман...

2003, май-декабрь







Iblis diyorida havo ko'rindi...  
Seni izlayurman, seni sog'indim,  
Menga talpingan dil kutib boraman.  
Hali ochilmagan, inju sochmagan  
Xushanbar gulimni tutib boraman.

Yo'limda o'ng kelmas ko'zlar uyumi,  
So'z tashlab, bo'z yopsa, ko'ngil toriqdi.  
Arzon va jaydari va'da quyuni –  
Yolg'onning lashkari oldi borliqni.  
Yorliqni ko'tarib ko'ngil yoraman,  
Tamuqning og'zidan turnalar qaytsin...  
Angladim. Sen nahot so'nggi chorasani?  
Xunimni tomchilab yutib boraman.

Qayda o'zing yoqqan abadiy chiroq?  
Shamsi-anvori yo'q yurt ko'rdim nechun?  
Tilimni kesdi-yu, yo'qoldi chaqmoq  
Endi shakkoklardan kim olar o'chim?  
Xayol nigohida suzar pulsirot,  
Xayol nigohida shaffof haraming.  
Muslim gunohkorga ko'rsat iltifot,  
Adashgan bechoraga bildir karaming.  
Shuncha sabot etdim, qani et hayot!  
Yozning zulmatiga chiqib boraman...

2003, may-dekabr





## ҚИРҚ ЁШИМ

Қирқ ёшим сийлади...  
Руҳим синик, юрагим яра.  
Дардимни эшитар сахро йўк,  
Иблис билан эканман жўра!  
Берган заҳаридан кўнгли тўк!  
Дўстим йўк, дўстим йўк, дўстим йўк...

Қирқ ёшим элади...  
Тушиб кетди элакдан осмон.  
Адашдимми қуюқ туманда,  
Қуръон ўқир фаришта хуфтон,  
Ҳарф танимас мен қора қарға –  
Ишқим йўк, ишқим йўк, ишқим йўк...

Қирқ ёшим йиғлади...  
Онагинам йўл қарар ҳамон,  
Айриликдан титилган қалби.  
Санамасман ўзимни инсон,  
Кўрмайдилар чумоли каби.  
Меҳрим йўк, меҳрим йўк, меҳрим йўк...

Қирқ ёшим илғади...  
Хиёнатнинг ханжари омон,





## **QIRQ YOSHIM**

Qirq yoshim siyladi...  
Ruhim siniq, yuragim yara.  
Dardimni eshitar sahro yo‘q,  
Iblis bilan ekanman jo‘ra!  
Bergan zaharidan ko‘ngli to‘q!  
Do‘stim yo‘q, do‘stim yo‘q, do‘stim yo‘q...

Qirq yoshim eladi...  
Tushib ketdi elakdan osmon.  
Adashdimmi quyuq tumanda,  
Qur‘on o‘qir farishta xufton,  
Harf tanimas men qora qarg‘a –  
Ishqim yo‘q, ishqim yo‘q, ishqim yo‘q...

Qirq yoshim yig‘ladi...  
Onaginam yo‘l qarar hamon,  
Ayriliqdan titilgan qalbi.  
Sanamasman o‘zimni inson,  
Ko‘rmaydilar chumoli kabi.  
Mehrimg yo‘q, mehrim yo‘q, mehrim yo‘q...

Qirq yoshim ilg‘adi...  
Xiyonatning xanjari omon,





Ва тоабад дилим тилади  
Муҳаббатни қатл этган камон.  
Қаҳрим йўк, қаҳрим йўк, қаҳрим йўк...

Қирк ёшим чидади...  
Ташлаб кетди орим ҳаяжон,  
Армонимнинг жони қақшади.  
Пулга сажда қилади замон,  
Қўрқоқ, хасис менда яшади –  
Кўнглим йўк, кўнглим йўк, кўнглим йўк...

Қирк ёшим кулади...  
Илма-тешик хотира музтар.  
Жинлар чалган хаёлим мажнун.  
Хайр демоқ интиқом кўзғар,  
Салом бермоқ этади маҳкум!  
Қайғум йўк, қайғум йўк, қайғум йўк...

Қирк ёшим кулади...  
Жарларга бор, ноумид шайтон.  
Ғорларга кир, топилар маъни.  
Идрок ўсал, ирода бежон  
Самоларга чўктир кемани!  
Ўлим йўк, ўлим йўк, ўлим йўк!

2003





Va toabad dilim tiladi  
Muhabbatni qatl etgan kamon.  
Qahrim yo‘q, qahrim yo‘q, qahrim yo‘q...

Qirq yoshim chidadi...  
Tashlab ketdi orim hayajon,  
Armonimning joni qaqshadi.  
Pulga sajda qiladi zamon,  
Qo‘rqoq, xasis menda yashadi –  
Ko‘nglim yo‘q, ko‘nglim yo‘q, ko‘nglim yo‘q...

Qirq yoshim kuladi...  
Ilma-teshik xotira muztar.  
Jinlar chalgan xayolim majnun.  
Xayr demoq intiqom qo‘zg‘ar,  
Salom bermoq etadi mahkum!  
Qayg‘um yo‘q, qayg‘um yo‘q, qayg‘um yo‘q...

Qirq yoshim quladi...  
Jarlarga bor, noumid shayton.  
G‘orlarga kir, topilar ma‘ni.  
Idrok o‘sal, iroda bejon  
Samolarga cho‘ktir kemani!  
O‘lim yo‘q, o‘lim yo‘q, o‘lim yo‘q!

2003





\* \* \*

Оппок дала, руҳим орзикди,  
Ҳеч нимадан камим йўқ... ишон!  
Покизалик кўмган борлиқни  
Лаҳзасида орзу ва армон.

На саодат англадим чиндан,  
Кўнглим эриб, қорлар оқмоқда.  
Дунё мангу демагин менга  
Яшасам бас, битта чакмоқча.

29.01.2005

### **БЕВАФО ДЎСТ**

Умринг жўнми?  
Кўнглинг хунми?  
Йўлларимда йўлчи менга;  
Ўртанган кўз,  
Эзилган сўз,  
Бевафо дўст,  
Бевафо дўст  
Кўлларини силкир менга...





\* \* \*

Oppoq dala, ruhim orziqdi,  
Hech nimadan kamim yo‘q... ishon!  
Pokizalik ko‘mgan borliqni  
Lahzasida orzu va armon.

Na saodat angladim chindan,  
Ko‘nglim erib, qorlar oqmoqda.  
Dunyo mangu demagin menga  
Yashasam bas, bitta chaqmoqcha.

29.01.2005

### **BEVAFO DO‘ST**

Umring jo‘nmi?  
Ko‘ngling xunmi?  
Yo‘llarimda yo‘lchi menga;  
O‘rtangan ko‘z,  
Ezilgan so‘z,  
Bevafo do‘st,  
Bevafo do‘st  
Qo‘llarini silkir menga...





Пистоки боғ сарғарибди:  
Боғсиз дара,  
Гулсиз яра,  
Булбуллар ҳам кетиб бўлди,  
Булбул жўра,  
Сендан йўрға,  
Мендан йўрға,  
Қарғалар ҳам етиб келди,  
Қарға жўра.

Бу олам – бўз,  
Бу олам – сўз,  
Тушунилар бахт сўзсиз!  
Эссиз, эссиз...  
Наҳот юзсиз  
Бевафо дўст,  
Йўлларимда йўлчи менга  
Ўлмоқ бўлиб,  
Тирилмоқ бўлиб,  
Қўлларини силкир менга...

Сен на рақиб, қасд қилмайсан!  
Сен на ҳабиб, дўст бўлмайсан!  
Тонг йиғлайман, шом йиғлайсан,  
Кўнглимдан ҳам ҳеч чиқмайсан.







Pistoqi bog' sarg'aribdi:  
Bog'siz dara,  
Gulsiz yara,  
Bulbullar ham ketib bo'ldi,  
Bulbul jo'ra,  
Sendan yo'rg'a,  
Mendan yo'rg'a,  
Qarg'alar ham yetib keldi,  
Qarg'a jo'ra.

Bu olam – bo'z,  
Bu olam – so'z,  
Tushunilar baxt so'zsiz!  
Essiz, essiz...  
Nahot yuzsiz  
Bevafo do'st,  
Yo'llarimda yo'lchi menga  
O'lmoq bo'lib,  
Tirilmoq bo'lib,  
Qo'llarini silkir menga...

Sen na raqib, qasd qilmaysan!  
Sen na habib, do'st bo'lmaysan!  
Tong yig'layman, shom yig'laysan,  
Ko'nglimdan ham hech chiqmaysan.





Кўнглимдан ҳам ҳеч чиқмайсан...  
Қатли дорсиз,  
Қалби орсиз  
Йўлларимда йўлчи менга,  
Кўлларини силкир менга...

Бемор бедор борар эдик,  
Фаришталар учраштирди орзуларни.  
Афиф доғ бор кўчаларнинг чангишида,  
Ўзим етмас чўкқиларда гангишим-ла  
Хато қилдим,  
Адо бўлдим...  
Олам сўзсиз,  
Олам кўзсиз,  
Алам бўзсиз,  
Бевафо дўст,  
Бевафо дўст  
Йўлларимда йўлчи менга,  
Кўлларингни силки менга!!!

11.10.2005





Ko'nglimdan ham hech chiqmaysan...

Qatli dorsiz,

Qalbi orsiz

Yo'llarimda yo'lchi menga,

Qo'llarini silkir menga...

Bemor bedor borar edik,

Farishtalar uchrashirdi orzularni.

Afif dog' bor ko'chalarning changishida,

O'zim yetmas cho'qqilarda gangishim-la

Xato qildim,

Ado bo'ldim...

Olam so'zsiz,

Olam ko'zsiz,

Alam bo'zsiz,

Bevafo do'st,

Bevafo do'st

Yo'llarimda yo'lchi menga,

Qo'llaringni silki menga!!!

11.10.2005





## ХИЁНАТ

Бунча кўп қилдим хиёнат  
Мен нечун ичган тузимга,  
Сўнг йиғлаб этдим ибодат,  
Йўқ умрим келди кўзимга.  
Кутдилар мендан диёнат  
Ишониб айтган сўзимга.  
Мен эса қилдим хиёнат,  
Ҳар сафар ёлғиз ўзимга.

02.12.2005

\* \* \*

Ғуссамга йўқ бир эга,  
Йўқ менинг ҳаққим сенга.

Дев оҳор, хуррам озор,  
Сен учун таквим нега?

Нур ичсам ҳурдил баҳор,  
Ғул ечсам сенга, сенга...

Эгамас, Эга менга...

1999

Азалий ғусса





## XIYONAT

Buncha ko‘p qildim xiyonat  
Men nechun ichgan tuzimga,  
So‘ng yig‘lab etdim ibodat,  
Yo‘q umrim keldi ko‘zimga.  
Kutdilar mendan diyonat  
Ishonib aytgan so‘zimga.  
Men esa qildim xiyonat,  
Har safar yolg‘iz o‘zimga.

02.12.2005

\* \* \*

G‘ussamga yo‘q bir ega,  
Yo‘q mening haqqim senga.

Dev ohor, xurram ozor,  
Sen uchun taqvim nega?

Nur ichsam hurdil bahor,  
G‘ul yechsam senga, senga...

Egamas, Ega menga...

1999





\* \* \*

Баҳор орзиқиш-ла кўз очди яна,  
Шувит юзим мен ҳам Каъбага бурдим.  
Баҳорда баҳоройни унутмоқ анъана,  
Золим эдим, ҳам бўлдим мазлум.

Ўғлим чакиради: – Дада, Китоб бер!  
Гулга термулишга вақтим йўқ.  
Ташқарида ҳикмат ҳаёт сир,  
Тотли машаққатдан тахтим йўқ.

Сурбет елпиғичлар бунчалар чакқон,  
Хаёлим не истаса этади ваъда.  
Кўзида қалби турган ҳаёдир армон,  
Баҳорда уйғонмоқдан юрагим зада...

Намойишга чиққан жисмлар атри,  
Ҳар бири бир гўзални бўғади пинҳон.  
Исо Масих янглиғ Шоирнинг сатри  
Рухимни тирилтирар: Баҳорга ишон.

Гул давралар ичра Сен йўқ – вафо йўқ!  
Гулгин хотирангни гуллаб эслайман.  
Ҳали талъатингга кирмагандир сук,  
Куним, менинг Куним, Сени излайман...





\* \* \*

Bahor orziqish-la ko'z ochdi yana,  
Shuvit yuzim men ham Ka'baga burdim.  
Bahorda bahoroyini unutmoq an'ana,  
Zolim edim, ham bo'ldim mazlum.

O'g'lim chaqiradi: – Dada, Kitob ber!  
Gulga termulishga vaqtim yo'q.  
Tashqarida hikmat hayot sir,  
Totli mashaqqatdan taxtim yo'q.

Surbet yelpig'ichlar bunchalar chaqqon,  
Xayolim ne istasa etadi va'da.  
Ko'zida qalbi turgan hayodir armon,  
Bahorda uyg'onmoqdan yuragim zada...

Namoyishga chiqqan jismlar atri,  
Har biri bir go'zalni bo'g'adi pinhon.  
Iso Masih yanglig' Shoirning satri  
Ruhimni tiriltirar: Bahorga ishon.

Gul davralar ichra Sen yo'q – vafo yo'q!  
Gulgin xotirangni gullab eslayman.  
Hali tal'atingga kirmagandir suq,  
Kunim, mening Kunim, Seni izlayman...





Бошсизлигинг чину ёрсизлигинг дин,  
Зимистонни ташла! Кўкламга бошла!  
Ахир жуда яқин... Жуда ҳам мумкин  
Баҳорда яшамоқлик кўздаги ёш-ла!..

11.03.2006

## ОҲУ

Неча ёшга кирдим, билмадим?  
Кўзларингни эслаб йиғладим.  
Дунёлардан келар сўрагим –  
Оху, менинг орзумсан ҳамон.

Қаҳ-қаҳ отиб кулди дунёси,  
Адаштириб кетди рўёси.  
Давлатимнинг сенсан подшоси,  
Оху, менинг орзумсан ҳамон.

На қолди дил, на қолди садо,  
Мендан на бой, на чиқди гадо...  
Боламану бўлибман бобо,  
Оху, менинг орзумсан ҳамон.







Boshsizliging chin-u yorsizliging din,  
Zimistonni tashla! Ko'klamga boshla!  
Axir juda yaqin... Juda ham mumkin  
Bahorda yashamoqlik ko'zdagi yosh-la!..

11.03.2006

### *OHU*

Necha yoshga kirdim, bilmadim?  
Ko'zlaringni eslab yig'ladim.  
Dunyolardan kelar so'ragim –  
Ohu, mening orzumsan hamon.

Qah-qah otib kuldi dunyosi,  
Adashtirib ketdi ro'yosi.  
Davlatimning sensan podshosi,  
Ohu, mening orzumsan hamon.

Na qoldi dil, na qoldi sado,  
Mendan na boy, na chiqdi gado...  
Bolaman-u bo'libman bobo,  
Ohu, mening orzumsan hamon.





Тўппончамга жоним жойладим,  
Арқонингга бўйним бойладим,  
Бутун умр сени пойладим,  
Оху, менинг орзумсан ҳамон.

Кечлар ётсам тўнғиб муз мисол,  
Саҳарларда салкин куз мисол.  
Маҳшаргоҳда қолдими висол,  
Оху, менинг орзумсан ҳамон.

Йўқотганим ҳаддан зиёда,  
Топганим Бир ёруғ дунёда,  
Ҳузурингга борай пиёда,  
Оху, менинг орзумсан ҳамон!

Оху, менинг орзумсан ҳамон!

*16.09.2006, Товоқсой*





To‘pponchamga jonim joyladim,  
Arqoningga bo‘ynim boyladim,  
Butun umr seni poyladim,  
Ohu, mening orzumsan hamon.

Kechlar yotsam to‘ng‘ib muz misol,  
Saharlarda salqin kuz misol.  
Mahshargohda qoldimi visol,  
Ohu, mening orzumsan hamon.

Yo‘qotganim haddan ziyoda,  
Topganim Bir yorug‘ dunyoda,  
Huzuringga boray piyoda,  
Ohu, mening orzumsan hamon!

Ohu, mening orzumsan hamon!

*16.09.2006, Tovoqsoy*





## ДУО

Жаҳаннамдан тўсгувчи қил!  
Жаннатларда ўсгувчи қил!  
Жоҳилларга хор айлама!  
Жоҳилларга ёр айлама!  
Хусни хулқдан давлат бергин!  
Тақво отлиқ сарват бергин!

Нолакор эт, тавбакор эт!  
Энг аввало хокисор эт!  
Жонга эссин тоза ҳаво,  
Қалбга, қалбга етказ даво.  
Нафсга бандалиқдан сақла!  
Лаънатлама! Ёқла! Оқла!

На саодат ўлдирмоқ дев,  
Севдир Ўзинг! Ҳам Ўзинг сев!  
Ўзинг Тохир, Ўзинг Собур!  
Ўзинг Раҳмон, Ўзинг Ғофур!  
Ўзинг Ботин! Ўзинг Зоҳир!  
Ўзинг Аввал! Ўзинг Охир!  
Жаҳаннамдан тўсгувчи қил!  
Жаннатларда ўсгувчи қил!

20.12.2006

Азалий гусса





**DUO**

Jahannamdan to'sguvchi qil!  
Jannatlarda o'sguvchi qil!  
Johillarga xor aylama!  
Johillarga yor aylama!  
Husni xulqdan davlat bergin!  
Taqvo otliq sarvat bergin!

Nolakor et, tavbakor et!  
Eng avvalo xokisor et!  
Jonga essin toza havo,  
Qalbga, qalbga yetkaz davo.  
Nafsga bandalikdan saqla!  
La'natlama! Yoqla! Oqla!

Na saodat o'ldirmoq dev,  
Sevdir O'zing! Ham O'zing sev!  
O'zing Tohir, O'zing Sobur!  
O'zing Rahmon, O'zing G'ofur!  
O'zing Botin! O'zing Zohir!  
O'zing Avval! O'zing Oxir!  
Jahannamdan to'sguvchi qil!  
Jannatlarda o'sguvchi qil!

20.12.2006





**МУҲАББАТСИЗ...**

Нималарни килди бу кекса очун,  
Менинг ғўр бошимга нималар келди.  
Ғуссалардан бўлдим гоҳида окин,  
Йўлини йўқотганлар югурди, елди.  
Ивирсиган, ғариб кулбам жонида  
Кўнғироклар чалиб ўтар хаёлинг.  
Тоабад севадирман ишқ армонида,  
Ойнинг қиличидек чопди заволинг.  
Девлар хасмимидинг, кузатибман хуш,  
Дилимни ўлдиради пари рухсорлар.  
Яшаганим чинми, яшаганим туш,  
Кўнғил номамизни ўқир ағёрлар...  
Тош шаҳарни ташлаб кетгум бор минг бор,  
Нафратингни қуйиб ичгим келади.  
Гуноҳларим кабир, бўлдим телбавор,  
Шафоати азим Эгам билади.  
Жазо ҳақ-ку, мендан ўтди хатолик!  
Йўлга чиқдим ҳар кун қорлар оралаб.  
Қолмасин Қиёматда рози-ризолик,  
Меҳр истар жуда муҳаббатсиз қалб!..

2008





**MUHABBATSIZ...**

Nimalarni qildi bu keksa ochun,  
Mening g' o' r boshimga nimalar keldi.  
G'ussalardan bo'ldim gohida oqin,  
Yo'lini yo'qotganlar yugurdi, yeldi.  
Ivirsigan, g'arib kulbam jonida  
Qo'ng'iroqlar chalib o'tar xayoling.  
Toabad sevadirman ishq armonida,  
Oyning qilichidek chopdi zavoling.  
Devlar xasmimiding, kuzatibman xush,  
Dilimni o'ldiradi pari ruxsorlar.  
Yashaganim chinmi, yashaganim tush,  
Ko'ngil nomamizni o'qir ag'yorlar...  
Tosh shaharni tashlab ketgum bor ming bor,  
Nafratingni quyib ichgim keladi.  
Gunohlarim kabir, bo'ldim telbavor,  
Shifoati azim Egam biladi.  
Jazo haq-ku, mendan o'tdi xatolik!  
Yo'lga chiqdim har kun qorlar oralab.  
Qolmasin Qiyomatda rozi-rizolik,  
Mehr istar juda muhabbatsiz qalb!..

2008









\* \* \*

Dardima kima aytay, kuldilar yig'lay, dimog'im  
kuydi,  
Ko'rinding hur-u g'ilmon, ololmay ko'zni  
shayton qarog'im kuydi.

Yaqin bo'lganim begona, yaqin istar sog'-u  
devona,  
Orzuma kishan urdi jonona, yaqin-u yirog'im  
kuydi.

Erta-yu kech vasl istarlar, noasldan aslni istarlar,  
Vo darig'o, mil tortdi ko'zlar, vosil-u firog'im  
kuydi.

Hama yog'im g'ofil-u nodon, ichi-tashim dovuli  
buhron,  
Nega keldim chopib bul yon, deya hayron  
so'rog'im kuydi.

Ko'karmoqqa shajar qobil, bahorimda  
javonmarg dil,  
Chaqmoq urgan shikasta gul, pistoqi ul  
yaprog'im kuydi.





Муҳаббатдан тўраб нафрат, ножинсларга  
бўлиб улфат –  
Кулиб кулфат, йиғлаган мард чироғим куйди.

Кутганимни асло кутмай, Расулulloҳ хокин  
ўпмай,  
Лошим етиб, кўнгил етмай, тупроғим куйди...

2008

\* \* \*

Дўстим, атрофингга бир зумгина бок!  
Дарахтлар кўл ушлашиб кетяпти.  
Яшил тушлар билан лиммо-лим булок  
Йўлидан қайтмасларни кутяпти!..

Ок кўйлақлар кийган тоғлар бор ҳамон,  
Ҳилпирар елкасида беғубор лола!  
Турналар олислардан қайтишди омон,  
Хайрлашув чоғи кўз очган нола...

14.02.2011, Москва





Muhabbatdan to‘rab nafrat, nojinslarga bo‘lib  
ulfat –  
Kulib kulfat, yig‘lagan mard chirog‘im kuydi.

Kutganimni aslo kutmay, Rasululloh xokin  
o‘pmay,  
Loshim yetib, ko‘ngil yetmay, tuprog‘im kuydi...

2008

\* \* \*

Do‘stim, atrofingga bir zumgina boq!  
Daraxtlar qo‘l ushlab ketyapti.  
Yashil tushlar bilan limmo-lim buloq  
Yo‘lidan qaytmaslarni kutyapti!..

Oq ko‘ylaklar kiygan tog‘lar bor hamon,  
Hilpirar yelkasida beg‘ubor lola!  
Turnalar olislardan qaytishdi omon,  
Xayrlashuv chog‘i ko‘z ochgan nola...

*14.02.2011, Moskva*





\* \* \*

Кушчам, мендан олдин баҳорни сездинг,  
Мунгли кунларимга йўлладинг наво.  
Тошлоқ йўлларимда теграмда кездинг,  
Дединг: сенинг кунинг келади, Вафо!

Шукр, хиёнатлар қилмади адо,  
Гуноҳ, савобимни Ўзи билади!  
Дўстим унутгандир, душманим асло,  
Телба юрагимда бодом гуллади!..

*1.03.2011, Москва*





\* \* \*

Qushcham, mendan oldin bahorni sezding,  
Mungli kunlarimga yo'llading navo.  
Toshloq yo'llarimda tegramda kezding,  
Deding: sening kuning keladi, Vafo!

Shukr, xiyonatlar qilmadi ado,  
Gunoh, savobimni O'zi biladi!  
Do'stim unutgandir, dushmanim aslo,  
Telba yuragimda bodom gulladi!..

*1.03.2011, Moskva*





**Вафо Файзуллоҳ** (*Вафоқул Файзуллаев*) 1963 йилнинг 27 июлида Бухоро (ҳозирги Навоий) вилоятининг Кармана тумани Тоғгузар қишлоғида туғилган. ТошДУ (ҳозирги Ўзбекистон Миллий университети) журналистика факультетида (1981–1986) ва Москвадаги Адабиёт институти Олий адабиёт курсида (2009–2011) таҳсил олган.

“Ўут” (1993), “Хабарсиз севинч” (1997), “Мангу лаҳза” (2000), “Жон йўли” (2008) шеърий, “Чакмоқ ёруғи” (2012) насрий китоблар муаллифи. Ф. Кафканинг “Жараён” романини, “Отамга хат” эссесини, М.Митерлинкнинг “Сўқирлар” драмасини, Х.Борхес, К.Ҳамсун хикояларини, Ш.Бодлер, П.Верлин, А.Рембо ва И.Бродский шеърий туркумларини таржима қилган. Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси.





*Vafo Fayzulloh* (*Vafoqul Fayzullaev* hujjatlarda) 1963 yilning 27 iyulida Buxoro (hozirgi Navoiy) viloyatining Karmana tumani Tog‘guzar qishlog‘ida tug‘ilgan. ToshDU (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) jurnalistika fakultetida (1981–1986) va Moskvadagi Adabiyot instituti Oliy adabiyot kursida (2009–2011) tahsil olgan.

“Hut” (1993), “Xabarsiz sevinch” (1997), “Mangu lahza” (2000), “Jon yo‘li” (2008) she‘riy, “Chaqmoq yorug‘i” (2012) nasriy kitoblar muallifi. F. Kafkaning “Jarayon” romanini, “Otamga xat” essesini, M.Miterlinkning “So‘qirlar” dramasi, X.Borxes, K.Hamsun hikoyalarini, Sh.Bodler, P.Verlin, A.Rembo va I.Brodskiy she‘riy turkumlarini tarjima qilgan. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi.





## МУНДАРИЖА

Шоирлигим ..... 4

### Шеърлар

Куз ва баҳор оралиғида .....	12
Арафа окшоми .....	14
Шарк ҳақида Шаркнинг кўшиғи .....	16
“Пистоки кўзалардан хўпладим Шаркни...” ....	20
Кўшик .....	22
Никкало Паганинининг “Алпомиш” достони ..	32
“Қишлоқ йўлда фасли заъфарон...” .....	34
Қишлоқ томида ухлаётган ҳофиз бола .....	38
“Варрақлар осмонга солинган кўприк...” .....	40
Кўклам .....	42
Қишлоқи шоир бахти .....	44
Ёз-з-и .....	50
Баҳор ортидан муножот .....	52
“Шеърим – узокладим онамдан...” .....	58
Синглим Насибанинг шеъри .....	60
Нусха .....	62
“Гурбатхонами бу...” .....	64
Аҳмад Зоирнинг сўнгги кўшиғи .....	66
Миртемирнинг сўнгги кунлари .....	68
“Ҳей лолалар...” .....	70
Зоҳид .....	74





**MUNDARIJA**

Shoirligim .....	4
------------------	---

**She'rlar**

Kuz va bahor oralig'ida .....	13
Hayit oqshomi .....	15
Sharq haqida Sharqning qo'shig'i .....	17
"Pistoqi ko'zalardan ho'pladim Sharqni..." .....	21
Qo'shiq .....	23
Nikkalo Paganinining "Alpomish" dostoni .....	33
"Qishloq yo'lda fasli za'faron..." .....	35
Qishloq tomida uxlayotgan hofiz bola .....	39
"Varraklar osmonga solingan ko'prik..." .....	41
Ko'klam .....	43
Qishloqi shoir baxti .....	45
Yoz-z-i .....	51
Bahor ortidan munojot .....	53
"She'rim – uzoqladim onamdan..." .....	59
Singlim Nasibaning she'ri .....	61
Nusxa .....	63
"G'urbatxonami bu..." .....	65
Ahmad Zoirning so'ggi qo'shig'i .....	67
Mirtemirning so'nggi kunlari .....	69
"Hey lolalar..." .....	71
Zohid .....	75





Бир суфий тасавури .....	76
Чўлпон .....	78
“Гунг келади бу йўлдан...” .....	80
Номаълумнинг кўшиғи .....	82
Нуроталик бола сафари .....	86
“Ойлар ўртасида бўсанинг ранги...” .....	88
Бобом Файзулло Ҳайдар хотирасига .....	90
“Суратимдан эзилди гулим...” .....	94
“Ўпишиб исинишади номаҳрамлар...” .....	96
Дунё .....	98
“Янтоқ гули адирнинг туғи...” .....	100
“Мен телба. Ўзимдан енгилган телба...” .....	104
Армон .....	106
“Кўнглим-ай чўмилди покиза ёшга...” .....	114
“Ичим тўла армон, қай бирин айтай...” .....	114
“Йўлларимиз бизларнинг айро...” .....	116
Хут сари .....	118
Арз .....	122
Қиш олди .....	124
Акраб .....	126
“Кечам ғамгин кечди...” .....	128
Бехуда .....	130
“О, жоним Саломат, жоним саломат...” .....	132
“Орзиқиб қарайман ҳув кенгликларга...” .....	134
Жўра .....	136
“Мен гиначи ниначи...” .....	138





Bir sufiy tasavvuri .....	77
Cho'lon .....	79
“Gung keladi bu yo'ldan...” .....	81
Noma'lumning qo'shig'i .....	83
Nurotalik bola safari .....	87
“Oylar o'rtasida bo'saning rangi...” .....	89
Bobom Fayzullo Haydar xotirasiga .....	91
“Suratimdan ezildi gulim...” .....	95
“O'pishib isinishadi nomahramlar...” .....	97
Dunyo .....	99
“Yantoq guli adirning tug'i...” .....	101
“Men telba. O'zimdan yengilgan telba...” .....	105
Armon .....	107
“Ko'nglim-ay cho'mildi pokiza yoshga ...” .....	114
“Ichim to'la armon, qay birin aytay...” .....	114
“Yo'llarimiz bizlarning ayro...” .....	117
Hut sari .....	119
Arz .....	123
Qish oldi .....	125
Aqrab .....	127
“Kecham g'amgin kechdi...” .....	129
Behuda .....	131
“O, jonim Salomat, jonim salomat...” .....	133
“Orziqib qarayman huv kengliklarga...” .....	135
Jo'ra .....	137
“Men ginachi ninachi...” .....	139





Айтма .....	140
Дўст... ..	142
Рембо .....	144
Ғариб .....	146
“Ёмғир пичирлайди: бардам бўл!..” .....	148
Ҳассос кунлар .....	150
Кўкламсиз кўнгил .....	152
“Уф тортасан кексадек...” .....	158
Ҳаёт .....	160
Мен ким? .....	164
Кўнгил .....	170
Армонсиз булбул .....	174
“Дилхун дунёларда мен ёлғиз эмас...” .....	178
Олтин доғ .....	180
Аросат .....	182
“Юрак сим-сим оғрир...” .....	184
Турналар изида .....	188
Паризод .....	190
“Шамол елкалаган берган ваъдамни...” .....	192
Соғиндим .....	194
Зулайхо доғи .....	196
Сафар .....	198
Қирқ ёшим .....	202
“Оппоқ дала, руҳим орзиқди...” .....	206
Бевафо дўст .....	206
Хиёнат .....	212





Aytma .....	141
Do'st... ..	143
Rembo .....	145
G'arib .....	147
“Yomg'ir pichirlaydi: bardam bo'!..” .....	149
Hassos kunlar .....	151
Ko'klamsiz ko'ngil .....	153
“Uf tortasan keksadek...” .....	159
Hayot .....	161
Men kim? .....	165
Ko'ngil .....	171
Armonsiz bulbul .....	175
“Dilxun dunyolarda men yolg'iz emas...” .....	179
Oltin dog' .....	181
Arosat .....	183
“Yurak sim-sim og'rir...” .....	185
Turnalar izida .....	189
Parizod .....	191
“Shamol yelkalagan bergan va'damni...” .....	193
Sog'indim .....	195
Zulayho dog'i .....	197
Safar .....	199
Qirq yoshim .....	203
“Oppoq dala, ruhim orziqdi...” .....	207
Bevafø do'st .....	207
Xiyonat .....	213





“Ғуссамга йўқ бир эга...” .....	212
“Баҳор орзиқиш-ла кўз очди яна...” .....	214
Оху .....	216
Дуо .....	220
Мухаббатсиз .....	222
“Дардима кима айтай...” .....	224
“Дўстим, атрофинга бир зумгина бок...” .....	226
“Кушчам, мендан олдин баҳорни сездинг...” .	228





“G‘ussamga yo‘q bir ega...” .....	213
“Bahor orziqish-la ko‘z ochdi yana...” .....	215
Ohu .....	217
Duo .....	221
Muhabbatsiz .....	223
“Dardima kima aytay...” .....	225
“Do‘stim, atrofingga bir zungina boq...” .....	227
“Qushcham, mendan oldin bahorni sezding...” ..	229



**Vafo FAYZULLOH**

**AZALIY G'USSA**

*yoxud*

***FARISHTALAR UCHRASHTIRDI ORZULARNI***

*She'rlar*

“Sharq” nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent – 2013

Muharrir *Qodirjon Qayumov*  
Rassom *Sarvar Farmonov*  
Badiiy muharrir *Umid Sulaymonov*  
Texnik muharrir *Ra'no Boboxonova*  
Sahifalovchi *Mastura Atxamova*  
Musahhihlar: *Sh. Xurramova, M. Ziyamuhamedova*

**Nashr litsenziyasi AI № 208, 28.08.2011-yil.**

Terishga berildi 17.12.2012. Bosishga ruxsat etildi 13.09.2013. Bichimi 60x90<sup>1/32</sup>. “TimesNewRoman” garniturası. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 6,79. Nashriyot-hisob tabog'i 5,18. Adadi 1500 nusxa. Buyurtma № 3244. Bahosi kelishilgan narxda.

“Sharq” nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,  
100000, Toshkent shahri, “Buyuk Turon” ko'chasi, 41.